



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2024, № 3

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **X.I.Ibraimov**
Bola tarbiyasida uchraydigan muammoli vaziyatlar va ta'lim-tarbiya uzviyligi
- 7 **A.Lutfullayev**
Musiqiy pedagogik ta'limni samaradorligi oshirishda uzluksizlik masalalari
- 11 **L.M.Qaraxanova**
«Tabiiy fanlar»ni o'qitishda kichik yoshdagi o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish
- 16 **B.Abduvaxitov**
Uzluksiz ta'lim tizimida iqtidorli o'quvchilarni saralash va ularni xalqaro olimpiadalarga tayyorlashning metodik xususiyatlari
- 21 **G.X.Tilayova**
Boshlang'ich sinf husnihat darslarida o'quvchilarning yozuv ko'nikmalarini uzviy shakllantirish
- 26 **N.R.Masharipova**
Milliy qahramonlar faoliyati vositasida uzluksiz ta'lim jaraoni subyektlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish imkoniyatlari
- 30 **N.B.Raxmatullaeva**
Uzluksiz ta'limda pedagoglarning korporativ etikasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish
- 36 **N.G.Dilova, N.S.Hakimova**
«Lifeong learning» konsepsiyasi asosida uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash – davr talabi
- 43 **B.B.Yarmatov**
Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak tarix o'qituvchilarning metodik tayyorligini takomillashtirish
- 49 **P.X.Джурпаев**
Инновационная деятельность и творческое саморазвитие педагога
- 53 **F.Ibraimova**
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishni uzviy tashkil etish

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 57 **K.A.Mo'minov**
Ta'lim oluvchilarning kreativ kompetensiyalarini uzluksiz ta'lim tizimida farsayt texnologiyalari asosida rivojlantirish

MA'NAVIY TARBIYA

- 63 **X.M.Tojiboyeva**
Yunogogika – uzluksiz ta'lim pedagogikasining mustaqil sohasi sifatida
- 68 **O.X.Mamatqulova**
Globalashuv sharoitida o'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirishning pedagogik jihatlarini
- 73 **X.P.Pardayev**
Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilarga uzviy ta'sir etuvchi omillar

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 78 **M.Umaraliyeva**
Inklyuziv muhitda kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida umumta'lim muassasalari o'qituvchilarini ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasining mohiyati
- 83 **D.Elmuratova**
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish masalalari
- 88 **I.I.Tuychiyeva**
Bo'lajak pedagogkarni o'quvchilardan bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirish dolzarbligining ahamiyati
- 93 **T.Norboboyeva, Sh.T.Yakubjonova, G.U.Suyunova**
«Kungaboqar o'simligining tuzilishi» mavzusini o'rganishda amaliy mashg'ulotni tashkil etish metodikasi
- 97 **Z.B.Sangirova**
O'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishda tabiiy fanning o'rni
- 102 **A.Maxmydoe**
Методология непрерывного формирования профессиональных компетентности бакалавров и магистров

XORIJIIY TILLARNI O'QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH – DAVR TALABI

- 107 **Sh.A.Atađjanova**
Chet til ta'limida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga yo'naltirish




ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, zamonaviy tipdagi sog'lomlashtirish markazlari, stadionlar barpo etilib, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida say'-xarakatlar natijasi sifatida ko'plab loyihalar, sport musobaqalari, talantli yoshlar va o'smirlar uchun ijodiy-badiiy chiqishlar kabilar ko'rsatish o'rinli albatta.

Bola tarbiyasida ba'zi uchraydigan muammolar bo'yicha to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda ta'lim-tarbiya uzviy bog'liq bo'lishi kerak, tarbiyali bola ta'lim olishida muammolarga duch kelmaydi, ular uchun ta'lim olish, izlanish, ijodkor bo'lish xususiyatlari bir maromida shakllanib boradi. Tarbiyasi og'ir bolalardagi fiziologik va psixologik xususiyatlar rivojlanishi sust bo'lib, ulardagi o'qishga va mehnatga bo'lgan qiziqish va qobiliyatni shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.

Bola o'z shaxsiy muammolarini bilmasligi natijasida tashqi ta'sirlarga befarq bo'lib qoladi. Tarbiyachi bola muammolarining shakllarini tasavvur qila olmasa, o'zining sun'iy xayollari, tasavvur va ko'rsatmalari dorasida harakat qiladi. Natijada ular bolaning haqiqiy holatidan mutlaqo boshqacha bo'lishi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda, bunday tarbiyachilarning faoliyatlari pedagogik haqiqatlar va bola tabiatidan yiroqda bo'ladi. Bunday vaziyatda tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilar orasida begonasirash, bir-biridan yiroqlashish, bolalarga nisbatan zo'rvonlik qilish kayfiyati hukmron bo'lib, yoqimsiz ziddiyatlar kelib chiqadi.

Shuning uchun bola tarbiyasida uchraydigan muammolarni bartaraf etishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:



Mexr-muxabbat, madaniyat, sog'lom muhit, muomala, ibrat, tayanch kabilar ta'lim-tarbiya uzviyligida tarbiyaning xar-qanday muammolarini yengadi. Bu metodni qo'llash orqali boladagi emotsional holatlar oldi olinadi, boladagi xis-xayajon, qo'rquv, hijolat bo'lish kabilar yo'qoladi.

Darsda tortinib o'tirgan bolani kuzatgan bo'lsangiz, u mashg'ulotda o'tirib, aytmoqchi bo'lgan gapini ham gapirolmay, eshitgan va bilgan narsalarini indamay kuzatib o'tiradi. Agar undan biron bir narsani so'rasangiz qo'rqib, xayajonlanib,



tutilib og'zini ocholmaydi. Psixolog-o'qituvchi o'z tajribasidan kelib chiqib, bunday emotsional holatlar oldini olishi, boladagi psixologik xususiyatlarni yaxshilab o'rganib chiqib, u duch kelgan zarbalarni qaytarshi va tayanch bo'lmog'i lozim.

Qanday xolatlarda bola muammoli vaziyatlarga duch keladi:

- Oilaviy muhitning o'zgarishi;
- Do'stlarining munosabatlari;
- Maktabdagi holatlar;
- O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari;
- Muomala madaniyatining zaruriyati;
- Boladagi qobiliyati va qiziqishning sustligi;
- O'qituvchining tajribasi.

Darsda deyarli bolalar e'tibori o'qituvchining muomalasiga qaratilgan bo'lib, uning aytgan gaplari, o'qitishi, o'zini tutishi, madaniyati va mexribonligidadir. Xar bir o'quvchi o'qituvchi uchun bir xil va tengdir, ular ajratilmaydi. Darsda o'zini tuta bilmaydigan, intizomi past, mashg'ulotni tinglamaydigan, boshqa bolalarni o'ziga jalb qiladigan xususiyatli bolalar uchun alohida e'tiborda bo'lishi muhim. O'qituvchi u bola bilan faqat yaxshi muomalada bo'lib, unga tayanch bo'lish bilan birga alohida suhbat o'tkazib, bolaning ichki dunyosi bilan tanishib chiqishi kerak. O'qituvchi o'z tajribasidan kelib chiqib, anketa so'rovnomalari, test savolnomalari tayyorlab o'quvchilar bilan dars mashg'ulotlarini o'tkazishi ayni mudao. Ta'lim va tarbiyani uzviylikda olib borish va shu asosda seminar-treninglar o'tkazish, bolalarni xar-xil o'yin va musobaqa, munozaralar bilan darsga qiziqitirish ahamiyatga ega. Xar qanday bola bu o'yin va munozaralarga qiziqadi, mashg'ulotlarga sevib qatnashadi va o'zi ham ishtirok etadi.

O'quvchi uchun maktabdagi xolatlarni yaxshilash, shart-sharoitlarini joriy etish, o'rtoqlari bilan do'stona munosabatda bo'lish, dars mashg'ulotlarini tajriba orqali o'tkazish, zamonaviy ped-texnologiyalarni qo'llash bola tarbiyasidagi muammoli vaziyatlarni bartaraf etadi. O'qituvchi o'z ish tajribasidan kelib chiqqan holda, pedagogik jarayonida uchraydigan muammoli vaziyatlarga nisbatan chora-tadbirlar ishlab chiqish va texnologik yondashuv asosida bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin. Ular quyidagilar:

Ta'lim va tarbiya jarayonida ped-texnologiya asosida xal etiluvchi vazifalar:

- ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy, yaxlit loyahasini ishlab chiqish.
- ta'lim-tarbiya jarayonida xal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;
- ta'lim-tarbiya jarayoni mohiyatini bashoratlash taxmin qilish va uning mazmunini ishlab chiqish;



– ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shakl, metod, usuli hamda texnik vositalarni tanlash;

– ta’lim jarayonida o’quvchining erkin, mustaqil faoliyat ko’rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma’lum ko’nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o’rni belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashhislash;

– o’quvchilar faoliyatini yo’naltirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish.

– mustaqil O’zbekiston Respublikasida amal qilayotgan ta’limning yangi modeli – ta’lim-tarbiya jarayonini tubdan yangilash rivojlantirishning asosiy omilidir.

Shunga ko’ra, maktab rahbarlari tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, ijodkorlik sifatlariga ega bo’lishlari kerak. Shu tufayli, maktab rahbarlari oldida ta’lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashish, izlanuvchan, tadqiqotchi, loyihachi bo’lish, DTS va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilab berilgan barcha vazifalarni bajarishda faollik ko’rsatish, ta’lim-tarbiya jarayoniga tajriba-sinov maydoni sifatida yondashib, yangi g’oyalar va ijodiy tajribalarni sinovdan o’tkazish, pedagogik tizimni takomillashtirish va ta’lim mazmunining o’quvchilar tomonidan puxta hamda sifatli o’zlashtirilishiga erishish zarur.

Buning uchun, ta’lim jarayonida o’quv dasturlari mazmunini to’liq o’zlashtirilishini ta’minlovchi ta’lim texnologiyalarini qo’llash, chunonchi, dastur materialarini o’quv elementlari darajasida o’rganish, o’quvchilar uchun darslikdan tashqari qo’shimcha o’quv metodik qo’llanmalar, didaktik manbalar, tavsiyanomalar, texnologik ishlanmalar, algoritmlar, audio-videovizual vositalar va test to’plamlari bilan ta’minlash, maktab kutubxonasi zahira fondlarini boyitish, ularni yangi texnologiyalar bilan ta’minlashga jonbozlik ko’rsatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibraimov X.I., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). - T., «Shaffof», 2023, 416-bet.

2. Ibraimov X.I., Quronov M. Ота-оналар китоби. - T., «Shaffof», 2024, 211-bet.

3. Джураев Р.Х. Тарбияга ёндашув ҳақида // Формирование гармонично-развитого поколения в современных условиях. - T., 2010. - Ч. 4.

4. Тўраева О. Оилавий муносабатлар психологияси. - T., 1994.

5. Согинов Н.А., Хабибуллаев Ф.Р. Ўқувчилар ўртасида шахслараро муносабатларни ўрганиш. - T., 1998.



MUSIQIY PEDAGOGIK TA'LIMNI SAMARADORLIGI OSHIRISHDA UZLUKSIZLIK MASALALARI

A. LUTFULLAYEV,
TDPU «Ijrochilik mahorati va madaniyati»
kafedrası mudiri, professor

Maqolada pedagogik ta'lim sifatini oshirish va zamon talabi darajasida kadrlar tayyorlash jarayoni yoritilgan. Mazkur masalani amalga oshirishda ta'limning uzluksizligini ta'minlash muhim ekanligi ta'kidlangan va bu jarayonda musiqiy pedagog kadrlarni tarbiyalash vazifasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, oliy ta'lim, pedagogik ta'lim, uzluksiz ta'lim, zamonaviy bilim, kasbiy-nazariy bilim, amaliyot, malakali kadr, sifat.

The article describes the process of improving the quality of pedagogical education and training personnel at the level of modern requirements. It is emphasized that it is important to ensure the continuity of education in the implementation of this issue, and in this process, special attention is paid to the task of educating musical pedagogues.

Key words: music, higher education, pedagogical education, continuous education, modern knowledge, professional-theoretical knowledge, practice, qualified personnel, quality.

В статье освещается процесс повышения качества педагогического образования и подготовки кадров на современном уровне. В статье отмечается, что при реализации данного вопроса важно обеспечить непрерывность образования, и в этом процессе особое внимание уделяется задаче воспитания музыкальных педагогических кадров.

Ключевые слова: музыка, высшее образование, педагогическое образование, непрерывное образование, современные знания, профессионально-теоретические знания, практика, квалифицированный персонал, качество.

Mamlakatimizda musiqa pedagogik ta'limi sifatini oshirish va uning vositasida professional kadrlar tayyorlashga erishish jarayoni kechmoqda. Shu jihatdan musiqiy pedagogik ta'lim sifatiga erishishda uzluksizlik tizimiga asoslanish va mazkur jarayonning uzviy qismi hisoblanadi va uning vositasida musiqa pedagog kadrlarini sifatli tayyorlash dolzarb bo'lib turibdi.

Davlatimiz rahbarining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni yurtimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, ijtimoiy soha va iqtisodiyot



tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda. Prezidentimizning joriy yil 11-maydagi «2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni «Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, 21-iyundagi «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlan-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ana shunday sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda musiqa pedagogik ta'limida sifat darajasiga erishishning dastlabki asoslaridan biri kasbiy – nazariy bilimlarni chuqur o'rgatishdir. Kasbiy – nazariy bilimlar auditoriyada o'zlashtirilishi tajribasi asrlar davomida natija berib kelgan. Ayni paytda, jamiyatimizning taraqqiyot jarayoni kasbiy-nazariy bilimlarni tezkor, muayyan muddatda va samarali o'zlashtirishni taqoza etmoqda. Shu jihatdan bugun musiqa san'ati asoslarini o'zlashtirishda nazariy mashg'ulotlar rejası, hajmi yoki ko'lami birlamchi vazifani bajarmaydi. Aksincha, musiqa san'ati asoslari kerakli vaqtda, istalgan muddatda va natijali asosda o'zlashtirilishi taqoza etilmoqda. Buning uchun kasbiy – nazariy bilimlarni berish bo'yicha an'anaviy ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'limning turli shakllariga asoslanish lozim bo'ladi. Bu borada kasbiy-nazariy bilimlar mashg'ulotlarining o'quv materiallarini elektron variantlarda axborot – kommunikatsion vositalari orqali muntazam namoyish etib borish, tajribali san'atkor – pedagoglarning nazariy mashg'ulotlari veb saytlarini tashkil etish, mashg'ur xorijlik mutaxassislarning nazariy darslari namoyishlarini yo'lga qo'yish kabi shakllardan foydalanish taqoza etiladi. Chunki bo'lajak san'atkor hisoblangan musiqa pedagoglari bu bilan o'zlarining imkoniyatlari doirasida, bo'sh vaqtlarida va istalgan paytlarida nazariy mashg'ulot-larni erkin hamda mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asoslanish kutilgan samarani beradi.

Musiqa pedagogik ta'limiga erishishning navbatdagi asoslaridan biri bu – amaliyotdir. Unga ko'ra, bo'lajak musiqa pedagoglari auditoriyada o'zlashtirilgan kasbiy – nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantirishlari shart. Shu jihatdan kasbiy – nazariy bilim – bu poydevor, amaliy ko'nikma esa uning ustidagi binodir. O'zlashtirganlarni amaliy ko'nikmaga aylantirishning shakllari ko'p. Bu borada auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, amaliy to'garaklar, Ustoz mahorati o'quvlari, haftalik amaliyot kabi shakllardan oqilona foydalanish amaliy ko'nikmaga ega bo'lishning noyob mexanizmlaridan biridir.



Shu sababli Prezidentimizning joriy yil 15-fevraldagi «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amaliy to'garaklar tashkil etish, ta'lim jarayonini 4+2 tizimida amalga oshirish va haftaning ikki kunida amaliyot jarayonidan foydalanish, 2023-2024 o'quv yili bitiruvchilarining musiqa pedagoglari kamida uchta milliy cholg'ularda kuy ijro eta olish masalalari belgilab qo'yildi. E'tibor berilsa, ta'kidlangan amaliy shakllar bo'lajak musiqa pedagoglarining amaliy ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi.

Musiqiy pedagogik ta'limida sifat darajasiga erishishning omillaridan yana biri bo'lajak musiqa pedagoglarining ijodkorlik malakasini talab darajasida rivojlantirishdir. Bunda bo'lajak musiqa pedagoglarining cholg'u, ashula va raqs ijrochiligi bo'yicha layoqatlarini rivojlantirish, ularning mazkur yo'nalishlar bo'yicha ijodkorligini tarkib toptirish va bu borada yangi asarlar yaratish ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Chunki musiqa pedagogikasi ta'limini tanlagan talabalarning nisbatan ko'pchiligi ijodkor shaxslardir. Shu sababli ularning ijodini ro'yobga chiqarish va ijodkor musiqa pedagoglari sifatida voyaga yetkazish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

E'tibor berilsa, musiqa pedagogik ta'limi sifati bir necha asoslarga tayanishi bilan muhim ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida musiqa ta'limini nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish, pedagog va ijodkor o'qituvchilarni tayyorlash kerak bo'ladi. Natijada musiqa pedagogik ta'limida sifat darajasiga erishishning tayanchlari namoyon bo'ladi.

Texnologik rivojlanish jarayonida barcha sohalarda xorijiy tajribalarga havas bilan qarash hodisasi tarkib topdi. Xorijiy tajribalarni o'rganish yaxshi hodisa, lekin ularni mutloqlik darajasida qabul qilish milliy tajribani pisand qilmaslik hisoblanadi. Shu ma'noda musiqa pedagogik ta'limida sifat darajasiga erishishda xorijning texnologiyalarini qo'llash tajribasidan foydalanish mumkin, ayni paytda, milliy musiqa pedagog ta'limimizning bobomiz Farobiydan boshlab davom etib kelayotgan tajribamizga suyanish taqozo etiladi. Chunki bugungi xorijiy mamlakatlarning musiqa pedagogikasi tajribasida Farobiyning ular tomonidan chuqur o'rganishi turibdi, bu borada loaqal Farmerning tadqiqotlarini eslash kifoya. Shu jihatdan hozirgi zamon milliy musiqa pedagogikamizning sifat darajasiga erishish uchun milliy va xorijiy tajribalar uyg'unligiga asoslanish bitmas - tuganmas poydevor hisoblanadi.

Musiqiy pedagogik ta'lim sifati darajasiga erishishning uzluksizligi va uning ko'lami bugungi kundagi musiqa san'atimizning rivoji bilan hamohang tarkib topishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan bu borada amaliyotdan nazariyaga tamoyili idrok etilishi taqozo etiladi. Musiqiy pedagogik ta'lim



sifatiga erishishning uzluksizlik omillaridan foydalanish dolzarb bo'lib turganligini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki uzluksizlik mazkur jarayonda nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish imkonini beradi.

Musiqiy pedagogik ta'limda sifat ko'rsatkichlariga ejrishish uchun uzluksizlik omilining quyidagi imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lishini ta'kidlab o'tish lozim:

a) maktabgacha va oliy pedagogik ta'lim muassasalarigacha bo'lgan jarayonda musiqiy pedagogik ta'limni uzviy amalga oshirish;

b) ta'lim tizimida musiqiy pedagogik o'qitishni amalga oshiruvchi uzluksiz musiqiy ta'lim o'quv dasturini ishlab chiqib, uni amaliyotga joriy etish;

v) musiqiy pedagogik ta'lim sifatiga erishishning monitoringini amalga oshirish va bunda oliy pedagogik ta'lim muassasalarining musiqa ta'limi yo'nalishini muvofiqlashtiruvchi tizim sifatida belgilash.

Bunday uzluksizlik tizimiga asoslanish musiqiy pedagogik ta'lim jarayoni-ning samaradorligiga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli bu borada ilmiy-metodik tavsiyalar majmuini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha «Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasi 2017-yil 8-fevral soni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori. // www.ziynet.uz.

3. Fitrat A. O'zbek klassik musiqa tarixi.

4. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.

5. Lutfullaev A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati tarixi. - Toshkent, 2006



«TABIY FANLAR»NI O'QITISHDA KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

L. M. QARAXONOVA,

«Tabiiy fanlarni o'qitish texnologiyalari»
bo'limi mudiri, p.f.f.d(PhD) katta ilmiy xodim

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflaridan boshlab kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga bugungi kunda juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni «Tabiiy fanlar» darslarida o'quvchilarni turli tadqiqot ishlariga yo'naltirish, zamonaviy ta'limiy vositalardan foydalanish mazkur maqolaning asosiy mazmuniga xizmat qilgan.

Tayanch so'zlar: tabiiy fanlar, tabiiy fanlar integratsiyasi, ko'nikmalar, o'quvchilar, tabiat xodisalari, uzluksiz ta'lim jarayoni, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish.

Today, a lot of attention is paid to the formation of research skills of students of junior high school age, starting from the primary grades of general secondary schools. That is, directing students to various research works in "Natural Sciences" classes, using modern educational tools served the main content of this article.

Key words: natural sciences, integration of natural sciences, skills, students, natural phenomena, continuous learning process, research skills development.

Ta'lim muassasalarida tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bevosita tadqiqotchilik ko'nikmalarining kompetensiyaga aylantirilishi ko'p ma'noda ta'lim jarayonida aniq maqsadlarning to'g'ri qo'yilishi bilan xarakterlanadi. Maktab o'quvchilarida fanni o'zlashtirish va bevosita undagi kichik loyihalarni bajarish texnologiyalari asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari hozirgi kunda o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Shu ma'noda ta'kidlash joizki, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida endilikda «Atrofimizdagi olam» va «Tabiatshunoslik» fanlari o'rniga kiritilgan «Tabiiy fanlar» darsligining asosiy qismi amaliy mashg'ulotlarni qamrab olgan. Bu fanning reja asosida belgingan ko'p mavzulari amaliy mashg'ulotlar tarzida tashkil etiladi. Amaliy mashg'ulotlarni bajarish nafaqat sinfda, balki uning davomi sifatida uy sharoitida ham bajarish imkonini yaratadi. Bu esa, o'quvchilarning darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ishlariga imkoniyat yaratadi. Ya'ni darsdagi amaliy ishlar bevosita o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarilishi qaysidir ma'noda ularning kichik tadqiqot ishlariga tayyorlaydi desak adashmagan bo'lamiz.



Xuddi shunday boshlang'ich sinflardan keyingi ta'lim bosqichida biologiya-dan 6-sinflarda ham «Tabiiy fanlar» o'qitiladi. Darslarni o'zlashtirishda mavzularni kichik tadqiqotlar shaklida o'quvchilarga o'rgatilishi bevosita ularda talqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. Bu esa biologiya darslarini o'zlashtirishni ilmiy-tadqiqotchilikka yo'naltirish imkonini yaratadi. O'quvchilarning sinfdan sinfga o'tish davomida ularning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning metodik mazmunini to'g'ri tashkil etish bosqichma-bosqich yuqori sinf o'quvchilarining mustaqil ishlarini, kichik loyiha ishlarini bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktab o'quvchilarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning psixologik-pedagogik shartlarini hisobga olgan holda, yosh xususiyatlariga, shuningdek, ular bilan bog'liq bo'lgan va psixologik jihatdan shartlangan faoliyatning asosiy turlariga alohida e'tibor berish kerak. Tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish uchun o'rta maktab o'quvchilarini tanlash mezonlari orasida:

- ijodkorlik, shu jumladan fikrlash bilan bog'liq;
- o'rta maktab o'quvchisining izlanish faoliyatiga intilishi;
- mehnatsevarlik;
- o'z e'tiqodlarini himoya qilishga tayyorlik;
- o'z-o'zini tanqid qilish;
- turlicha fikrlash;
- ilmiy tadqiqot uchun gipotezani ishlab chiqish, ya'ni muammoni ko'rish va uni hal qilish yo'lini topish qobiliyati;
- ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish;
- ijodiy optimizm, ya'ni muvaffaqiyatga yo'naltirilganlik, ijobiy munosabat;
- intellektual, ijodiy va rivojlanish dinamikasi aloqa mahorati va boshq.

O'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda maktablar tajribasini tahlil qilish o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirish uchun bir qator psixologik-pedagogik shartlarni aniqlashga yordam berdi.

Psixologik holatlarga quyidagilar kiradi:

1. O'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga motivatsiyasini shakllantirish, bu tadqiqot faoliyatining o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar



uchun ham shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish uchun ma'ruzalar o'qishni nazarda tutadi; o'quvchilar muvaffaqiyatini ommalashtirish; olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish; maktab olimpiadalari, konferensiyalar, ijodiy tanlovlar o'tkazish; rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va boshqalar.

2. Psixologik monitoring, treninglar. Bu erda maktab psixologining iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va maktab o'quvchilarining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan ishlari, diagnostika natijalarini sharhlash va muhokama qilishda maktab o'qituvchilari bilan yaqin aloqada bo'lish juda muhimdir.

Pedagogik shartlarga quyidagilar kiradi:

1. Yuqori daraja ilmiy ijodkorlik va o'qituvchilarning pedagogik mahorati, o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati rahbarlari.

2. O'quvchilarning bilim saviyasini va intellektual tashabbuskorligini oshirish (nodavlat ta'lim muassasasida ishlash, turli loyihalarni ishlab chiqishda, ijodiy tanlovlarda qatnashish va h.k.)

3. Ta'limning noan'anaviy usullaridan foydalanish.

4. Ta'lim jarayoniga tadqiqot o'qitish texnologiyasini joriy etish.

5. Tadqiqot asoslari bo'yicha maxsus kurslar (tanlama, ijodiy seminarlar).

6. Universitet o'qituvchilari tomonidan fanlar bo'yicha o'quvchilarga individual va guruhli maslahatlar berish (Oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik bo'yicha kelishuvlar).

Ushbu psixologik-pedagogik shart-sharoitlardan maktab o'quvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin, bu nafaqat maktab, shahar va viloyatda olimpiadalar va ilmiy-amali O'quvchi ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayonida tadqiqotchilik bo'yicha quyidagi bir qator ishlarni bajaradi:

– Mustaqil ravishda laboratoriya mashg'ulotlarini bajaradi;

– Tabiatda kichik tadqiqot ishlarini bajaradi;

– Maktab tirik burchagida hayvonlarning yashash tarzini o'rganadi, tadqiq qiladi;

– tadqiqot mavzulari bo'yicha referatlar yozadi;

– kichik loyiha ishlarini bajaradi.

Umumta'lim maktablarining 9-sinflarida Biologiya darslarining didaktik mazmuni tahliliga ko'ra, mavzular bilan birgalikda, 8-ta laboratoriya mashg'uloti va 3-ta amaliy mashg'ulot keltirilgan. Mazkur biologiya kursida bevosita



organizmning xujayraviy shakllari, uning kimyoviy tuzilishi va xususiyatlari, genetik asoslari, modda almashinuvi va organizmlarning individual rivojlanishi bilan bog'liq nazariy bilimlarni o'zida aks etgan mavzular keltirilgan. Bu mavzularni o'rganish uchun o'qituvchi tomonidan hozirgi kunda juda ko'plab innovatsion ta'lim usullari va vositalari joriy etiladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida bunday texnologiya va usullarni joriy etish nafaqat o'quvchilarni mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi, balki o'qituvchilarning o'quvchilarga individual yondashuvni tashkil etishni xizmat qiladi. Endilikda yangi ta'lim standartlari va o'quv darsturilari, darsliklar mazmuni bo'yicha o'quvchilar ko'proq o'z ustida ishlashga, amaliy mashg'ulotlarni sinfda va sinfdan tashqari ishlarda mustaqil tayyorlashga o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Shu ma'noda biologiya darslarida o'quvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatish davomida o'zlariga qiziqarli mavzuni tanlab olish va bevosita u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish uchun kichik tadqiqotlar shaklida yo'naltiriladi.

Bu shakldagi kichiki tadqiqotlar bevosita o'quvchiga axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanishning zamonaviy metodlarini egallashga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ba'zi bir metodlarini o'zlashtirishga, o'zining tadqiqotchilik pozitsiyasini aniqlashga, amalga oshirayotgan kichik tadqiqotini yana davom ettirishga, vaqt o'tishi bilan tadqiqotchilik ko'nikmasini kompetensiya darajasiga yetkazilishiga imkon beradi y konferensiyalar ishtirokchilari va sovrindor-lari sonining ko'payishiga xizmat qiladi. Natijada maktabning nufuzi oshadi.

O'qituvchi tomonidan ma'lum bir fan bo'yicha o'quv va tadqiqot faoliyatining o'zgaruvchan modellarining barcha to'plamini ijodiy modellashtirish bosqichida o'quvchining ushbu fan bo'yicha tadqiqot usulini bosqichma-bosqich o'zlashtirishi uchun etarli shart-sharoitlarni ta'minlash kerak, fanlararo, uslubiy, shaxsiy va ijodiy daraja. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish sharoitida tadqiqot usulini qo'llash chegaralari, birinchi navbatda, shaxsning qiymat-semantik makonining chegaralari, uning uslubiy va kommunikativ madaniyati bilan belgilanadi. Ushbu chegaralar o'qituvchi va o'quvchilarning muammoli, tadqiqot sharoitida samarali hamkorlikda yaratilishi sharti bilan kengaytirilishi mumkin, uning samaradorligi ularning ijodiy o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi anglashga bo'lgan qiymat yo'nalishlarining mos kelishi darajasi bilan belgilanadi. rivojlanish. Samarali



dastur tadqiqot usuli quyidagi didaktik tamoyillar bilan ta'minlanadi: shaxsiy ahamiyat, izchillik, yaxlitlik, ilmiy xususiyat, muammolilik, o'zgaruvchanlik, bir-birini to'ldirish. Shu bilan birga, bir tomondan, ular tadqiqot usulini qo'llash strategiyasini belgilaydi, ikkinchidan, ular uning shartlari. Tadqiqot usulini qo'llash samaradorligini sezilarli darajada oshirishga o'qituvchi tomonidan o'quv va tadqiqot faoliyatining maxsus intellektual va qiymat-semantik muhitini professional darajada barkamol yaratish yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юлина Н.В. Философия Дж. Дьюи и постмодернистский прагматизм Р.Рорти // Философский прагматизм Ричарда Рорти и российский контекст. М., 2010. - 440 с.

2. Янушевский В.Н. Учебное проектирование школьников: первые шаги в новой образовательной реальности / В. Н. Янушевский // Журнал руководителя управления образованием. - 2015. - №3. - С.67-71.

3. Qaraxonova L.M. O'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish//» Халқ таълими» ж. №3. -Тошкент, 2023 йил.

4. Karakhonova L.M. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching/ / ISSN (E): 2795-739X. Journal Impact Factor: 8.115. Volume 20| May 2023. -P.154-158.

5. Karakhonova L.M. Independent educational activity and mechanisms of effective organization in the continuous education process// American Journal Of Applied Science And Technology// VOLUME 03 ISSUE 06 Pages: 15-21. SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705)(2022: 5. 705)(2023: 7.063).



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA IQTIDORLI O'QUVCHILARNI SARALASH VA ULARNI XALQARO OLIMPIADALARGA TAYYORLASHNING METODIK XUSUSIYATLARI

B.ABDUVAXITOV,

Jizzaj DPI mustaqil tadqiqotchisi

Iqtidorli o'quvchi – bu bilim imkoniyatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan, muayyan darajada yutuqlarga erishgan, inson kapitali sifatida qadrga ega, qo'llab-quvvatlanishni talab qiladigan shaxs hisoblanadi. Bundan iqtidor egalarini har tomonlama raqobatbardosh kadr sifatida bilim berish va ularni shakllantirish har doim ta'limdagi ustuvor vazifalardan biri bo'lgan. Mazkur maqola bevosita iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning biologik bilimlarini yanada takomillashtirish asosida xalqaro olimpiadalarga tayyorlashning metodik xususiyatlariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: xalqaro olimpiada, biologiya, ta'lim jarayoni, iqtidorli o'quvchi, istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish.

A gifted student is a person who differs from others in terms of knowledge, has achieved a certain level of success, has value as human capital, and requires support. Education and formation of talented people as competitive personnel in all aspects has always been one of the priority tasks in education. This article is directly devoted to methodical features of preparation for international Olympiads based on identification of gifted students, further improvement of their biological knowledge.

Key words: international Olympiad, biology, educational process, talented student, support of promising young people, effective implementation of research and innovation activities.

Xalqaro biologiya olimpiadasida ishtirok etish uchun milliy terma jamoani tayyorlashni yaxshilash zarurati bilan bog'liq holda, maktab o'quvchilari uchun Butunrossiya olimpiadasi IBO ga mos keladigan model bo'yicha o'tkazib kelingan. Shu munosabat bilan joriy etilgan olimpiada topshiriqlari nazariy, amaliy va eksperimental komponentlar bilan sezilarli darajada boyitilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini



yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu maqsadda, 2019-yil 3-mayda «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida» gi Prezident qarori qabul qilindi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda fan olimpiadalari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrda qabul qilingan «Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish xamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha yeng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy yetish to‘g‘risida»gi 562-sonli qarori asosida tartibga solinadi. Bugungi kunda mamlakatimizda fan olimpiadalari borasida amalga oshirilayotgan islohatlar, olimpiada turlari, ularni tashkil etish, iqtidorli o‘quvchilarni rag‘batlantirish, xalqaro olimpiadaga o‘quvchilarni tayyorlash yuzasidan qilinayotgan ishlar tahlillari disertatsiyada batafsil keltirib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha «Harakatlar strategiyasi»da belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda «matematika, kimyo, biologiya va informatika kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Fan olimpiadalari iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash tizimining eng murakkab va mashaqqatli yo‘nalishi hisoblanadi. O‘quvchilarning iqtidorini yanada rivojlantirish uchun dastlab ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirib olishimiz zarur. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

– Fan olimpiadalaridagi topshiriqlar asosan o‘quvchilarning yod olish qobiliyatini emas fikrlash qobiliyatini tekshirishga asoslangan.

– O‘quvchilarda qanchalik tanqidiy fikrlash qobiliyati kuchli rivojlangan bo‘lsa, olgan bilimlari asosida ma‘lumotlarni umumlashtirish va xulosa qilish qobiliyati yuqori bo‘ladi.

– Savolni tushunishi va muammoni hal qilish uchun sarflaydigan vaqtini qisqartiradi.

Ta‘lim tizimida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash tizimi o‘ziga xos murakkablik tomoni bilan ajralib turadi. Iqtidorli o‘quvchilarda katta malumotlarni tez o‘zlashtirish, muammoni tahlil qilishda kreativ yondashuv, hamda, olingan bilimlarni yuqori darajada integratsiyalash qobiliyatlari mavjud. Iqtidorli o‘quvchilar o‘z tengdoshlaridan ko‘plab qobiliyatlari bilan ajralib turganligi va ular kam sonli ekanligini inobatga olib, ular bilan alohida ishlash tizimini va samarali yo‘llarini pedogogik jarayonga qo‘llash dolzarb masala hisoblanadi.



Biologiya olimpiadasi o'quvchilarning qanchalik ko'p ma'lumotlarni o'zlashtirganlik darajasini emas, balki bilimlarni turli notanish vaziyatlarda qo'llash, ma'lumotlarni tushunish, ilmiy tajribalar natijalarini sharhlash va berilgan ma'lumotlardan oqilona xulosalar chiqarish qobiliyatini sinash uchun mo'ljallangan. Aslida, IBO (International bioloy olympiad – Xalqaro biologiya -) dagi imtihon savollarining aksariyati asosan fikrlash, muammolarni hal qilish va tushunishga qaratilgan. Shu sababli, hamma narsani oldindan bilish talab qilinmaydi. O'quvchilarga IBODA faqat bir marta ba'zan ikki marta (milliy terma jamoa tarkibiga qabul qilinsa) qatnashish imkoniyati beriladi.

Iqtidorli o'quvchi – bu bilim imkoniyatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan, muayyan darajada yutuqlarga erishgan, inson kapitali sifatida qadrga ega, qo'llab-quvvatlanishni talab qiladigan shaxs hisoblanadi.

Ko'psonli nazariyalardan farq qilgan xolda, real pedagogik amaliyot iste'dodli o'quvchilarning faqatgina uch turkumini ajratib ko'rsatadi. Mazkur ajratib ko'rsatilgan birinchi turkumga mansub iste'dodlar – umumiy iste'dod darajasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega o'quvchilar hisoblanadi. Ikkinchi turkum iste'dodlariga – faoliyatining ayni sohalarida muvofaqqiyatga erishgan o'quvchilar guruhi bo'lib, ularga yosh musiqachilar, rassomlar va sportchilar kiritiladi. Uchinchi turkum iste'dodli o'quvchilar guruhiga – maktabda boshqa o'quvchilardan iqtidori bilan farqlanuvchilar ya'ni a'lochi o'quvchilarni kiritish o'rinlidir («akademik iste'dod»). Yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagan holatda, ko'pgina tadqiqot tahlillaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, maktab o'quvchilari orasidagi fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchilar istedadli o'quvchilarning birinchi turkumiga mansub hisoblanadi. Ular odatda universal iqtidorga ega bo'ladilar va o'quvchilar kontingentining juda kam qismini tashkil etadi. OECD manbaalariga ko'ra bunday o'quvchilar iqtidorli o'quvchilarning atiga to'qqiz foizini tashkil etadi

Fan olimpiadalariga tayyorgarlik va ularda ishtirok etish murakkab jarayonlardan iborat kompleks tizim sanaladi. Unda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish lozim. Odatda, fan olimpiadalarida ishtirok etish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchilar o'smirlik yoshi (15-18 yosh)da bo'lishadi.

Shuningdek, ko'pgina psixologik manbalarda aytilishicha, o'smir o'quvchi o'z oldiga maqsad qo'ya oladi va shu maqsad sari intilishga o'rgana boshlaydi. Ulardagi o'sish va rivojlanishni hisobga olgan holda, o'quv jarayoniga nisbatan qarashlari ham tubdan o'zgarib boshlaydi. E.G'oziev fikrlariga ko'ra, maktab ta'limining bevosita ta'siri bilan o'smirda o'zini anglash jarayoni rivojlana



boshlaydi. U o'zining fikriga, mustaqil qarashiga, biror masala yuzasidan o'z mulohazasiga ega bo'lishi uchun harakat qiladi. Shuning uchun o'qituvchi yoki ota-onaning aytganlariga, kitob va darsliklarga tanqidiy nuqtai-nazardan qaraydi.

Olimpiadaga tayyorgarlik jarayonida o'quvchi diqqat bilan faoliyat yuritishga erishsagina, o'quv jarayonidagi mahsuldorlik oshishi mumkin va o'quvchi o'rganayotgan material yuzasidan samarali bilim olishga erishadi. Diqqat kuchli qo'zg'atuvchilar vositasida vujudga keladi. Qo'zg'atuvchilarning jadal va betakror bo'lishi, ularning ta'sir darajasini shunchalik oshiradi. Ixtiyorsiz diqqatda bevosita qiziqishning roli benihoya kattadir. Nimaiki qiziqarli, maroqli, hissiyotga boy, zavqli bo'lsa, diqqatning uzoq vaqt mobaynida to'planib turishini taqozo etadi. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat zahirida hosil bo'ladi.

Ma'lumki, nufuzli sport musobaqalari yoki sport olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rayotgan, ishtirok etayotgan sportchilar uchun maxsus psixologik yo'riqnoma hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu tavsiyalarga qo'shimcha ravishda sportchilar kun tartibiga psixologlar tomonidan maxsus mashg'ulotlar, treninglar ham kiritiladi. Bu amaliyotlarga sportchilar g'alabasining asosiy mezonini sifatida qaraladi. Xuddi shunday o'quv predmetlaridan fan olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda ularning psixologik holatini to'g'ri baholay olish va rivojlantirish chora tadbirlarini qo'llash ham muhim omil hisoblanadi. Shu o'rinda, o'quvchilar uchun gigienik tavsiyalar ishlab chiqish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Bunday tavsiyalar o'quvchilarning o'qish va kun rejimini to'g'ri hamda samarali tashkil qilishlariga yordam beradi.

O'quvchi biologiya yoki boshqa fan olimpiadalarida yuqori natijalarga erishishni maqsad qilgan bo'lsa, o'zini qattiq o'qishga undovchi motivatsiyaga ega bo'lishi zarur. Motivatsiya yetarli darajada mavjud bo'lsa, hamma qiyin vaziyatlarni yengish, shuningdek, oldinga siljish uchun ilhomlanish hissi kuchli bo'ladi. Natija olish nuqtai nazardan qaralganda, kuchli iroda va ilhomlanganlik muhim omillar hisoblanadi. Tadqiqot amaliyotimizdan orttirilgan tajribalar asosida olimpiadachi o'quvchilarda shakllantirish zarur bo'lgan psixologik va gigienik xususiyatlarga dissertatsiyada alohida to'xtab o'tilgan.

Butun dunyo bo'ylab o'tkaziladigan ko'plab biologiyadan fan olimpiadalari va tibbiyot muassasalarga kirish imtihon test topshiriqlari (AQShdagi Tibbiyot kollejiga kirish testi (MCAT), Buyuk Britaniyadagi Biotibbiyot oliygohiga kirish testi (BMAT) va Buyuk Britaniyadagi Klinik qobiliyat testi (UKCAT) kabi boshqa imtihonlarda asosan bir nechta ko'p tanlovli savollar (MCQ) qo'llaniladi.



Xalqaro olimpiadalarda eng ko‘p qo‘llaniladigan MCQ testi turli xil bilimlarni, jumladan, terminologiya, faktlar, tushunchalar, prinsiplar va ilmiy proseduralarni tushunish, shuningdek, biologik bilimlarni qo‘llash va sharhlash qobiliyatini o‘lchashga xizmat qiladi. MCQ testlarining har xil turlari mavjud bo‘lib, o‘quvchi ularni bir-biridan farqlay olishi zarur, bu o‘quvchiga savollarga to‘g‘ri javob topishida yordam beradi.

Olimpiada uchun samarali strategiyaga ega bo‘lishning siri bu – majburiyatga mos keladigan va maqsadga erishishga yordam beradigan shaxsiy (haftalik va oylik) jadvalni yaratish zarur. Rejalashtirishni to‘g‘ri tashkil etilganda, o‘quvchining fanni o‘zlashtirishda qanday, qachon va nimani takrorlamoqchi ekanligini o‘ylab ko‘rish va to‘g‘ri yo‘naltirish talab etiladi. Bilimlardagi kamchiliklarni aniqlash, mavzularni tanlash va yillik yoki oylik o‘quv rejasini to‘g‘ri tuzish hisoblanadi. Bu bevosita o‘quvchini tayyorgarlik jarayonini tizimli davom ettirishiga katta yordam beradi. Yuqoridagi talablarga mos keladigan tayyorgarlik rejasini tadqiqotchi tomonidan 26 haftaga taqsimlangan holda tuzib chiqilgan.

Olimpiada musobaqalari uchun saralangan savollar oliy ta‘lim bilim darajasidagi biologiyaga tegishli bo‘lganligi bois ham o‘quvchidan IBO darajasiga erishish uchun qattiq mehnat talab etiladi. Bevosita bunday mehnat aniq reja va mazmuniy talabga javob berishi zarur. Bu borada tadqiqot doirasida o‘quvchilarni differensial topshiriqlar vositasida biologiya fan olimpiadalariga tayyorlashning didaktik modeli ishlab chiqildi va u asosida faoliyat tashkil etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Интеллект и творчество: развивающий курс: 8-9 кл. / сост. Е.С. Смирнова. - М.: УЦ «Перспектива», 2009. - С.79.
2. Маликова Ф.А. Система работы с одаренными детьми на уроках биологии Ф.А. Маликова Биология: прил. к газ. «Первое сентября». - 2017. - 1 - 15 окт. (№19). - С. 26.
3. Матюшкин А.М. Одаренный ребенок глазами воспитателей и родителей: выявление и поощрение творческих детей. Одар. ребенок. -2017. - №6. - С. 8-1.



BOSHLANG'ICH SINIF HUSNIXAT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING YOZUV KO'NIKMALARINI UZVIY SHAKLLANTIRISH

G.X. TILAVOVA,
Nizomiy TDPU

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chiroyli yozuvni o'rgatish savodxonlikning poydevori hisoblanib boshlang'ich sinfda o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini shakllantirish va ularni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni go'zallikni yaratishga intiladigan qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: harf, so'z, gap va matni to'g'ri va chiroyli yozish, boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'qituvchilar mahorati, hayotiy ko'nikmalar, yozish san'ati.

Teaching beautiful writing to elementary school students is considered the foundation of literacy, and the main goal of teaching in elementary school is to form the oral and written speech of students and educate them to be mature in all aspects, as well as to create beauty in them. means to grow into an aspiring adult.

Key words: correct and beautiful writing of letters, words, sentences and texts, elementary school students, teacher skills, life skills, art of writing.

Husnixatga o'rgatishning vazifasi harf, so'z, gap va matni to'g'ri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni o'rganish jarayonida o'quvchi tovushning shakli bo'lgan harfni, so'z va gapni kitobdan va doskadan to'g'ri, husnixat qoidalariga rioya qilib ko'chirib yozish, yozganlarini tekshira olish va yo'l qo'ygan grafik kamchilik hamda xatolarini o'qituvchi rahbarligida o'zi tuzata olishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilari husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonirri hosil qilishi lozim. Bola kamolotining shakllanishi ko'p jihatdan chiroyli yozuvga bog'liq. Chiroyli yozish orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni husnixat darslarida chiroyli yozuvga o'rgatishda, birinchi navbatda, quyidagi ko'rsatmalarga rioya qilish talab qilinadi:

- yozuv quollaridan to'g'ri foydalanish;
- parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish;
- yozayotganda gavdani to'g'ri tutish va tirsaklarni to'g'ri harakat qildirish;
- o'z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o'rgatish;
- tovushni bosma harfga, bosma harflarni esa yozma shaklga aylantirishga o'rgatish;



- harflarning shaklini to‘g‘ri idrok etishga (qayerdan boshlash, qayerda tugatish, o‘ngga, chapga burilish, bog‘lash va h.) o‘rgatish;
- harflarni bir-biriga bog‘lab yozishga o‘rgatish (qayerda qo‘l harakati uziladi, qayerda uzilmay bog‘lab yoziladi);
- harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o‘rgatish. daftar chiziqidagi qatorlarni to‘g‘ri to‘ldirish, sarlavha, oy va kunlarni to‘g‘ri yozish;
- harflarning qiyaligini to‘g‘ri saqlash.

O‘quvchilarda yozuv malakalarini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to‘g‘ri tashkil etishga, to‘g‘ri tasavvur qilishga bir xil qiyalikda yozishga, harf unsurlarini bir-biriga to‘g‘ri bog‘lab yozishga, so‘zlarni qatorlarga, to‘g‘ri joylashtirishga o‘rgatiladi.

O‘quvchilarda yozuv malakalarini hosil kilish uchun diqqat, sezgi, idrok, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etishini ko‘ramiz. Bu xol o‘quvchiga idrok etgan va sezgan narsalarini xotiraga muhirlash imkonini beradi.

Yozuvga o‘rgatish davrda bolalardagi psixologik xususiyatlarni hamda ularning fiziologik xususiyatlarni hamda ularni rivojlanishini hisobga olish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining oldida turgan muxim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘quvchi ko‘p vazifani, topshiriqlarni, o‘kish, yozish, qolaversa rasm chizish va boshka mashqlarni partada o‘tirib bajaradilar bu davrda esa o‘qituvchi o‘quvchilarni to‘g‘ri o‘tirishga o‘rgatishi, ularning erkin ishlashi uchun zarur shart sharoit yaratib berishi kerak buning uchun o‘quv yili boshida o‘qituvchi maktab hamshirasi bilan hamkorlikda yoshiga bolalarning buyiga hamda kurish va eshitish qobiliyatlariga qarab partalarga o‘tkazishi o‘ta muhim vazifalar etib hisoblanadi. O‘quvchilar partasi sinfdagi asosiy jihoz bo‘lib u o‘quvchilarning yoshlari va buylariga mos, yozish va rasm chizish uchun kulay bulishi o‘quvchi o‘tirib turganda halakit bermasligi lozim.

O‘quvchilarda yozuv malakalarini nosil qilishdan oldin, ularni sifatli yozuv qurollari bilan ta‘minlash lozim. O‘quvchilarning yozuvi chiroyli bo‘lishi ko‘p jihatdan yozuv qurollariga ham bevosita bog‘liq chunki o‘quvchining yozuv qurollarini muntazam nazorat qilib borish o‘qituvchining muhim vazifasidir.

Demak bu o‘z o‘zidan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi o‘zining dastlabki yozgan harf va unsurlaridan ruxlanib o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortib harflarni yozishdan chuchimaydi. Shuning uchun ham o‘quvchilarda dastlabki yozuv malakalarini hosil qilishda ularning irodasini mustahkamlashga etibor berishi ayni muddaodir. Bunda o‘qituvchining bolalar yoshiga va qobiliyatiga mos keladigan topshiriqlar tanlashi katta rol o‘ynaydi.



Dastur talablari asosida birinchi sinf o'quvchilari «Alifbe» kitobiga ilova tariqasida chiqarilgan «Yozuv daftaridan» foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. «Yozuv daftar» sifatli, silliq va chiziklari aniq va ko'rinib turadigan bo'lishi lozim. Daftardagi qiya chiziqalar oralig'i 25 m.m. 65 % kichik harflar yoziladigan bulishi lozim hamda o'quvchilar uchun tavsiya etiladigan sharikli ruchkalarning yug'onligi va uning qo'l barmoqlariga mos bo'lib, uzunligi esa 130 mm oshmasligi lozim.

O'quvchilarning yozuv sifati ko'p jihatdan yukorida ta'kidlab o'tilgan talablarga bog'liqdir. O'quvchilarning yozuv sifatini shakllantirish deganda, anik va toza bir xil qiyalikda va balandlikda bo'lishini, bir tekis silliq yozilishini tushinamiz. O'quvchilarda yozuv sifatlarini shakllantirish uchun o'qituvchi quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishi lozim.

1. Harf unsurlari va harflarni to'g'ri bog'lab yozish
2. Yozuvni 65 qiyalikda yozishga o'rgatish.
3. Har bir qatordagi harflarning bir xil balandlikda bo'lishiga erishish.
4. Harf unsurlari, harflar va so'zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash
5. Sinfdagi barcha o'quvchilarni bir xil tezlikda ravon qilib yozishlariga erishish.

Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdir. Har bir harf namunasi doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida-alohida ko'rsatib berishi lozim.

O'qituvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarini o'z daftarlariga to'g'ri aks ettirishdan iborat. Doskada yozib ko'rsatilayotgan har bir harf barcha o'quvchilarga aniq ko'rinib turishi shart, agar ayrim o'quvchilarga harflarni ko'rishga qiyinchilik unday o'quvchini partada o'tirish joyini o'zgartirish kerak bo'ladi. Shuni aytish joizki, namunaga qarab ko'chirib yozish bu usul Qadimiy usul bo'lib, hozirgi kunga kelib ham o'z bevosita foydalanib kelinmoqda. O'quvchilar asosan harflarning shaklini «Husnixat» kitobidagi yoki «Yozuv» daftaridagi berilgan harflar, so'zlarga qarab ko'chirib yozadilar va shu orqali ulardagi yozuv ko'nikmalar shakllana boradilar. Boshlang'ich sinf husnixat darslarida chiroyli yozuvni tashkil etishda qo'yidagi usullardan ayrimlaridan keltirib o'tishni joiz deb bilaman.

Namunaga qarab yozish usuli. Husnixatga o'rgatish usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdir. Har bir harfning namunasi doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida-alohida ko'rsatiladi. O'quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan



shakllarni (harf, bo‘g‘in, so‘zlar) o‘z daftarlariga to‘g‘ri aks ettirishdir. Duskada yozib ko‘rsatilgan har bir harf barcha o‘quvchilarga aniq ko‘rinib turishi shart. Agar ayrim o‘quvchilar uni aniq ko‘rmagan bo‘lsalar, qaytadan takrorlab ko‘rsatiladi. Ayniqsa, 57 yangi harf yoki ularning bog‘lanishini ko‘rsatish vaqtida qayta-qayta takrorlash juda muhimdir. O‘qituvchi har bir harf va harflarning bog‘lanishini og‘zaki yoki duskada tushuntirish orqali, qo‘lni qayerga qo‘yish kerak, qayerda qo‘l harakati buriladi, harflarning baland-pastligi qay darajada bo‘lishi kerakligini ko‘rsatmalar orqali tushuntirib beradi. Keyinchalik o‘quvchi u yoki bu harfni o‘qituvchi bergan ko‘rsatmalar asosida tushunib yozadilar.

Nusxa ko‘chirish usuli (harf surati ustidan yozish). Bu usulni harflar shaklini to‘g‘ri tasavvur eta olmaydigan, yozishda daftar chiziqalaridan pastga tushib yoki tepaga chiqib ketadigan o‘quvchilar uchun qo‘llash mumkin. O‘quvchilar qaysi harfni yozishda qiynalayotgan yoki xatoga yo‘l qo‘yayotgan bo‘lsalar, o‘qituvchi ularning daftarlariga xato yozilgan harfni nuqtalar bilan ifodalab berishi va o‘quvchi bu nuqtalarni bir-biriga tutashtirgan holda ular ustidan siyoh yurgizib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo‘lni yurgizib mashq qilish mexanik jarayon bo‘lib, o‘quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar. Ayrim hollarda nuqtalar bilan ifodalangan harflar orasini kengroq tashlab, ular orasida mustaqil mashqlarni ham o‘z daftarlarida bajarishlari mumkin.

Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchilarning daftarlariga oddiy qora qalam bilan ham namuna berishi va o‘quvchilar qalam ustidan yozishlari mumkin, bu usul ham samarali usullardan sanaladi. Masalan, o‘quvchi A harfini yozishda xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, o‘qituvchi daftarga qalamda uni nuqtalar bilan, ba‘zan esa qora qalam bilan ifodalab ko‘rsatadi, o‘quvchi esa uning ustidan ruchkada yurgizib chiqadi. Bu usul o‘quvchilarning shu harf haqidagi tasavvurini shakllantiradi. Lekin bunday mashqlar qo‘l harakatini shakllantirish uchun yordam beradi, xolos. Bundan uzoq foydalanish yaxshi samara bermaydi, o‘quvchi harf shaklini mustaqil yoki namunaga qarab yozishda qiynaladi. Shuning uchun nusxa ko‘chirish usulidan faqat yakka shug‘ullanganda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘qituvchi tomonidan aytilgan so‘z o‘quvchilar bilan o‘qib chiqiladi va «Navoda yozish» mashqlari bir necha bor takrorlanadi. Bunday tayyorgarlik mashqlaridan so‘ng o‘quvchilar daftarga yozishga o‘tadilar. Agarda o‘quvchi yozish jarayonida qandaydir bir unsumi yoki biron-bir harfni yozishda qiynalsa, uning ustida ishlashga vaqt ajratiladi va yozishda qiynalayotgan u yoki bu unsumi yoki harfni yozishni mashq qildirish va uni yaxshilab o‘zlashtirib olingandan so‘ng, yoza boshlangan



soʻzni davom ettirishga kirishiladi. Yozish malakasini egallab borishga oʻrgatish maqsadida avvaliga soddalardan tashkil topgan soʻzlarni, keyin esa murakkabroq soʻzlarni yozishga oʻtiladi.

Tasavvur orqali yozish usuli. Oʻqituvchi doskaga yozib koʻrsatgan harf va uning bogʻlanishlarini oʻquvchilarga ruchkani havoda harakatlantirib koʻrsatadi va bu orqali oʻquvchida harf haqida tasavvur hosil qilinadi. Oʻquvchilar daftarga yozishdan oldin qoʻllariga ruchka ushlagan holda havoda yozib mashq qiladilar. Bu harakat 2-3 marta qaytarilgandan soʻng oʻquvchi daftarga yozishga kirishadi. Bunday mashq usuli oʻquvchining qiziqishini oshiradi hamda jismoniy mashqlarni bajarishga ham imkon beradi. Bu usulning salbiy jihati ham bor. Chunki oʻqituvchi bu usuldan foydalanganda, barcha oʻquvchilarning qoʻl harakatining toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini bir paytda tekshira olmaydi. Bunda bir necha oʻquvchining qoʻl harakatini kuzatib, tegishli koʻrsatmalar berishi mumkin. Nusxa koʻchirish, tasavvur orqali yozish husnixatga oʻrgatishda yordamchi usullardan sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, aslida har bir boshlangʻich sinf oʻqituvchisining ham xati chiroyli boʻlishi talab etiladi chunki boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻta taqlidchan va ustoz kabi boʻlishlikni xoxlaydi. Yuqorida keltirilgan oʻquvchilarning yozuv koʻnikmasini shakllantirish boʻyicha talablar va tamoyillar asosida ishlashni oʻqituvchilar oʻzlarining oldiga maqsad qilib olishsalar maqsadga muvofiq boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gʻulomov X. - Toshkent: «Oʻqituvchi» 1997, 2-10- betlar.
2. Husnixat dasturi. - Toshkent: «Oʻqituvchi», 1997, 3 - 9- betlar.
3. Gʻafforova T. Gʻulomova X. G. 1 -sinfda savod darslari. «Oʻqituvchi», 1996, 16-22- 12- 14, 29- 32 betlar.
4. Birinchi sinfda oʻqitish. «Oʻqituvchi»1975, 56- 60 betlar.



MILLIY QAHRAMONLAR FAOLIYAT VOSITASIDA UZLUKSIZ TA'LIM JARYONI SUBYEKTLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

N. R. MASHARIPOVA,
O'zPFITI doktoranti

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim jarayoni subyektlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari, omillari, vositalari haqida fikr yuritiladi. Milliy qahramonlar faoliyati, ularning tanqidiy fikrlashga oid qarshlari tahlil qilingan va o'quvchilar uchun ta'limiy manba sifatida foydalanishga oid tavsiyalar berilgan. Ushbu maqoladan keng ilmiy jamoatchilik, pedagoglar va tadqiqotchilar ilmiy-metodik manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Tayanch so'zlar: uzluksiz ta'lim, o'quvchilar, tanqidiy fikrlash, ta'limiy jarayon, pedagogik shart-sharoitlar, psixologik xususiyatlar, milliy qahramonlar, tarbiya.

В данной статье рассматриваются педагогические условия, особенности, факторы и инструменты формирования критического мышления у субъектов непрерывного образования. Проанализирована деятельность национальных героев, их возражения против критического мышления, даны рекомендации для использования в качестве образовательного ресурса для студентов. Данная статья может быть использована широкой научной общественностью, педагогами и исследователями как научно-методический ресурс.

Ключевые слова: непрерывное образование, студенты, критическое мышление, образовательный процесс, педагогические условия, психологические особенности, национальные герои, воспитание.

This article discusses the pedagogical conditions, features, factors and tools for the formation of critical thinking among subjects of continuing education. The activities of national heroes, their objections to critical thinking are analyzed, and recommendations are given for use as an educational resource for students. This article can be used by the general scientific community, teachers and researchers as a scientific and methodological resource.

Key words: continuous education, students, critical thinking, educational process, pedagogical conditions, psychological characteristics, national heroes, education.

Jahon ta'limida avvalo har bir shaxsni tarbiyalashda mustaqil, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga yo'naltirishga ustuvorlik berilmoqda. Chunki fikrlash, ayniqsa tanqidiy taffakkur yurita olishi shaxsning eng katta boyligi hisoblanadi. Ta'limning maqsadi ham ta'lim oluvchilarda aynan intuitiv va individual pedagogik hodisa hisoblangan tanqidiy fikrlashni shakllantirishdir.

Pedagogika ensiklopediyasida tanqidiy fikrlash quyidagicha izohlangan: TANQIDIY FIKRLASH – inson aqliy faoliyatining turlarini o'zida mujassa-



mlashtirgan ob‘fikrlash tarzini ifodalovchi tushuncha. Tanqidiy fikrlash – g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo‘lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo‘llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e‘tibor beriladi [1, 185-b].

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda milliy qahramonlar faoliyatidan foydalanish, milliy qahramonlar faoliyatining ibratli tomonlarini o‘quv-tarbiyaviy material sifatida o‘quvchilarga taqdim qilish natijasida o‘quvchilarning avvalo madaniy dunyoqarashi shakllanib boradi. Madaniy merosga oid bilimlarni o‘quvchilarga taqdim etish ularni ajdodlarimizning bunyodkorlik faoliyati bilan yaqindan tanishishlariga ko‘maklashadi.

Milliy qahramonlar faoliyati vositasida uzluksiz ta‘lim subyektlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ta‘lim oluvchilarga tanlangan obrazlarning qahramonliklari, insonparvarligi, bunyodkorligi, ilmga intilishi kabi fazilatlarini turli afsona va rivoyatlar, hikmatlar shaklidaturli metod va texnologiyalarni qo‘llagan holda taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Milliy qahramonlar faoliyati bilan tanishtirish va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishni maktabgacha ta‘lim tashkiloti ta‘limiy jarayonlari davridan amalga oshirish lozim. 3-7 yosh davrida shaxsning kommunikativ va fikrlash kompetensiyalari shakllana boshlaydi. O‘z «men»ini anglash jadallashadi. Kimgadir o‘xshashga intilish, taqlid qilish, qaytarish vositasida o‘zini namoyon etishga intiladi. Bu shaxsning ruhan va aqlan rivojlanish jarayoni bo‘lib, shu davrda bolalarga ma‘naviy va fikriy tarbiyani to‘g‘ri shakllantirishning eng muhim bosqichi hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim yoshida bolalarga ta‘lim-tarbiyaning o‘yin metodlaridan va mashg‘ulotlardan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek bu yoshda bolalar ertak, rivoyat, afsona, hikmatlarni eshitishga ham qiziqadilar. Shuning uchun ham milliy qahramonlar va ularning qilgan ezgu ishlari haqidagi ma‘lumotlarni bolalarga ertaklar va rivoyatlar shaklida o‘qib yoki audio shaklda eshittirish, multi-video shaklida taqdim etish samarali natija ko‘rsatadi. Biz quyidagi jadvalda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari katta va tayyorlov guruhlar tarbiyalanuvchilariga milliy qahramonlar faoliyatini yoritib beruvchi didaktik manbalarni tavsiya qilamiz:



1-jadval.

Milliy qahramonlar faoliyati vositasida ta'lim subyektlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida foydalanish uchun metodik tavsiya

Manba nomi	Qahramonlari va mazmuni	Guruh	Taqdim qilish shakli
“Non isi”	A.Navoiy va H.Bayqaro faoliyatidan ibratli hikoya. Nonni e'zozlash.	Katta guruh	Sahna ko'rinishi, audio eshittirish, o'qib berish.
“Ona yurt qovuni”	Z.M.Bobur hayotidan vatanni sevish va qadrlshga undovchi hikoya.	Tayyorlov guruhi	Sahna ko'rinishi, audio eshittirish, o'qib berish.
“Insonparvar kurashchi”	P.Mahmudni Hindistondagi kurashi va bu kurashda insoniylik yuzasidan engilgani, aslida haqiqiy g'alaba mehrl va shavqatli bo'lishda ekanligini ifodalovchi rivoyat.	Tayyorlov guruhi	Sahna ko'rinishi, audio eshittirish yoki video ko'rinish shaklidagi kichik metrajli film, o'qib berish.

Huddi shu shakldagi metodik tavsiyalarni maktab o'quvchilari uchun ham ishlab chiqish ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. O'quvchilar uchun Jaloliddin Manguberdin jasorati, Najmiddin Kubroning yurt bayrog'ini qo'ldan bermagani, Amir Temurning «Temur tuzuklari»da keltirgan o'g'itlari, adolatparvarligi, Zahiriddin Muhammad Boburning insonparvarligi, kechirimliligi, Temur Malikning aqli-farosati va mardligi, Farhodning vafosi, halolligi va mehnatkashligi, Navoiyning saxovatpeshaligi, jadiclarning xalqma'rifati yo'lidagi fidoyiligi haqidagi didaktik manbalarni taqdim etish orqali ular milliy qahramonlarning faoliyati, dunyoqarashi, to'g'ri qarorlar qabul qilishi, insonparvarligi kabi fazilatlar bilan yaqindan tanishadilar. Natijada milliy qahramonlarning faoliyati ular uchun ijobiy motivatsiya – namunaga aylanadi. Ularning faoliyatidan ibrat, o'mak oladilar. Milliy qahramonlar faoliyatidan olgan tajribalaridan ta'limiy va hayotiy faoliyatlarida qo'llashga intiladilar.

Dunyodagi ko'plab oliy va ilmiy tadqiqot institutarida ta'lim jarayoni sub'ektlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar, loyihalar amalga oshirilmoqda. Taniqli amerikalik olim Uilyam Grem Sumner tanqidiy fikrlashning shaxs hayot va ta'limiy faoliyatida ahamiyatini nihoyatda muhim hisoblagan va shaxsda tanqidiy fikrlashni shakllantirish muammolariga oid tadqiqotlar olib borgan. Sumner tanqidiy fikrlash sog'lom va samarali jamiyat uchun muhim ekanligini ta'kidlaydi. Mutaxassisning fikricha, shaxs to'g'ri qarorlar chiqarish, tahlil qilish, xolisona baholashga intilishi lozim.



Yetakchi mutaxassislardan biri P.Richard ham tanqidiy fikrlashga oid o'zining qimmatli fikrlarini bildirgan. U shaxsning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari uning intellektual qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari asosida yuzaga kelishini izohlashga harakat qiladi. Olim «tanqidiy fikrlash nafaqat intellektual layoqatni namoyon etish, balki, shaxsning mavjudligini bildirdirishga intilishi» – degan tavsifini keltiradi.

Shuning uchun ham o'quvchilarga mashg'ulotlarda muayyan muammo, tarixiy voqea, real hodisalar yuzasidan taqdim etiladigan savollar oddiydan murakkablashib boradi. O'quvchilar oddiy savollarda nisbatan kamroq faollikni egallasalar, murakkab savollarda o'z-o'zidan diqqatni jamlash, xotirani tiklash, o'zining ijodiy qobiliyatidan foydalanishga intiladilar.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish ular uchun muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga shaxslararo munosabatlarni o'rnatishda, jamiyat hayotida, tengdoshlari jamoasida faol bo'lishga va o'z pozitsiyasini egallashga komaklashadi. Shuning tanqidiy fikrlash o'quvchilarga o'zi egallagan bilim, axborot va g'oyalarini ko'pchilikka ma'lum qila olish, tarkiban murakkab bo'lgan masalalarni tushunish, asosli va maqbul qarorlar qabul qilish, o'z nuqta nazarini bildirishning amaliy jarayonidir.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarni bilim imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'tarish bilan bir qatorda, o'zlarida mavjud bilim, tushuncha, axborotlarni yangi ma'lumotlar bilan sintezlashga, umumlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Bunda o'quvchilarda refleksiylash, imitatsiyalash, o'z immanentligi va nuqta nazarini ifodalash, jamoa bilan muloqotga kirishish, diskussiyani amalga oshirish jarayonlari faollashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Edward M. Glaser. An Experiment in the Development of Critical Thinking. Columbia University, 1941.
2. Paul Richard W. Critical Thinking: What Every Person Needs to Survive in a Rapidly Changing World. Rohnert Park, CA: Center for Critical Thinking and Moral Critique, Sonoma State Univ., 1990.
3. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. Jamoa // Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. - 424 b
4. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. - Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. - 376 b.
6. Samner U.G. «Народные обычаи». Folkways. Boston, 1906.
7. Safarova R.G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishini ta'minlovchi didaktik omillar va shart-sharoitlar. «Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans» shiyori ostida xalqaro ta'lim stan-dartlariga asoslangan o'quv materiallarini uzluksiz ta'lim tizimiga keng joriy etishni optimallashtirish» mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi. Nukus 2023-yil 15-aprel.
8. Temur Amir. Temur tuzuklari. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 184 b.



UZLUKSIZ TA'LIMDA PEDAGOGLARNING KORPORATIV ETIKASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

N.B.RAXMATULLAeva,

*O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining
mustaqil tadqiqotchisi*

Maqolada korporativ etikaning innovatsion boshqaruvdagi roli haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, talim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida talim muassasalarini innovation boshqarishda korporativ madaniyatning roli a rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. *Korporativ etika, menejment, sifat ta'limi, kasbiy faoliyat, psixologik jihatlar, rahbar xodimlar, majburiyat, zarur psixologik-pedagogik prinsiplar.*

В статье рассматривается роль корпоративной этики в управлении инновациями. Также даны рекомендации по роли и развитию корпоративной культуры в инновационном управлении учебными заведениями в условиях модернизации системы образования.

Ключевые слова. Корпоративная этика, менеджмент, качественное образование, профессиональная деятельность, психологические аспекты, руководящий персонал, приверженность, необходимые психолого-педагогические принципы.

The article reflects on the role of corporate ethics in innovation management. Also, in the conditions of modernization of the Talim system, recommendations are given on the development of a role of corporate culture in the management of innovation of Talim institutions.

Key words. *Corporate ethics, management, quality education, professional activities, psychological aspects, managerial personnel, commitment, necessary psychological and pedagogical principles.*

Boshqaruv organlari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishlari, etilgan masalalarni o'z vaqtida va ijodiy xal etishlari, barcha ta'lim muassasalarining ish saviyasi hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirilishini ta'minlashlari kerak. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishning bosh maqsadi har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asrning erkin fikrli, o'z Vatani va xalqining manfaatlariga sadoqatli shaxslarni voyaga etkazishda namoyon bo'ladi. Bu maksadga erishish umumiy demokratiy yangilanishlar jarayoni, jamiyatni erkinlashtirish, mamlakatda yangi ijtimoiy-siyosiy muxitni shakllantirish bilan bog'lik.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tatbiq qilish, hech mublag'asiz,



strategik maqsadlarimiz farovon qudratli demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog'i lozim. Bu barcha davlat va jamoat tashkilotlari, tabiiyki, eng avvalo, ta'lim tizimi muassasalari faoliyati mazmunini qaytadan ko'rib chikishni takozo etadigan murakkab jarayon. Ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta'lim va tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi erkin shaxsni shakllantirishning asosini tashkil etadi. Erkinlashtirish, jamiyatni ma'naviy yangilash birinchi navbatda, yosh avlod an'analari insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi. Jamiyatni ma'naviy yangilash jarayonida, shunga asoslangan xolda Vatan madaniyati va milliy san'atini rivojlantirish, ularning yutug'ini xorijiy mamlakatlarda targ'ib va tashviq etish, yoyish, milliy va xalkaro tanlovlar, ko'riklar o'tkazish kabi chora-tadbirlarni faollik bilan amalga oshirish, ayniqsa, yoshlar badiiy ijodiyotini yanada rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Ma'naviy yangilanish jarayoni milliy bayramlar, urf-odatlar, o'yinlar shaklida mavjud bo'lgan taraqqiyparvar milliy qadriyat va an'analarni qayta tiklash, ularni rivojlantirish va zamonaviy hayotga joriy etish bilan ham o'zviy bog'liq. Ta'lim-tarbiya tizimiga rahbarlik qilish tamoyillari. Ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog'liq.

Ta'lim tizimiga ilmiy rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogika uchun asosiy yo'nalish. Barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, bu jarayonning qonuniyatlarini ochib berish, pedagogika nazariyasining asosiy masalalarini ta'lim.

Albatta pedagoglarning korporativ etikasini rivojlantirishda pedagog faoliyati kafolatlangan natijaga ega bo'ladi, qachonki u birinchi yoki ikkinchi uslubni faol qo'llash imkoniga ega bo'lsa. Buning uchun o'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. Pedagog, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etish, ularni yanada boyishiga ishonch bildirish, u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida pedagogning so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.



Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar rahbar xodimlardan yuksak madaniyatni, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, murakkab sharoitlarda davlat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qila olishni, aholining har xil toifalari bilan ishlay olishni talab qiladi. Bugungi kunning zamonaviy rahbar pedagog xodimi qanday bo'lishi kerak va u yana qanday sifatlarga ega bo'lish lozim kabi savollar ayni paytda bugunning eng ahamiyatli mavzusi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada nafaqat ishbilarmonlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik sifatlari bilan bir qatorda kasbiy faoliyatning ayrim psixologik-pedagogik jihatlarini hamda tarbiyalanganlik sifatlarini ham namoyon qila olishi lozim.

Kasbiy faoliyatning psixologik jihatlarini shuki, rahbar xodimlarning kelajakda o'z burch va majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun ularga zarur psixologik-pedagogik prinsiplar, kategoriyalar va tushunchalarni singdirish hamda kasb madaniyati va etikasi talablariga muvofiq xatti-harakatlarini izoxlash, xizmat vazifalarini to'g'ri bajarishga o'rgatish, o'z kasbiga mehr-muhabbat, hurmat bilan qarashni tarbiyalashda namoyon bo'ladi.

Kasbiy faoliyatning pedagogik jihatlarini esa rahbar xodim xylqidagi mavjud axloqiy-siyosiy xususiyatlarda aks etib, axloqiy me'yorlar va prinsiplarning shaxs ongida qanday hosil bo'lishi bilan belgilanadi. Axloqning shakllanishida atrofda turli xylq-atvordagi kishilar, shaxsiy tajriba, muayyan tiplar to'g'risidagi ma'lumotlar, ommaviy axborot vositalarida yoritilayotgan faktlar katta ahamiyatga ega.

Bu o'rinda pedagoglarning korporativ etikasini rivojlantirishning eng asosiy jihatlaridan biri shuki, Davlat siyosatiga ishonch o'rnatilgan prinsiplarga sodiqlikda, davlat siyosatining aholi o'rtasida keng targ'ib qilinishida va amalda qo'llanish jarayoniga talabchanlikda ko'rinadi. Talabchanlik xususiyati psixologiyada shaxsiy namuna bo'lish orqali atrofda qilargalarga ta'sir o'tkaza olish, ularni maqsad sari yo'llay olishda hosil bo'ladi.

Bugun, jamiyatimizda har sohada yangilanish, shijoat, o'z ustida tinimsiz ishlash, inson omili har tomonlama ustun degan muhim tamoyil shuningdek, yurt manfaatini doimo qadrlash kabi xususiyatlar o'z ustuvorligini namoyon etadi. Yurtboshimizning ta'kidlashicha, «bugungi kunning eng muhim vazifasi – hayotimizning barcha sohalarida, ayniqsa boshqaruvda, respublika miqyosida, viloyat, shahar, tuman, qishloq va mahallalarni boshqarishda, tarmoq bo'g'inlarini idora etishda yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda ma'suliyatni o'z zimmasiga ola biladigan, xayot bilan hamkadam yurishga qodir, iymoni pok



bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirishdan iboratdir» kabi fikrlari bugungi iqtisodiy islohotlarimizning pirovard natijasi rahbar xodimlarning izlanuvchanligi va tadbirkorililigiga, pokligi va qat'iyatiga ko'p jihatdan bog'likligini ko'rsatadi.

Jaxon amaliyotida, ayniqsa falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya fanlari doirasida liderning ma'naviy barkamolligini shakllantiruvchi omillari o'rganilgan. Liderning atrofda qilargana ta'sir o'tkazish qobiliyati bu o'rinda eng asosiy talablardan biridir. Unda boshqalarni o'z ortidan ergashtirish, to'g'ri yo'lga etaklash, safdoshlariga o'z iste'dodini topishda va rivojlantirishda ko'maklashish, yordamini ayamalik kabi xususiyatlar jam bo'ladi.

Hozir kundan kunga rivoj topib kelayotgan davrda rahbar shaxsiga bo'lgan talabning ko'chayganligini tan olmasdan ilojimiz yuk. Rahbarlik psixologiyasining zamonaviy va kup uchraydigan muammolari safiga muloqotga kirisha olmaslik, javobgarlik va mas'uliyat xissining etishmasligi, kelishuv va murosa qila olmaslik, reja qilingan ishda qoniqarli natijaga erisha olmaslik, rag'batlantirish va jazolashning me'yorlari kabilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-son Farmonida belgilangan vazifalarga muvofiq 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi ilm-fan, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va oliy tizimni rivojlantirish konsepsiyasida O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha ta'lim olishini yaqin kelajakda ta'minlash kerak o'quv jarayonining belgilangan sifati, kasbiy darajani oshirish va pedagog kadrlarning javobgarligi, infratuzilmani ratsionalizatsiya qilish, resurs kadrlarini mustahkamlash va kadrlar bilan jihozlash, tizim faoliyatining samarali mexanizmlarini joriy etish pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishdir.

Korporativ etikanini boshqaruv dasturlari tizimi va strategiyani amalga oshirishga qaratilgan pedagogik faoliyat, xulq-atvor va aloqa jamiyatning hozirgi rivojlanish darajasiga muvofiq rivojlantirishdan iborat. Korporativ etika faoliyat samaradorligini oshirish yoki kamaytirishning juda kuchli manbai. Biroq, respublikada va boshqaruv amaliyotida pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish, tashkilot madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarida mavjud bo'lgan resurslar yoki cheklovlar vaqt to'liq tushunilmagan. Yuqori samarali korporativ etika quyidagilarni o'zgartirishi mumkin o'z-o'zini tashkilot etuvchi raqobat tizimiga ijtimoiy tashkilot, buning natijasida hamma narsa tashkilotning parametrlari qarorlarni qabul qilishda, hokimiyatni taqsimlashda muvofiq lashtirilgan tarzda ishlaydi, xodimlarning xatti-



harakatlari, korporativ etikaning asosiy funksiyalaridan biri bu tashkilotni rivojlantirishdir boshqaruv ta'sirining etishmasligi faoliyat darajasiga uning mavjudligi samaradorligini pasaytiradi.

Agar biz korporativ etika kontsepsiyasining kelib chiqishiga murojaat qilsak, unda uning 1970-80 yillarda AQShda ishlab chiqilganligi aniq bo'lib qolmoqda. Aynan 70-yillarning oxirida paydo bo'lgan tashkilotlarni strategik boshqarish muammolari, katta va o'rta biznesning yangi boshqaruv yondashuvlariga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq inqirozdan mehnat samaradorligini oshirish nazariyotchilar, kontsepsiyani rivojlantirishning zaruriy shartiga aylandi.

XXI asrda yashar ekanmiz, bu asrda muloqot go'zalligi ishingiz yurishganidan dalolatdir. Pedagoglarning korporativ etikasini rivojlantirishda ya'ni har kanday pedagog shaxs atrofidagilar bilan muloqot qila olishi va shaxs psixologiyasini o'rganishi darkor, boshqa so'z bilan aytganda, o'z kamchiliklarini bartaraf eta bilishi muhimdir. Har qanday nizoni bartaraf etish ko'nikmasi, o'z jamoa fikrini eshita bilishi va ularning fikrini hurmat va inobatga olgan holda, bir tuxtanga kelishi zarurdir. O'z ustida muntazam ishlashi va ilmiy salohiyatini ham oshirib bormog'i zarurdir. Bu esa, o'z navbatida innovatsion texnologiya ilmini o'zlashtirishda shaxsning turi hamda motiv yo'nalishi ahamiyat kasb etadi.

Pedagoglarning korporativ etikasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda ilmining dastlabki alomatlar Yuliy Sesar, Iskandar Zulkarnayn, markaziy Osiyoda esa O'rta asrlarda Amir Temur hukmronligi davridan boshlab shakllana boshlagan. Mutafakkir ajdodlarimiz ta'limotlarida, xalq ijodiyotida adolatlilik va adolatsiz shoh to'g'risidagi ma'lumotlar haddan ziyod ko'p. Abu Rayxon Beruniy asarlarida, al-Farobiy ko'lyozmalarida boshqonlik (yuksak lavozim egallaganlar nazarda tutiladi) insonlarning shaxsiy fazilatlarini, ularning oldida turadigan murakkab, mas'uliyatli vazifalar, ayrim muammolarning oldini olish va bartaraf kilish yul-yo'riqlari bo'yicha ibratli fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, boshqaruvchining faxm-farosati, donishmandligi, haqquyiligi, xalkparvarligi, insof diyonatlilik, saxovatpeshaligi ilmiy amaliy namunalar asosida ta'kidlab utilgan vatandosh shoir va yozuvchilar ijodiyotida, folklorda saxiylik-ochko'zlik bir-biriga keskin qarama-qarshi qo'yilib, ular insofqa chakirilgan. Davlatning y yoki bu lavozimida amaldorlik qilgan kishilarning rug'iy dunyosi xalq donishmandligi namunalarida o'z ifodasini topgan.

Pedagoglarning korporativ etikasini rivojlantirishda muomala odobi boshqa, kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy



talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazzmun va eng ifodali namoyon bo'lishi nutq vositasida amalga oshadi. So'zlash va tinglay bilish suhbatlashish madaniyatining muhim jihatlarni tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi. Muomala odoblarining yana biri bu – insoniy nigoh. Ma'lumki, odamning nigohida, yuz ifodasida, qo'l harakatlarida uning qay sababdandir tilda ifodalanmagan hissiyoti, talablari o'z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo'l siltab ketish yoki qo'pol muomalada bo'lish madaniyatsizlikni anglatadi.

Ko'rinib turibdiki, buni bir tomondan tasdiqlangan normalar bilan izohlash mumkin qaysidir ma'noda, bu hayotni osonlashtiradi, boshqa tomondan, u muayyan ishlarni bajarishni talab qiladi. Korporativ muhiti nisbatan yuqori darajadagi qulaylik bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ylyg' xalqning - ishi ham ylyg', xayoti yoryg' va kelajagi faravon bo'ladi. -T.: O'zbekiston, 2019. - 4 b.
2. Barotov Sh.R. Sotsialno-psixologicheskie i nauchno-prakticheskie osnovy sozdaniya psixologicheskoy slujbi v O'zbekistane: Avtoref. . d-ra psixol. nauk. - T.:TGPU,1998. - 37 s
3. Ахмедова М.А. Педагогические условия формирования корпоративной культуры вуза: дис. канд. пед. наук: 13.00.01 / Ахмедова М.А. - Ульяновск, 2007.
4. Афанасьева Д., Гулиус Н. Исследования трансформации корпоративной культуры университета (Опыт национального исследовательского Томского государственного университета). Томск. Университетское управление: практика и анализ, № 101 (1), 2016.



«LIFELONG LEARNING» KONSEPSIYASI ASOSIDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSİYALASH – DAVR TALABI

N.G.DILOVA,

Buxoro davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori, (DSc)

N.S.HAKIMOVA,

Buxoro davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori, (PhD)

Maqolada «lifelong learning» konsepsiyasi, uning mazmun-mohiyati, uzluksiz ta'limdagi o'rni va zarurati, Uchinchi Renesans davrida O'zbekistonda uzluksiz ta'limning umrbod ta'lim (lifelong learning) konsepsiyasiga faol integratsiyalashuvi jarayonlari, Uzluksiz ta'limni modernizatsiyalashda xalqaro hamkorlik yo'nalishlari, Uzluksiz ta'limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, O'zbekistonda xalqaro standartlarga asoslangan uzluksiz ta'lim sifatini ta'minlash milliy tizimining asosiy elementlariga oid tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: «lifelong learning», uzluksiz ta'lim, Uchinchi Renesans, modernizatsiya, innovatsiya, shaxs, taraqqiyot, globollashuv, muvaffaqiyat, inson kapitali, ta'lim sifati, integratsiya.

В статье рассматриваются концепция «lifelong learning», ее содержание, роль и необходимость в непрерывном образовании, процессы активной интеграции непрерывного образования в концепцию непрерывного образования (lifelong learning) в Узбекистане в эпоху третьего Ренессанса, направления международного сотрудничества в модернизации непрерывного образования, возможности использования цифровых технологий в развитии непрерывного образования, Национальной системы обеспечения качества непрерывного образования в Узбекистане на основе международных стандартов изложены рекомендации относительно основных его элементов.

Ключевые слова: «lifelong learning», непрерывное образование, третье возрождение, модернизация, инновации, личность, прогресс, глобализация, успех, человеческий капитал, качество образования, интеграция.

The article describes the concept of «lifelong learning», its content, its role and necessity in continuing education, the processes of active integration of continuing education into the concept of lifelong learning (lifelong learning) in Uzbekistan during the third Renaissance, directions of international cooperation in the modernization of Continuing Education, the possibility of using digital technologies in the development of Continuing Education, recommendations on the key elements

Key words: «lifelong learning», continuing education, Third Renaissance, modernization, innovation, identity, progress, globalization, success, human capital, quality of education, integration.



«Lifelong learning» soʻzining izohi - hayotiy taʼlim maʼnosini bildirib, insonning «doimiy, ixtiyoriy va oʻz-oʻzini ragʻbatlantirish»[5] shaxsiy yoki kasbiy sabablarga koʻra oʻrganishga intilishi maʼnosini bildiradi. Hayotiy taʼlim shaxsning raqobatbardoshligi va ish qobiliyati uchun muhim ahamiyatga ega boʻlib, shaxsning ijtimoiy inkluzivlik, ijtimoiy faol fuqarolik va shaxsiy rivojlanishini kuchaytirishga asoslangan uzluksiz taʼlim olish orqali muvaffaqiyatlarga erishish darajasini taʼminlaydi[6].

Uchinchi Renessans kontekstida Oʻzbekistonda uzluksiz taʼlimning umrbod taʼlim (lifelong learning) konsepsiyasiga faol integratsiyalashuvi davom etmoqda. Bu hayotning barcha bosqichlarida shaxsning doimiy rivojlanishi va kasbiy oʻsishi uchun imkoniyatlar yaratadigan keng qamrovli taʼlim tizimini yaratishga qaratilgan strategik qadamdir.

Uzluksiz taʼlimni «lifelong learning» tizimiga integratsiya qilish quyidagi asosiy yoʻnalishlarni takomillashtirish asosida amalga oshiriladi:

1. Uzluksiz taʼlimning xalqaro tajribalarga asoslangan yoʻlini yaratish boʻyicha:

– taʼlimning turli darajalari va shakllari oʻrtasida uzluksiz oʻtishni taʼminlaydigan taʼlim dasturlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– barcha yoshdagi guruhlar uchun ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish tizimini shakllantirish;

– rasmiy taʼlim turlariga qoʻshimcha ravishda norasmiy va zamonaviy talablardan kelib chiqib maʼlumotli taʼlimni rivojlantirish.

2. Zamonaviy davr uchun moslashuvchan va individual taʼlim traektoriyalarini rivojlantirish boʻyicha:

– talabalarga individual taʼlim yoʻnalishlarini yaratishga imkon beradigan modulli dasturlarni joriy etish;

– koʻproq moslashuvchanlik va foydalanish imkoniyatini taʼminlash uchun raqamli texnologiyalar va masofaviy taʼlimdan foydalanishga asoslanish;

– norasmiy va zamonaviy ehtiyojlarga asoslangan maʼlumotli taʼlim natijalarini tan olish va tasdiqlash.

3. Taʼlim, mehnat bozori va jamiyat ehtiyojlari oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikka va uzviylikka asoslangan aloqani kuchaytirish boʻyicha:

– uzluksiz taʼlim dasturlarini ishlab chiqishda ish beruvchilar va iqtisodiy tarmoqlar bilan oʻzaro kelishuvga asoslangan yaqin hamkorlik;

– tadbirkorlik taʼlimini intensiv ravishda rivojlantirish va oʻz-oʻzini ish bilan taʼminlashni qoʻllab-quvvatlash;



- ta'lim dasturlarini inson omilini hisobga olgan holda mehnat bozorining o'zgaruvchan ehtiyojlari va texnologik o'zgarishlariga va qulayliklariga moslashtirish.

4. Ta'lim dasturlarini tan olish va akkreditatsiya qilish tizimining takomillashgan mexanizmini yaratish bo'yicha:

– uzluksiz ta'lim dasturlarini akkreditatsiya qilishning milliy va xalqaro standartlarini ishlab chiqish;

– ta'limning turli shakllarida olingan malakalarni tan olish mexanizmlarini yaratish;

– o'quv natijalarini hujjatlashtirish uchun elektron portfellar va sertifikatlar kabi raqamli vositalarni joriy etish.

5. Uzluksiz ta'limning moliyaviy imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha:

– uzluksiz ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun davlat grantlari, subsidiyalar va ta'lim kreditlarini taqdim etish;

– ish beruvchilarni o'z xodimlarining inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishga undash;

– hayot davomida o'qitishga yo'naltirilgan mablag'larni moliyalashtirish va taqsimlash mexanizmlarini yaratish.

Uzluksiz ta'limning O'zbekistondagi «lifelong learning» tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy jamiyat va iqtisodiyot ehtiyojlariga javob beradigan inklyuziv va moslashuvchan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan uchinchi Uyg'onish davrining asosiy elementidir. Bu mamlakatimiz fuqarolariga o'z vakolatlarini doimiy ravishda rivojlantirish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish imkoniyatini beradi, bu esa o'z navbatida inson kapitali va mamlakat raqobatbardoshligini mintaqaviy va global darajada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchi Renessans davriga qadam qo'yish bosqichida uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash O'zbekiston global ta'lim tizimiga integratsiyalashish va eng samarali amaliyotlarni almashish uchun uzluksiz ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni faol rivojlantirmoqda.

Jahon miqyosida uzluksiz ta'limni modernizatsiyalashda xalqaro hamkorlikning o'ziga xos o'rni va ahamiyati mavjud bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, birgalikda ta'lim dasturlari, xalqaro akkreditatsiya va malakalarni tan olish, ilg'or tajriba almashish, mintaqaviy uzluksiz ta'lim markazlarini yaratish kabilardan iborat (1-jadvalga qarang).



1-jadval

Uzluksiz ta'limni modernizatsiyalashda xalqaro hamkorlik yo'nalishlari

No	Yo'nalishlar	Faoliyat mazmuni
1	Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik	YUNESKO, jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda uzluksiz ta'lim tashabbuslarini ekspert qo'llab -quvvatlash va moliyalashtirish. Global uzluksiz ta'lim tarmog'i (GNLC) va Osiyo -tinch okeani uzluksiz ta'lim forumi (APCE) kabi xalqaro da sturlar va tashabbuslarda ishtirok etish.
2	Birgalikda ta'lim dasturlari	Xorijiy universitetlar va tadqiqot markazlari bilan malaka oshirish va magistratura dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. O'qituvchilar va talabalar uchun madaniyatlararo t a'lim va xalqaro tarmoqlarni kengaytirishga yordam beradigan almashinuv dasturlarini ishga tushirish.
3	Xalqaro akkreditatsiya va malakalarni tan olish	O'zbekiston uzluksiz ta'lim dasturlarini xalqaro ta'lim standartlari va akkreditatsiya tizimlariga integratsiya qilish. Chet elda olingan malakalarni tan olish to'g'risidagi xalqaro bitimlarda ishtirok etish. Xalqaro tizimlarga mos keladigan milliy malaka asoslarini ishlab chiqish.
4	Ilg'or tajriba almashish:	Uzluksiz ta'limga bag'ishlangan xalqaro konferentsiyalar, seminarlar va ishchi guruhlarda ishtirok etish. Boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatli uzluksiz ta'lim modellari o'rganish va moslashtirish. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun xorijiy ekspertlarni jalb etish.
5	Mintaqaviy uzluksiz ta'lim markazlarini yaratish	O'zbekiston mintqa mamlakatlari uchun xizmatlar va dasturlar taqdim etib, Markaziy Osiy oda uzluksiz ta'lim olish uchun mintaqaviy markaz bo'lishga intilmoqda. Dasturlarni birgalikda rivojlantirish va tajriba almashish uchun qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilish.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, uzluksiz ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekistonga global bilim va eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish, shuningdek, xalqaro ta'lim tarmog'iga integratsiyalashish imkonini beradi. Bu O'zbekistonda uzluksiz ta'lim sifati va tan olinishini oshirishga, mamlakat fuqarolari uchun jahon mehnat bozorida o'z malakasi va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Ushbu imkoniyat va afzalliklar mazmuni raqamli ta'lim texnologiyalarining uzluksiz ta'limni takomillashtirilishini ta'minlash vazifasini bajaradi. Ya'ni,

Mavjudligi va moslashuvchanligi:

– raqamli texnologiyalar o'quvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda ta'lim resurslari va dasturlariga kirish imkonini beradi, bu esa uzluksiz ta'limni yanada qulay va moslashuvchan qiladi.

– onlayn platformalar va mobil ilovalar o'z tezligida va moslashtirilgan jadval asosida o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi.



Shaxsiylashtirish va moslashuvchanlik:

– mashinani o‘rganish va sun‘iy intellekt algoritmlari ta’lim tajribasini shaxsiylashtirish va tarkibni individual ta’lim ehtiyojlari va uslublariga moslashtirish uchun ishlatiladi.

– raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatib borish va ularga Real vaqtda fikr-mulohazalarni taqdim etish imkonini beradi.

Interaktivlik va hamkorlik:

– virtual sinflar va hamkorlik vositalari o‘quvchilarga bir-biri bilan va o‘qituvchilar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga imkon beradi, bu esa yanada interaktiv va o‘z ichiga olgan ta’lim muhitini yaratadi.

– onlayn forumlar va ijtimoiy tarmoqlar talabalar o‘rtasida hamkorlik va bilim almashishni osonlashtiradi.

Ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish:

– raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab turli xil ta’lim resurslari va mutaxassislariga kirish imkoniyatini beradi.

– onlayn kurslar va dasturlar o‘quvchilarga an’anaviy ta’lim muassasalari doirasidan tashqarida bilim va ko‘nikmalarini kengaytirishga imkon beradi.

Mikroo‘rganish va uzluksiz o‘rganish:

– raqamli texnologiyalar mikroo‘rganish va uzluksiz o‘rganishni osonlashtiradi, bu esa o‘quv mazmunini kichikroq, oson hazm bo‘ladigan bo‘laklarga bo‘lish imkonini beradi.

– mobil ilovalar va onlayn platformalar qisqa vaqt ichida o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Innovatsion ta’lim formatlari:

– raqamli texnologiyalar virtual va kengaytirilgan haqiqat kabi innovatsion ta’lim formatlari uchun imkoniyatlarni taqdim etadi.

– ushbu texnologiyalar yanada immersiv va amaliy ta’lim muhitini yaratishga imkon beradi.

Texnologik bashoratlash va rejalashtirishning boshqa yondashuvlari o'rtasidagi asosiy farq uning uzoq muddatli (10-30 yil) va barcha potentsial texnologiyalarni etuklikning turli bosqichlarida ko'rib chiqadigan keng doiradadir. Bashoratlash odatda uzoq muddatda alohida ishtirokchilarga emas, balki kengroq iqtisodiyotga yoki butun sektorlarga foyda keltirishi mumkin bo'lgan texnologiyalarni aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Finlyandiya: Finlyandiya o'zining forsaytlash va strategik rejalashtirish markazlari bilan mashhur. Masalan, Finlyandiya Innovatsion Fond kompaniyasi (Sitra) iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining turli stsenariylari asosida uzoq muddatli forsaytlash ishlarini olib boradi.

Germaniyada bir nechta foresigh tuzliksiz ta'lim markazlari mavjud, masalan, Federal tadqiqot va ta'lim vazirligi (BMBF) tadqiqot va ta'lim sohasida forsaytlash, trend tahlili va ishlab chiqishda faol.

Buyuk Britaniyadagi Sankt-Peterburg Texnologiya Inta'lim, fan va innovatsiyatuti (British Technology Strategy Board) forsaytlash va innovatsiyalar markazini ishga tushirdi. Markaz texnologik tendentsiyalarni forsaytlash va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Forsayt bu inglizchadan tarjima qilinganda kelajakka nazar, degan ma'noni anglatib, biron bir voqea, jarayon, hodisani bir necha yil oldinga nazar tashlagan holda kelajakdagi holatini ko'zdan kechirish degani. Forsayt – mazkur atama ingliz tilida (foresight – «kelajakka nazar» ma'nosini anglatadi. U innovatsiyani ilgari surish, strategik baxolashni faollashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlari buyicha uzok kelajakka mo'ljallangan faoliyatni nazarda tutadi. Forsayt – fan, texnologiya, iqtisodiyot va jamiyatning uzoq muddatli uzliksiz ta'lim, fan va innovatsiya istiqbolini tizimli baholash asosida yuqori darajada ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltirishga qaratilgan yangi texnologiyalar va tadqiqotlarning strategik yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan texnologiyadir.

Kelajakdagi tasavvurlarni yoki mumkin bo'lgan stsenariylarni aniqlash uchun oldinga qarash mumkinmi? Kerakli kelajak sari yo'lni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish mumkinmi? Bu ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik sohalarning rivojlanishiga qanday ta'sir qiladi? Bu g'alayon va doimiy o'zgarishlar davrida qanchalik dolzarb? Bashoratlilik, ijodkorlik va innovatsiya tushunchalari o'rtasida qanday bog'lanishlar va o'zaro bog'liqliklar vujudga keladi?



Bashorat (Forsight) kelajak haqida fikrlashning chiziqli (analitik yoki mantiqiy) va chiziqli bo'lmagan (ijodiy, mantiq, betartiblik nazariyasi) usullarini birlashtirib, istalgan kelajak sari harakatni strategik rejalashtirish yoki noxush vaziyatlarni yumshatish uchun mumkin bo'lgan stsenariylar yoki qarashlarni ishlab chiqishga intiladi. Amaliyot sifatida, bashorat bir qancha nazariy asoslarga va odatda «forsight davrlari» deb hisoblangan narsalarga yoki oldingi tajribaga asoslangan bashorat texnikasini ishlab chiqish bosqichlariga asoslanadi.

Uzliksiz ta'lim tizimida Forsight metodologiyasidan foydalanish ijodiy imkoniyatlar va innovatsion yechimlarni topish imkonini beradi. Bashorat qilish strategiya, sayohat yoki kelajak sari yo'l xaritasini ishlab chiqish jarayonini osonlashtiradi, bu orzu qilingan, amalga oshirilishi mumkin va hayotiydir. Bashoratni muhokama qilishda bashoratlash, ijodkorlik va innovatsiya o'rtasidagi bog'liqlik va interfeysda paydo bo'ladigan hayajonli dinamikaga alohida e'tibor beriladi.

Uzliksiz ta'lim tizimidagi bu jarayon strategik jihatdan boshqarilsa, innovatsiya muvaffaqiyati yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Innovatsiyalarni boshqarish amalga oshirish mumkin deb topilgan va mahsulot, jarayon yoki xizmatga qiymat qo'shadigan ijodiy g'oyalarni amalga oshirish strategiyasini yaratishga yordam beradi. Bashoratlash innovatsion jarayonga turli darajadagi, ya'ni innovatsion siyosat bo'yicha strategik qarorlar qabul qilinadigan tepadan tortib, innovatsion ishtirokchilar (ta'lim muassasalari, firmalar, iste'molchilar, tadqiqotchilar va texnologik brokerlar) innovatsiyalarga bo'lgan talabni yaratadigan va bu jarayonda qoniqarli boshqaruv piramidasi qismiga qadar bo'lishi mumkin.

Bashorat uzoq muddatli uzliksiz ta'lim, fan va innovatsion istiqbollarni aniqlashga yordam berishda boshqaruv piramidasi tepasidan pastga qadar muhim rol o'ynaydi. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar uchun mablag' ajratilishi kerak bo'lgan asosiy yo'nalishlarni tanlashga e'tibor, ayniqsa fan va texnologiyaning innovatsion jihatlari bilan bog'liq bo'lgan byudjetlar bilan bog'liq bog'liqligi asosiy e'tiborni talab qiladi. Forsightning bir qator usullari mavjud bo'lib, ular asosan siyosatni ishlab chiqish (AKT, fan va texnologiya, atrof-muhit va energetika), iqtisodiy sohada (byudjetni hisobga olish va resurslarni taqsimlash) va xususiy tashkilotlarda (korporativ bashoratlash) qo'llaniladi. Kelajak stsenariylarini loyihalash xayolot va ijodkorlik mahoratiga tayanadi, chunki u yangi g'oyalar va imkoniyatlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Kelajak bilan bog'liq bo'lganlarning transdisiplinarligiga urg'u berish juda muhim: Eng yaxshi kelajak olimlari uzliksiz ta'lim tizimlar nazariyotchisi bo'lishga intilishadi. Bu biz uchun qulay bo'lgan hududni tasavvur qilishdan ko'ra, atrofimizdagi barcha jismoniy tizimlarning o'ziga xos dinamikasini o'rganishga ochiq bo'lishga yordam beradi. «Fanlararo yondashuvni izlash – bu abadiy,



umrbod davom etadigan muvozanatli so‘rov jarayoni va juda foydali sayohatdir.» Fyuchers tadqiqotlari sohasidagi tadqiqotchilar kelajakka yondashuvlar 1900-yillarning o‘rtalarida yaratilganidan beri rivojlangan degan bayonotda bir ovozdand. Bashoratning zamonaviy tadqiqot yo‘nalishlari uning tabiati haqida bir ovozdand quyidagi olimlar o‘z fikrlarini bildirishgan. U har qanday bashorat shaklidan ajratilgan va kelajakni ochiq va qurilishi mumkin bo‘lgan makon deb hisoblaydi.

Uzliksiz ta‘lim tizimida bashorat va bilishning hozirgi tushunchasini quydagicha izohlash mumkin. Bashoratning qiymat yaratish bo‘yicha adabiyotlar ko‘pincha uning noaniqlikni boshqarishdagi roli bilan bog‘liq. Misol uchun, bashoratlash tizimlari uzilishlarga «tikish» yoki ko‘pincha strategik variantlarni yaratish orqali ta‘sir va javob noaniqligini boshqarish uchun o‘zgarishlar drayverlarini aniqlash vositasi sifatida ta‘kidlangan. Korporativ bashorat, shuningdek, o‘zgarishlarni idrok etish, sharhlash va javob berish, shuningdek, boshqa aktyorlarga ta‘sir qilish va o‘rganishga imkon berish uchun qimmatli hisoblanadi.

Uzliksiz ta‘lim tizimida ta‘lim oluvchi kelajakka tayyor bo‘lishlari kerak. Weimer (2012) ta‘kidlaganidek, biz aniq va kelishilgan usullarda o‘quvchilarni o‘zlarini o‘quvchi sifatida anglash juda muhim. Biz muntazam ravishda nafaqat «Siz nimani o‘rganyapsiz», balki «Qanday o‘rganyapsiz» deb so‘rashimiz kerak. Biz muqobil variantlarni taklif qilishimiz kerak va keyin Ta‘lim oluvchilarni ushbu yondashuvlarning samaradorligini sinab ko‘rishga chaqirishimiz kerak.

XXI asrda uzliksiz ta‘lim va bilim uchun bu yangi yondashuvlardir. Yigirma birinchi asr pedagogikasini qabul qilish o‘qituvchilardan nima va nima uchun o‘rgatishlari haqidagi fikrlarini qayta ko‘rib chiqishni va o‘qituvchilar sifatida kim ekanligini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bu ulardan «an‘anaviy o‘qituvchi sifatida emas, balki yuqori malakali ilg‘or ta‘lim oluvchi sifatida o‘zlarini professional tarzda qayta tiklashni» talab qiladi.

Uzliksiz ta‘lim tizimining kelajakdagi roli va ularning o‘zini va boshqalarni tubdan o‘zgartirish qobiliyati noaniqligicha qolmoqda. Agar bugungi ta‘lim oluvchilar hamkorlik qilish va dunyodagi iqtisodiy, ekologik, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy va siyosiy muammolarni hal qilish uchun etarli darajada tayyor bo‘lmasa, barcha mamlakatlar oqibatlariga duch keladi. Har bir xalq yigirma birinchi asr ta‘lim tizimini qanday qilib eng yaxshi tarzda joriy etish bo‘yicha global tajriba jamg‘armasiga hissa qo‘shishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, bashorat – bu uzliksiz ta‘lim jarayonidagi bugungi qarorlarni boshqarish uchun kelajak haqida o‘ylash harakati. Har birimiz har kuni bashorat bilan shug‘ullanamiz. Bugun menga soyabon kerakmi? Yo‘l sharoitlari qatnovimni sekinlashtiradimi? Ob-havo bashoratlashlari va yo‘l harakati haqidagi ma‘lumotlarga har doimgidek oson kirish hamda mumkin bo‘lgan



variantlar va natijalarni tezda ko‘rib chiqishni hisobga olgan holda, bu qarorlar nisbatan sodda. Ammo biz uzoqroq vaqt va kattaroq odamlar guruhlarini o‘z ichiga olgan savollarga duch kelganimizda, murakkabliklar va noaniqliklar tezda juda katta va oqibatlariga olib keladi. Uzliksiz ta‘lim tizimida, bu kabi masalalar o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy, fazoviy va vaqtinchalik o‘lchovlarga ko‘ra ko‘p miqyosli bo‘lib, shuning uchun nafaqat qanday savollar ko‘tarilayotgani va ular qanday hal etilishi nuqtai nazaridan, balki jarayonda kim ishtirok etayotgani nuqtai nazaridan ham ehtiyotkorlik bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bu yerda dasturni ishlab chiqish va tahlil qilishni o‘z ichiga olgan rasmiy va tizimli bashorat qilish mashqlari tobora muhim rol o‘ynashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Petit Jean, M., & Brunet, S. (2017). On the philosophical fundation of futures research. En Does anticipation matter for public administration? The case of the Walloon Region (Belgium). *Foresight*, 19(3), 280-290. Doi: 10.1108/FS-10-2016-0049].
2. Gonz‘lez, F., y V‘ttimo, S. (2012). Procesos de inteligencia colectiva y colaborativa en el marco de tecnolog‘as web 2.0: conceptos, problemas y aplicaciones. *Anuario de Investigaciones*, XIX, 273-281. Argentina: Universidad de Buenos Aires.]
3. Medina, J., y Orteg‘n, E. (2006). Manual de prospectiva y decisi‘n estrat‘gica: bases te‘ricas e instrumentos para Am‘rica Latina y el Caribe (Manual 51). Santiago de Chile, Chile: Ilpes-Cepal-ONU.
4. Popper, R. (2011). Metodolog‘a de la prospectiva (pp. 85-138). En L. Georghiou, J., Cassingena Harper, M., Keenan, I., Miles, y R. Popper, *Manual de Prospectiva Tecnol‘gica. Conceptos y pr‘ctica*. M‘xico: Flasco
5. Popper, R., Georghiou, L., Keenan, M., y Miles, I., (2010). Evaluating Foresight: Fully-Fledged Evaluation of the Colombian Technology Foresight Programme (CTFP). Cali, Colombia: Universidad del Valle. Retrieved from <http://community.iknowfutures.eu/pg/file/popper/view/2204/evaluating-foresight-fullyfledged-evaluation-of-ctfp>.
6. Shuff, P. V., y Gonz‘lez, L. (2018). La vinculaci‘n entre los estudios prospectivos y el proceso de elaboraci‘n de pol‘ticas p‘blicas. *Aprendizajes del ejercicio CNIA-INTA. Revista de Estudios Pol‘ticos y Estrat‘gicos*, 6(1), 32-47.
7. <https://www.adlittle.com/en/insights/viewpoints/technology-foresight-anticipating-future-impact>.



YUNOGOGIKA – UZLUKSIZ TA'LIM PEDAGOGIKASINING MUSTAQIL SOHASI SIFATIDA

X.M. TOJIBOYEVA,

*O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
direktor o'rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor*

Ushbu maqolada pedagogikaning yoshlar ijtimoiy rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlashni o'rganadigan, yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyalari va usullarini ishlab chiqadigan sohasi – yunogogika haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, pedagogikaning ushbu sohasi o'smirlarga shaxsiy o'zini o'zi belgilash va uning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirish, o'g'il va qizlarni ijtimoiylashtirish va tarbiyalash jarayonlariga xizmat qilishi bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: yunogogika, pedagogika, androgogika, yoshlar, ijtimoiy qatlam, o'smirlilik, madaniy dunyoqarash, ijtimoiy rollar, faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini ijtimoiy baholash.

В данной статье рассматривается область педагогики, изучающая педагогическое обеспечение социального развития молодежи, разрабатывающая педагогические технологии и методы педагогического воздействия на молодежь - юногогика. Также констатируется, что данное направление педагогики обслуживает процессы личностного самоопределения и формирования у него социально ориентированного мышления, социализации и воспитания юношей и девушек.

Ключевые слова: юногогика, педагогика, андрогогика, молодежь, социальный слой, подростковый возраст, культурное мировоззрение, социальные роли, активность, саморазвитие, самосоциальная оценка.

This article discusses the area of pedagogy that studies the pedagogical support for the social development of youth, develops pedagogical technologies and methods of pedagogical influence on young people - junogogy. It is also stated that this direction of pedagogy serves the processes of personal self-determination and the formation of his socially oriented thinking, socialization and education of boys and girls.

Key words: junogogy, pedagogy, andragogy, youth, social stratum, adolescence, cultural outlook, social roles, activity, self-development, self-social assessment.

Xalqimizning milliy o'zligini tiklash, yosh avlodni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, jadidlar va ajdodlarimizning milliy tarbiya tajribasi namunalarini saqlash va asrab-avaylash hamda bugungi kunda Yangi O'zbekistonning yangi avlodlarini eng zamonaviy kompetensiyalar asosida tarbiyalash ustuvor maqsad etib belgilangan.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya sifati jarayonlarini



takomillashtirish va o'quvchi yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirish va ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha yoshlar tarbiyasi va ta'limi sohasida milliy tadqiqotlarni amalga oshirish, ta'lim va tarbiya mazmunini prognozlash va uni rivojlantirish strategiyalarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish ehtiyoji ortib bormoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda milliy ta'lim-tarbiya sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, maktab o'qituvchilarining tarbiyaga oid kompetentligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoni metodik ta'minotini takomillashtirish, ta'lim oluvchilar hamda ota-onalarda ma'naviy-axloqiy, tarbiyaga oid dunyoqarashni rivojlantirishning yangi pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning jamiyatga moslashuvi va integratsiyasi, jamiyatda ijtimoiy pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu sababli, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimida tarbiyaviy ish jarayonlarini modernizatsiyalashning nazariy-metodik ta'minotini yaratishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda.

O'zbekistonda milliy ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, mahalla, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, professional va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Jamiyatda o'z o'rini topishga intilish, o'z rollarini to'g'ri bajarishga harakat qilish, o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yish, yoshlarning madaniy dunyoqarashi qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Aniq madaniy dunyoqarashga ega bo'lgan, turli ijtimoiy xodisalarning ijobiy va salbiy oqibatlarini haqida to'g'ri tasavvur hosil qila oladigan yoshlarga o'z hayot yo'llarini aniq belgilab olishga harakat qiladilar. Yoshlarga nisbatan madaniy tajovuzlar ta'lim muassasasi, jamiyat va oilada ularning bajaradigan rollarini to'g'ri belgilab bermaslik natijasida vujudga keladi.

XX asrning oxirgi yillarida androgogikaning rivojlanishi munosabati bilan bir qator nashrlarda «yunogogika» fanini yaratish g'oyasi bildirildi. Pedagogikaning ushbu sohasi o'smirlilik davridagi shaxsga shaxsiy o'zini o'zi belgilash va uning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirish jarayonida pedagogik ta'simi o'rganish uchun mo'ljallangan, shuningdek, o'g'il va qizlarni ijtimoiylashtirish va tarbiyalash jarayonlariga xizmat qiladi.



Shunday qilib, 20-asrning oxirida pedagogikaning «yunogogika» deb nomlanishi mumkin bo'lgan yangi sohasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar paydo bo'ldi. Yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish XXI asrning boshida respublikasizning bir qator oliy o'quv yurtlarida «Yoshlar bilan ishlashni tashkil etish» ixtisosligi bo'yicha talabalar tayyorlana boshlaganida alohida ahamiyat kasb etdi.

Yunogogika – pedagogikaning yoshlar ijtimoiy rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlashni o'rganadigan, yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyalari va usullarini ishlab chiqadigan sohasi bo'lib, uning obyekti – yetarli ijtimoiy tajribasi va jismoniy rivojlanishi uchun yoshlarga maqsadli ta'sir qilish jarayonini o'rganishdan iborat.

Yunogogika fanining obyektini ko'rib chiqish bilan bog'liq holda, yoshlarning yosh chegaralarini aniqlash zarurati tug'iladi. Umuman olganda, yoshlarni 14-15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan odamlar deyishimiz mumkin. Shu bilan birga, bu yosh davri o'zgaruvchan bo'lib, olimlar tomonidan turli bosqichlarga bo'linadi[1].

Yunogogika yoshlar bilan maxsus tashkil etilgan ish jarayonida ularning ijtimoiy yetukligi davrida ularga pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalarini qidiradi. Ushbu faoliyatning subyektlari yoshlar bilan ishlashning professional va nonprofessional tashkilotchilaridir.

Yunogogika fanining predmeti 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni munosib rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy pedagogik faoliyatdir. Yunogogikaning nazariy vazifasi quyidagi darajalarda amalga oshiriladi:

– yoshlar faoliyatini tashkil etish tajribasini o'rganish va yoshlar muhitidagi pedagogik jarayonlarning holati va natijalarini diagnostika qilish;

– yoshlar faoliyatining holati va tekshiruvni diagnostika qilish;

– yoshlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini prognostik o'rganish[2].

Yunogogikaning texnologik funksiyalari quyidagilardan iborat:

– yoshlar mehnatini tashkil etish bo'yicha uslubiy materiallarni ishlab chiqish;

– pedagogika fanining yutuqlarini yoshlar bilan ishlash amaliyotiga joriy etish;

– ilmiy tadqiqot natijalarining yoshlar bilan ishlashni tashkil etishga ta'sirini baholash va nazariya va amaliyot o'rtasidagi o'zaro aloqani mos ravishda tuzatish.

Yunogogika yoshlar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy parametrlarini belgilaydi. Ushbu parametrlarning asoslari mazkur faoliyatni tashkil etish prinsiplari hisoblanadi. Prinsiplarning mazmuni ushbu jarayonga qo'yiladigan



shakllantirilgan talablarda, shuningdek, ulardan kelib chiqadigan shartlar va qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Pedagogikaning bir tarmog'i sifatida yunogogika faniga oid paydo bo'layotgan ilmiy bilimlar yanada chuqur mulohaza yuritish va rivojlantirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, ushbu soha bilan akmeologiya, ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish pedagogikasi o'rtasidagi sezilarli bog'liqlikni ta'kidlash kerak.

Yoshlar – keng ma'noda, yosh xususiyatlari va ular bilan bog'liq asosiy faoliyatlar asosida shakllanadigan guruh jamoalarining keng majmui. Torroq sotsiologik ma'noda yoshlar ijtimoiy-demografik guruh bo'lib, yoshlarning ijtimoiy mavqeining yoshga bog'liq xususiyatlari, jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi o'rni va vazifalari, o'ziga xos manfaat va qadriyatlari asosida ajralib turadi.

Yoshlar zamonaviy jamiyat tarkibida muhim o'rin tutadi (ikkinchisi elementlar o'rtasidagi aloqalar tizimi sifatida tushuniladi), chunki u jamiyatdagi muayyan maqom va rollarning tashuvchisi, uning hayotida faol ishtirok etadi. Biroq, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar mavjudligida namoyon bo'ladigan yosh va u bilan bog'liq «o'tish qobiliyati» ushbu ijtimoiy-demografik guruhning jamiyatdagi mavqeining murakkabligini aniqlaydi:

– birinchidan, ota-onalarga va kattalarga qaramlik yoshlarning katta qismi o'rtasida ishonchsizlik va muvaffaqiyatsizlik hissini keltirib chiqaradi;

– ikkinchidan, hayotiy qarorlar qabul qilishda mustaqillikning yo'qligi ko'pincha yoshlarning ichki noroziligini, tanlov va o'z taqdirini o'zi belgilash masalalarida o'z xohishi bilan emas, balki boshqa birovning irodasi bilan cheklanishiga rozi bo'lmasligini shakllantiradi, agar bu iroda yoshlarning ehtiyojlari va manfaatlariga mos kelmasa ham hisobga olishga majbur bo'ladilar;

– uchinchidan, jamiyat tomonidan tengsiz, ijtimoiy jihatdan etuk bo'lmagan, past guruh sifatida yoshlarga bo'lgan munosabat yoshlar ongida ijtimoiy adolatsizlik, huquqbuzarlik hissini kuchaytiradi, ularning past ijtimoiy mavqeini belgilaydi.

Natijada, yosh avlod jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilishdan chetda qoladi, bu muammolarni hal qilish uchun mustaqil faoliyat ko'nikmalariga ega emas. Shu bilan birga, aynan yoshlik davrida o'z-o'zini anglash zarurati ayniqsa aniq namoyon bo'ladi. Ushbu ehtiyoj va uni amalga oshirish imkoniyatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi, bu esa, o'z navbatida, bir qator boshqa qarama-qarshiliklarni belgilaydi: axloqiy ong va xatti-harakatlar, niyatlar, motivlar va yoshlarning harakatlari.



Darhaqiqat, yoshlar – jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli vorislaridir. Har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o‘y-fikri, ma‘naviy qiyofasiga qarab o‘sha jamiyatning ertangi kunini tasavvur etish mumkin. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma‘lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta‘lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e‘tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma‘noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi[3].

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun[5] ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat‘iy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Тесленко А. Н. Юногика интегративное направление научно-педагогического осмысления феномена молодежи // Вестник АПН Казахстана. 2016. №5. С. 19-28.

2. Рожков М.И. Социально-педагогическое сопровождение личности в процессе самоорганизации детей и молодежи // <https://cyberleninka.ru>

3. <https://strategy.uz/index.php?news=615>

4. O‘zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentabrdagi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan. - AQSh, 2017.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni. <https://lex.uz>



GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARNING MA'NAViy-AXLOQiy SIFATLARINI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHLTLARI

O.X.MAMATQULOVA,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktranti

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida o'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirishning pedagogik jihatlari va buning bugungi kun uchun ahamiyati bayon etilgan, shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan tegishli xulosalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, ta'lim, tarbiya, yoshlar, o'smir, o'quvchi, komil inson, ma'naviyat, axloq, hadis, diagnostik baholash, jamiyat, davlat.

Данной статье описаны педагогические аспекты непрерывного развития духовно-нравственных качеств школьников-подростков в условиях глобализации и ее значимости на сегодняшний день, а также сделаны соответствующие выводы по данной теме.

Ключевые слова: глобализация, образование, воспитание, молодежь, подросток, студент, совершенный человек, духовность, мораль, хадис, диагностическая оценка, общество, государство.

This article describes the pedagogical aspects of the continuous development of the spiritual and moral qualities of adolescent students in the context of globalization and its importance for today, as well as draws relevant conclusions on this topic.

Key words: globalization, education, upbringing, youth, teenager, student, perfect person, spirituality, morality, hadith, diagnostic evaluation, society, state.

Dunyoda globallashuv jarayonining jadallashuvi, o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga mos ravishda shaxsni tarbiyalash va unga ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish tizimini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojning yanada ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Bejizga, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi globallashuv jarayonini quyidagicha ta'riflamagan edi:

«Globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon.

Globallashuv – jahonning gomogollashuvi va universallashuvi jarayoni

Globallashuv – milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni».

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishning yaxlit tizimini yaratish, yoshlarni axloqiy va estetik jihatdan barkamol inson etib tarbiyalashning tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqiy jihatlarni takomillashtirish, mazkur yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda



xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini samarali yo'lga qo'yishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan. Bu ustuvor vazifalar esa bevosita mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Barchamizga ma'lumki, har qanday davlatning taraqqiyoti, uning jahon miqyosida o'z o'rni va mavqeyiga ega bo'lishi bevosita shu davlatning kelajagi bo'lmish yosh avlodning bilimi va tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli ham insoniyat paydo bo'libdiki, eng dolzarb vazifa – yoshlar tarbiyasi masalasi bo'lib kelgan. Barcha alloma, mutafakkirlar, millatning ziyolilari jamiyat rivoji, mamlakat farovonligi, tinchlig-u xotirjamligini yoshlar tarbiyasi bilan bog'laganlar. Bu bejiz emas. Qayerda tarbiya masalasini ta'lim bilan, milliy qadriyat, an'analar, mentalitet bilan uzviy bog'liqlikda hal etishga harakat qilingan bo'lsa, o'sha joyda rivojlanish, taraqqiyot bo'lgan. Yoshlar ta'lim-tarbiyasiga e'tiborizlik qilgan joyda esa, inqirozlar, milliy o'pirilishlar sodir bo'lgan. Komil inson tarbiyasi hamma davrlarda muhim ijtimoiy vazifa hisoblanib, yaxshi tarbiyali insonga jamiyat boyligi deb qaralgan. Inson ziynati u egallagan bilimlari bilan o'lchangan. Islom dini ta'limotida bilimli insonlar etuk deb sanalsa, mutafakkirlarimiz qarashlarida komil inson bo'lish uchun ko'pgina xususiyatlarni egallash lozimligi o'z aksini topganini ko'rishimiz mumkin.

Muqaddas hadislarda tarbiya, odob-axloq, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof, vatanparvarlik, mehnatsevarlikni targ'ib qilingan. Tarbiyaning maqsadi – yoshlarning avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy, diniy qadriyatlarga yo'g'rilgan, ruhan sog'lom, jismonan baquvvat, ma'nan pokiza tarbiya topib, komil inson bo'lib shakllantirishdir.

Ma'naviy meroslarning moddiy qadriyatlar bilan hamohang rivojlanishi juda ko'p mutafakkirlarning tarixiy va adabiy asarlarida yuksak mahorat ila bitilgan, hamda jahonning madaniyat xazinasiga abadiy hissa bo'lib qo'shilgan. Turli ijtimoiy-iqtisodiy davrlarda yaratilgan hadis, pandnoma, rivoyat, hikoyat doston, maqol, g'azal, ruboiy, masnaviy va boshqa ko'rinishlarda ta'lim-tarbiya va kasb-



hunar o'rganishning afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to'g'risidagi fikrlar bizning davrimizgacha etib kelgan.

Vatanimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining «Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz» nomli asarida quyidagi so'zlarni keltirib o'tadi: «Ijtimoiy-ma'naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q. Chunki, aynan shu masalalar bizning bugungi kunimizni, farzandlarimiz, nabiralarimiz taqdirini va kelajagini, bir so'z bilan aytganda, hayot-mamotimizni hal qilishi hech kimga sir emas»[1].

Hozirgi davrda jahonda globallashuv jarayonlarini kundalik hayotimizga tez sur'atlar bilan hamma sohalarida kirib kelishi ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy tarqqiyotimizda davlatlar, mintaqalararo bog'lanishimizda ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsada, lekin ikkinchi tomondan bu jarayon hozirgi sharoitda mafkuraviy ta'sir ko'rsatishning o'tkir quroliga aylanib bormoqda. Bu esa G'arbdagi har xil siyosiy kuchlarning manfaatiga xizmat qilib «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy behayollik, o'zini boshqalardan yuqori qo'yish, o'ta ketgan xudbinlik g'oyalarini tarqatishni maqsad qilib, boshqa xalqlarning shu jumladan, o'zbek xalqining ham ming yillik ma'naviy-ma'daniy va diniy qadriyatlariga bepisandlik qilib, ulardan voz kechishga undamoqda.

Hozirgi vaqtgacha bizning zaminimizda tug'ilib o'sgan, jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan ulug' mutafakkir allomalarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshbandiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Burxoniddin Marg'inoniy, Ahmad Farg'oniy va ko'plab buyuk ajdodlarimiz qoldirgan meros bugun ham dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Bilamizki, har qanday binoning mustahkam bo'lishi uning asosining, ya'ni fundamentining qanchalik pishiq bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Xuddi shuningdek, yoshlar tarbiyasini ham uning ilk katta hayotga qadam bosishidan – o'smirlik davridan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'smirlik davri inson hayotidagi eng muhim va eng qiyin davrlaridan biri sanaladi. Zotan, bolaning o'smirligida uning tarbiyasiga alohida e'tibor qilinmasa, muayyan vaqt o'tganidan so'ng uning axloqida kamchiliklar kuzatilishi va ushbu kamchiliklarni tuzatish keyinchalik qiyin bo'lishi mumkin. Bejizga xalqimizda: «Kasalni davolagan emas, uning oldini olgan ma'qul» degan naql paydo bo'lmagan.



O'smirlik yillari – ota-onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr. Bu yoshda farzandlar o'z fikrini eng to'g'ri deb hisoblashadi. Ota-onalar ham kichikintoy deb hisoblab yurgan bolasining endi o'z fikrini, o'z qarashlarini ayon qilishlarini qabul qilishlari qiyin bo'ladi. Ayniqsa, faqat bolasining g'amida yashaydigan onalarda bu jarayon qiyin kechadi. Bunda ular o'zlarini xuddi endi bolasiga keraksiz bo'lib qolganday his qilishlari mumkin. Bolalar ham o'zlarini aqlan katta bo'lganday his qilishsa-da, moddiy va jismoniy jihatdan ota-onaga tobe bo'lib qolaveradi. Barcha tushunmovchiliklar shundan kelib chiqadi.

O'smir bolalar uchun o'zidan boshqa hamma nohaq. Agar ota-onasi tomonidan uning fikri rad etilsa, bola bu fikrda yanayam qat'iyilashadi. Bunday vaziyatda ota-onalar uning fikrini hurmat qilishlarini sezdirishlari va shuning barobarida o'ylagan qarorlarining natijasi haqida maslahatlashishlari kerak bo'ladi. Bunda bolaga savollar berish orqali uni o'ylashga undab, to'g'ri qaror chiqarish imkoniyatini berish lozim. Har bir ota-ona farzandini turli muammolardan himoya qilishni istaydi. Ammo o'smir yoshda bola o'qishi, maktabi, baholari bilan bog'liq qarorlar qilishi va shu qarorlarining natijasiga javob berishni o'rganadi. Shu joyda ularga erkinlik berilmasa, katta hayotda ham doimo ularni kimdir boshqarishi kerak bo'ladi. Ayni shuning uchun ham milliy-madaniy yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostik baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, bugungi kunda jahon miqyosida turli ko'rinishdagi ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan bir davrda milliy-madaniy yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Milliy-madaniy yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish o'quv jarayonini tashkil etishni quyidagi jihatlar bilan tavsiflash mumkin:

– ushbu yondashuv milliy-madaniy an'analarga asoslanadi. Ular ta'lim jarayonining mazmunini belgilaydi, u mintaqada yashovchi ma'lum bir xalqning milliy-madaniy me'yorlari, qadriyatlarini va uning mentalitetini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;

– milliy-madaniy yondashuv o'quv jarayonini o'smir yoshdagi o'quvchilar hayotiga yaqinlashtirishga, ularni bir-biri bilan chambarchas bog'langan va o'zaro ta'sir qiluvchi tarkibiy qismlarga aylantirishga yordam beradi;

– ta'lim tizimida o'smir yoshdagi o'quvchilarning milliy o'ziga xosligi, diniy



e'tiqodi, tarixiy merosi hisobga olinishi asosiy mezon hisoblanadi;

– tarbiyaviy faoliyatda oila tajribasi va o'quvchining ijtimoiy-madaniy merosidan foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi;

– o'quv jarayoni o'quvchining madaniy o'ziga xosligi, oilaviy qadriyatlari, turmush tarzi, an'ana va urf-odatlar bilan tanishishiga asoslangan holda ularning kognitiv qiziqishni faollashtiradi va uningning ta'lim faoliyatini hissiy idrok etishiga turtki bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy-madaniy yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda madaniy meros, milliy an'analar, etnik o'ziga xoslik va ijtimoiy-pedagogik merosni integratsiyalash, ularning uzviyligi va o'zaro bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ta'lim mazmuni ma'naviy xususiyatlar va faoliyat uchun axloqiy ko'rsatmalar bilan ta'minlangan madaniy shaxsni rivojlantirishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M.: «Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz». 2019y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947 Farmoni. 2017-yil 7-fevral. T.: «Adolat». 2017-yil. 112 bet.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida so'zlagan nutqi// Xalq so'zi, 2018-yil, 29-dekabr.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat. 2008. 113-bet.

5. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. - T.: Ma'naviyat, 2006. 8-b.

6. M.Aminova, M. Ro'ziqulova. Globallashuv asoslari. -T.: «Fan va texnologiya», 2016, 6-bet.

7. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: Muharrir nashriyoti, 2009. 64 b.

8. Данилов-Данилян В.И. Устойчивое развитие-проблема выживания человека//.Наука.Общество.Человек.-М.,2004. -143 с.



HUQUQBUZARLIK SODIR ETISHGA MOYILLIGI BO'LGAN O'QUVCHILARGA UZVIY TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

X.O.PARDAYEV,

*O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi*

Ushbu maqolada huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilarga ta'sir etuvchi omillar, salbiy xususiyatlarni bartaraf etish yo'llari bayon qilingan.

***Tayanch so'zlar:** huquqbuzarlik, o'smir shaxsi, ta'sir etuvchi omillar, salbiy xususiyatlar, ahloqiy hislar, tarbiyaviy chora-tadbirlar, irodaning zaifligi, oilaviy nizolar.*

В данной статье описаны факторы, влияющие на студентов со склонностью к совершению преступлений, и способы устранения отрицательных характеристик.

***Ключевые слова:** делинквентность, личность подростка, факторы воздействия, негативные характеристики, моральные чувства, воспитательные меры, слабоволие, семейные конфликты.*

This article describes the factors that affect students with a tendency to commit crimes, and ways to eliminate negative characteristics.

***Key words:** delinquency, adolescent personality, influencing factors, negative characteristics, moral feelings, educational measures, weak will, family conflicts.*

Hozirgi kunda olimlar tomonidan ta'lim va tarbiya yo'nalishidagi o'quv darsliklar, metodik qo'llanmalar, monografiya, dars ishlanmalar va test topshiriqlarining yangi zamonaviy usullari yaratilib, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi va o'qituvchi faoliyatini yaxshilash, o'quvchilardagi salbiy xususiyatlarni bartaraf etishda qo'l kelmoqda va maktab psixologlari va sinf rahbarlari uchun metodik yordam bo'lib hizmat qilmoqda.

Yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish hisoblangan o'smirlilik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlilik davrini o'tish davri deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. U psixik jarayonlarning, o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlilik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarni ta'lim-tarbiya berish ishlarida goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik



rivojlanishi qonuniyatlari va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning katta odamga aylanish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda xayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Agar bolani bolalik chog'ida unga odob-ahloq o'rgatishni eski shakl va usullaridan foydalanilgan bo'lsa, endi ular bola uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Avval bolalar ota-onalari, tarbiyachilarning ahloq-odob haqidagi gaplarini bajonidil eshitgan bo'lsalar, endilikda bunday ta'sir bolani zeriktiradi yoki yoqmay qoladi. Natijada, undan kattalarning fikrlariga qarshi chiqish yoki rad etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Bular esa bu davrning «qiyin», «murakkab» davr bo'lishiga sabab bo'ladi[1].

O'smirlarga ta'lim-tarbiya berishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, bunda o'smir bilan bo'ladigan munosabatlarda uning hayoti va faoliyatini nazorat qilish shakllarini o'zgartirish muhimdir. Ularga ta'sir qilishning qandaydir yangi usullari va vositalarini topish lozim bo'ladi. Bunda albatta, xar bir yosh bilan alohida munosabatda bo'lish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar ularning faoliyatlari tug'dirgan yangi ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir; bu qarama-qarshiliklar o'smirlarning ortib borayotgan jismoniy, intellektual va ahloqiy imkoniyatlari bilan ularning eski, ilgari tarkib topgan olam bilan o'zaro munosabat shakllari, ular faoliyatining eski qarama-qarshiliklar, jamiyat, kattalar va jamoa tomonidan o'smirlarga nisbatan ortib borayotgan talablar bilan o'smirlar real xatti-harakatlarning shakllari o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Bu qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotni, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning kator yangi psixologik sifatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Buning natijasida o'smirlarning psixik taraqqiyotining yanada yuksakroq bosqichga o'tishi amalga oshiriladi[2].

Yoshlarda nojo'ya xatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va turtkilari xar xildir. Qonunni buzishni yoki qoidaga xilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoidabuzar guruhlarga ajratiladi.

Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi qiyinlarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklar,



irodaning bo'shligi, aql-idrokning zaif rivojlangani, hissiyotning kuchsizligi zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o'smirming intilishi bilan mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik kabi xatti-harakatlarni izdan chiqaradi.

Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar: ahloqiy hisslarning yetishmasligi; o'qituvchi, sinf jamoasi, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot; ishyoqmaslik; bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik va boshqalar salbiy holatlarni vujudga keltiradi.

Shuningdek, shaxsning o'quv faoliyatidagi kamchiliklari:

- 1) aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmasklik;
- 2) bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlari;

Maktab faoliyatidagi:

- 3) o'qitishdagi nuqsonlar

- 4) tarbiyaviy chora-tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi.

Maktabdan tashqari muhitni ta'siridagi nuqsonlar, chunonchi oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, otanoning ichkilikka berilishi, balog'atga yetmagan tengqurlarining ta'siri, ma'naviy-ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar tarbiyasi qiyin o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi[3].

O'smirlarning tipologik xususiyatlariga qarab ularni bir necha shartli guruhlarga ajratish mumkin.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'smirlarning birinchi guruhi o'z xatolarini bilib turib qonun va qoidalarini buzadilar, noma'qul ishlarni qiladilar. O'zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar. Lekin yutuqlarini e'tirof qilinishini xohlaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga ma'qullashini va o'z talablarini o'z galar so'zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Ular betgachopar, o'jar, raxm-shafqatsiz, «zo'rvon» bo'ladi.

Mustaqil fikrga ega bo'lgan tengdoshlarini o'z atroflariga to'playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.

Ikkinchi guruhga mansub huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadiganlar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror yuksak xis-tuyg'uga ega emasliklari sababli «orqa qanot»da turib qoidani buzadilar. Ularning xatti-harakatlari tasodifiy voqelikka, ta'sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog'liqdir. Ular tashviqotga tez beriladiganlar, barcha narsalarga ishonadilar, qaysi yo'lga kirib qolganliklarini anglab yetadilar, biroq «kompaniya» fikriga qarshi borishga botina olmay ko'ngilsiz ishlarga qo'l uradilar. Ko'pincha



tartibbuzarlar qilmishlariga tavba qilib, sinf jamoasi a'zolarini ishontiradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan so'ng bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruhga mansub huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'lga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday nojo'ya xatti-harakatlardan qaytmaydilar, o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yuqori qo'yadilar. O'zlarining hoxishlarini ta'qiqlangan usullar bilan amalga oshiradilar, so'ng qilmishlariga afsus-nadomat chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kechinmalarni tez unutadilar.

Ularning shaxsiy ehtiyojlari xar qanday yuksak hislardan, xoxishlardan ustun turadi. Ahloqqa xilof xatti-harakatlar achinish xissi tarzida namoyon bo'ladi.

Injiq tabiatli qiyin tarbiyalanuvchilar jamoa va guruhlarda o'z o'rinlarini topa olmaydilar, ular arazchan, ginahon bo'lib o'z guruh va jamoalariga qo'shilib ketavermaydilar, tortinib o'zlarini kamsitilgandek xis qiladilar. Ular ham huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan tarbiyalanuvchi yoshlarning bir turidir. Jamoa o'rtasida obro' qozonishni, xurmatga sazovor bo'lishni juda hoxlaydilar. Lekin ulardagi tushkunlik kayfiyati, umidsizlik, o'z imkoniyati, aqliy quvvatga ishonchsizlik bunga imkon bermaydi. Ular maktab, sinf jamoasining qoida va qonunlarini buzishga xarakat qilmasalar ham, lekin bu jamoaning ish faoliyati va muvaffaqiyatida, ta'lim-tarbiya jarayonida yetarlicha qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadilar, jamoa ishini orqaga suradilar va jamoa ko'zlagan maqsadni amalga oshirishda qiyinchilik tug'diradilar.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilarni vujudga kelishiga sabablar majmuasiga quyidagilar kiradi.

1. Shaxsning biologik nuqsonlari: sezgi organlaridagi kamchiliklar; o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlarining mavjudligi;

2. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar: aqlning bo'sh o'sganligi; irodaning zaifligi; xissiyotning kam rivojlanganligi; zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi; o'smirdagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi.

3. Shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar: ahloqiy xislatlarida uchraydigan kamchilik; o'smirming o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar; mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar; bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar; ijtimoiy muhit, oilaviy sharoitdagi ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlar.

4. Shaxsni bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari: bilimlar, maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi o'zgarishlar; ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarning yetishmasligi.



5. Maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchilik:

a) ta'lim jarayonida bilimlar va xatti-harakatlarni adolatsiz baholash, darslik va o'quv qo'llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda qoldirish va x.k.

b) maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar (o'qituvchining o'smiringa xayrixox emasligi, o'quvchining yakkalanishi, o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik, o'z o'rini topa olmaslik).

6. Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar: oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi; oilaning buzilishi va oilaviy nizolar; ota-ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi; oila a'zolari o'rtasida sudlangan odamning uchrashi; tengqurlarning salbiy ishlariga (xaqorat qilish, ichish, chekish, qo'li egrilikka) o'rgatish va x.k.; madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari (e'tiborsizlik va loqaydliklari).

Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda tarbiya berishning maxsus sharoitlarini aniqlash muhimdir. Ular bilan duch kelgan vaqtda yoki xar doim emas, balki, qulay sharoit kelib qolganda ish olib borilsa, ya'ni tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilsa, u ko'proq natija beradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Umarov B. Bolalar tarbiyasi buzilishi va uning oldini olish yuzasidan ota-onalarga maslahatlar /Uslubiy qo'llanma/. - Toshkent, 2012. -76 b.

2. Asadov Yu.M., Musurmanov R. O'smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. O'quv-metodik qo'llanma //T.: «Sano standart» 2011.

3. Abdullayeva Sh.A. O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash. Diss...p.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati.-T.; 2005.-32b.



INKLUZIV MUHITDA KASBIY FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA UMUMTA'LIM MUASSASALARINING O'QITUVCHILARINI IJTIMOY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINING MOHIYATI

M.UMARALIYEVA,

*O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
bo'lim mudiri, katta ilmiy xodim*

Maqolada pedagoglarni inklyuziv muhitda o'quv jarayonining malakali ishtirokchisi bo'lishi, o'quvchilar jamoasining turli a'zolari, o'quvchilarning ijtimoiy guruhlari, ularning ota-onalari, hamkasblari, jamoat tashkilotlari bilan malakali kasbiy faoliyat olib borishi lozim. Shu sababli, umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarini inklyuziv muhitda ishlashga kasbiy tayyorgarligi uning uchun ijtimoiy-pedagogik kompetensiyani shakllantirishni o'z ichiga olishi lozim.

Tayanch so'zlar. *Pedagoglar, inklyuziv ta'lim, kompetentlik, boshlang'ich sinf, ilmiy ishlanmalar, xarakteristika.*

В статье отмечается, что преподаватели должны быть квалифицированными участниками образовательного процесса в инклюзивной среде, осуществлять квалифицированную профессиональную деятельность с различными членами студенческого сообщества, социальными группами учащихся, их родителями, коллегами и общественными организациями. Следовательно, профессиональная подготовка учителя общего среднего образования к работе в инклюзивной среде должна включать формирование его социально-педагогической компетентности.

Ключевые слова. *Педагоги, инклюзивное образование, компетентность, начальная школа, научные разработки, характеристика.*

The article notes that teachers should be qualified participants in the educational process in an inclusive environment, carry out qualified professional activities with various members of the student body, social groups of students, their parents, colleagues, and public organizations. Therefore, the professional training of a teacher of general secondary education to work in an inclusive environment should include the formation of his socio-pedagogical competence.

Key words. *Teachers, inclusive education, competence, primary school, scientific developments, characteristics.*

Kompetensiya ko'p qirrali tushunchadir. Olimlar «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini turlicha izohlaydilar. Mashhur olimlar M. Grineva, M. Yevtukh, Y. Rashkevich, S. Sysoeva, L. Xomich, A. Xutorskiy va boshqalarning asarlari bu tushunchalarni farqlashga bag'ishlangan. Bizning e'tiborimiz universitet



bitiruvchilari (I. Zimnyaya), pedagogika oliy o'quv yurtlari va kollejlarda talabalari (O. Spirin), iqtisodiy profildagi oliy o'quv yurti talabalari (I. Zarubinska) ning kompetensiyasini o'rganishga qaratiladi). Kasbiy kompetensiyani o'rganish jarayonida E. Bondarevska, N. Kuzmina, L. Mitina va boshqalar uni madaniyat bilan bog'lab, kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi subyektiv shaxs fazilatlarini sifatida belgiladilar. Mahalliy olimlarning zamonaviy fundamental psixologik-pedagogik ilmiy ishlanmalarida pedagogik kompetensiyani kasbiy-pedagogik tayyorgarlik samaradorligini belgilovchi shaxs sifatlarini majmui sifatida o'rganishga katta e'tibor qaratilgan (V. Bezduxov, Yu. Vardanyan, G. yelnikova, L. Kalinina, O. Kasyanova, V. Motorina, G. Ponomaryova, A. Xarkovskaya, L. Xoruja); umumiy pedagogik tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi (O. Abdulina, V. Bilozershev, O. Moroz, G. Ponomaryova, R. Skulskiy va boshqalar).

Biz, avvalo, inklyuziv ta'limni joriy etish va, albatta, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi nuqtayi nazaridan «kompetentlik» tushunchasini tahlil qilishni zarur deb bilamiz. Milliy malaka doirasi tomonidan berilgan ta'riflarga asoslanib, «kompetentlik» – bu shaxsning bilim, tushuncha, ko'nikma, qadriyatlar va boshqa shaxsiy fazilatlarini orqali namoyon bo'ladigan muayyan faoliyat turini amalga oshirish qobiliyatidir». Kompetensiya – bu shaxs fazilatlarining yaxlit xarakteristikasi, oliy pedagogik ta'lim muassasasi bitiruvchisini muayyan kasbiy va ijtimoiy shaxsiy fanlar (kompetensiyalar) bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash natijasi bo'lib, u ma'lum bir faoliyat turidagi bilim va tajribaning zarur hajmi va darajasi bilan belgilanadi.

Xususan, A. Xutorskiy «kompetentlik» tushunchasiga ta'rif berishda uni shaxsning tegishli kompetensiyaga ega bo'lishi deb hisoblaydi. I. Zimnyaya kompetensiyalarni inson kompetensiyalarida namoyon bo'ladigan ba'zi ichki, potensial, yashirin psixologik neoplazmalar (bilimlar, g'oyalar, harakatlar dasturlari (algoritm), qadriyatlar va munosabatlar tizimi) sifatida izohlaydi va asosiy kompetensiyalarni guruhlariga ajratadi. Birinchi guruhga faoliyat va muloqot subyektini sifatida shaxsga tegishli bo'lgan vakolatlar (sog'liqlikni saqlash, dunyoda qimmatli va mazmunli yo'nalish, integratsiya, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tartibga solish, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy va obyektiv aks ettirish) kiradi. Ikkinchi guruh – bu shaxs va ijtimoiy soha o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilovchi kompetensiyalar (jamiyat, jamoa, do'stlar, sheriklar bilan ijtimoiy o'zaro munosabat, ijtimoiy harakatchanlik, kommunikativ kompetensiyalar). Uchinchi guruh – inson faoliyati bilan bog'liq kompetensiyalar (kognitiv, ta'lim, o'yin, mehnat, axborot texnologiyalari).



Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki «kompetentlik» shaxsning shaxsiy va baholovchi xususiyati bo‘lib, kompetensiya tarkibini (nazariy bilim; qobiliyat va ko‘nikmalar; shaxs xususiyatlari, sifatlari, tajribasi va xatti-harakati; motivlar, qadriyatlar, ideallar; o‘zlashtirishga tayyorlik va qobiliyat) belgilaydi. Faoliyatning ayrim turlari va uzluksiz ta‘lim va boshqalar) dinamik va statik (nazariy bilimlarning mavjud darajasi, birlamchi malakalar sifatida) komponentlar majmui sifatida.

O. Savchenkoning kompetensiya talqini bizda katta taassurot qoldirdi, uning ta‘kidlashicha, u shaxsning o‘quv jarayonida egallangan yaxlit qobiliyatidir va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: bilim, qobiliyat, ko‘nikma, tajriba, qadriyatlar va ajralmas bo‘lishi mumkin bo‘lgan munosabatlar. Amalda amalga oshiriladi, shuning uchun kompetensiyani faqat faktik bilimlar bilan umumlashtirib bo‘lmaydi.

Ko‘rinib turibdiki, «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari noaniq talqin qilinadi, lug‘atlarda ularning iqtiboslari bir-biriga to‘liq mos kelmaydi, hatto turlicha keltiriladi: ba‘zi olimlar ularni bir xil ma‘noda ishlatsa, boshqalari – kompetensiyadan ko‘ra kengroq ko‘rib chiqiladi. malaka; kompetensiya kompetensiyaning tarkibiy qismidir; kompetensiya ma‘lum bir malakaga ega bo‘lishni anglatadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari inklyuziv muhitda o‘qituvchilarining malaka va malakalarni egallashi ularning oliy pedagogik ta‘lim muassasasida kasbiy tayyorgarligidan boshlanib, malaka oshirish jarayonida shakllanib boraveradi. Shunday qilib, inklyuziv kompetensiya o‘quv jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanishi jarayonida shakllanadi.

Shu munosabat bilan, tadqiqotimiz kontekstida «kasbiy kompetensiya» atamasini ko‘rib chiqish va uning ta‘rif tahlilini amalga oshirish zarur. O‘qituvchining inklyuziv kompetensiyasini kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirishning zamonaviy ijodiy shakllarida namoyon bo‘ladigan, faoliyat predmeti bo‘yicha chuqur ilmiy va nazariy bilimlarni talab qiladigan kasbiy tayyorgarlik darajasi sifatida talqin etiladi. Jismoniy, aqliy, intellektual, ijtimoiy-ma‘naviy fazilatlar va shaxs xususiyatlarining namoyon bo‘lishi. Mutaxassisning kasbiy malakasi - bu shaxsning kasbiy faoliyatini eng yuqori darajada amalga oshirish qobiliyatini belgilaydigan integral xususiyatdir.

L.Xoruja kasbiy kompetensiyani o‘qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlarini yig‘indisi sifatida belgilaydi, ularning dialektik yo‘nalishi pedagogik harakatning samaradorligi va samaradorligini ta‘minlaydi

S.Skvorsova o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini uning ongilligi va vakolati, o‘z navbatida boshqa shaxsning shaxsiyatini shakllantirish uchun hisoblangan ta‘lim vazifalarini samarali hal qilishga imkon beruvchi shaxsiy xususiyat sifatida qaraydi.



Bizning tadqiqotimiz uchun S.Sysoeva va I. Sokolova tomonidan olingan kasbiy pedagogik kompetensiya tushunchasining ta'rifidagi dolzarb bo'lib, ular uni o'qituvchi yoki o'qituvchining ajralmas kasbiy va shaxsiy xarakteristikasi sifatida tushunadilar, uning shakllanish darajasi bir nechta fanlar tekisligida kasbiy funksiyalarni amalga oshirish qobiliyatini ko'rsatadi maydonlar, kasbiy vazifalarni davlat tomonidan belgilangan ta'lim standartlariga muvofiq hal qilish, individual uslubni aniqlash va shaxsiy fazilatlarini namoyish etish. Olimlar ta'kidlaganidek, o'qituvchining inklyuziv kompetensiyasining ko'p funksiyali tuzilishida kompetensiyalar to'plami uni shakllantirishning yaxlit ko'rsatkichlari sifatida ajralib turadi, bu o'qituvchilarning turli sohalarida turli xil faoliyat turlarini amalga oshirish haqidagi tushunchasini sezilarli darajada kengaytiradi.

Umumta'lim muassasasi o'qituvchilarining inklyuziv kompetensiyasi ijtimoiy-pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarning sintezidir, deb hisoblaymiz.

Muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatning muhim omillaridan biri V. Semichenko tegishli mutaxassisning kasbiy profiliga kiritish zarurligi haqida ko'rsatgan shaxsiy fazilatlarini ekanligi tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi modeli O.Bilyakovska tomonidan taqdim etilgan va olim tomonidan ijtimoiy talab va ehtiyojlarni o'zida mujas-samlashtirgan, zamonaviy maktab o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarni aks ettiruvchi ideal mutaxassisni shakllantiruvchi tarkibiy qismlarning xayoliy namunasi sifatida belgilab bergan. U umumiy madaniy, kooperativ, valeologik, boshqaruv, axborot-texnologik, avtopsixologik, bashoratli-reflektiv, psixologik-pedagogik, ijtimoiy, kommunikativ-situatsion, uslubiy, kognitiv-texnologik kompetensiyalarni qamrab oladi.

Biz umumta'lim muassasasining inklyuziv sinfidagi o'qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasi mazmunini kasbiy kompetensiya sifatida belgilaymiz va uni quyidagi masalalar bo'yicha bilimlarni egallashi deb hisoblaymiz:

- salomatlik bilan bog'liq hayotiy imkoniyatlari cheklangan bolalarning ta'limini tashkil etishga davlat yondashuvlari;
- umumiy, maxsus va korreksion pedagogika, umumiy va maxsus psixologiyaning asosiy kategoriyalari;
- tug'ma yoki orttirilgan omillar ta'sirida turli toifadagi shaxslarning psixofizik rivojlanishining xususiyatlari;
- psixologik-pedagogik o'rganish usullari;
- har bir o'qituvchining ta'lim ehtiyojlari va imkoniyatlarini ta'minlash uchun ta'limni individuallashtirish va tabaqalashtirish;
- o'qituvchilarning ota-onalari bilan ishlash usullari va shakllari va boshqalar.

Shuningdek, inklyuziv muhitda o'qituvchilari quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak degan xulosaga keldik:



- har xil o‘quvchilarning turli xossalari va sifatlarining individual ko‘rsatkichlarini diagnostika qilish, ularni dinamik ravishda o‘lchash;
 - umumiy pedagogik va tuzatuvchi va rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalarini joriy etish;
 - kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining rivojlanishidagi og‘ishlarni aniqlash va ularni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishda ishtirok etish;
 - turli xil maktab jamoasining har bir a‘zosi ta‘sir qilish uchun individual va tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish;
 - umumiy rivojlanish talabalarining alohida ta‘limga muhtoj tengdoshlari bilan birgalikda ijobiy munosabatda bo‘lishga qiziqishini shakllantirish;
 - ota-onalarning inklyuziv ta‘limni joriy etish bo‘yicha bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik ta‘limning turli shakllarini tashkil etish.
- Yuqoridagi tahlillarni inobatga olgan holda, biz shunday xulosaga kelamizki, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarini umumta‘lim muassasasining inklyuziv muhitida ishlashga kasbiy tayyorgarligi ularga berilgan ko‘nikmalar va ijtimoiy-pedagogik kompetensiyani shakllantirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turgunov, S., & Umaraliev, M. (2016). The Development of Professional Competencies of Teachers on the Basis of an Innovative Approach. *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics*, (2), 119-125.
2. Abdugapparovna, U. M. (2019). The role of creative technologies in development of professional competency of general secondary pupils in collaborative pedagogy. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(5).
3. Umaraliyeva, M. A. (2017). Pedagogical Conditions of Forming Professional Competence of Teachers Based on Innovative Approach. *Eastern European Scientific Journal*, (4), 65-68.
4. Umaraliev, M. Pedagogical conditions of forming professional competence of teachers (2017). Pedagogical conditions of forming professional competence of teachers. *Eastern European Scientific (ISSN 2199-7977). Journal.-Dusseldorf-Germany.*



BO‘LAJAK BOSHLAG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

D.ELMURATOVA,
*Gulistan davlat pedagogika
instituti dotsenti (PhD)*

Mamlakatimizda amalga oshirilyotgan fan-texnika taraqqiyoti va jamiyatdagi o‘zgarishlar, zamonaviy ta‘lim tizimining yuqori darajada yangilanish bosqichida bo‘lajak o‘qituvchilarni tabiatshunoslik fanidan innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga o‘ziga xos talablar qo‘ymoqda. Shunday ekan, bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim masalalariga e‘tibor qaratamiz.

Kalit so‘zlar: ta‘lim jarayoni, o‘qituvchi shaxsi, motivatsiya, kasbiy mahorat, kasbiy innovatsiya, kasbiy faoliyatga tayyorlash.

The progress of science and technology in our country and the changes in society, at the stage of modern education system at a high level of renewal, place specific demands on the process of preparing future teachers from natural sciences to innovative professional activities. Therefore, we focus on the important issues of preparing future teachers for innovative professional activities.

Key words: educational process, teacher’s personality, motivation, professional skills, professional innovation, preparation for professional activity.

Bo‘lajak pedagoglarni "Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi" bo‘yicha innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangilangan talablari mohiyati: innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashga sharoit yaratish, tez o‘zgaruvchan mehnat mazmuni va uzluksiz yangilanib boradigan bilimlar zarurati bilan bog‘liq.

Innovatsion pedagogik jarayonlar G‘arbda XX asrning 50-yillari oxirlarida, mamlakatimizda so‘nggi o‘n yilliklarda maxsus o‘rganish predmetiga aylandi. Ularga jahon pedagogik jamoatchiligida qiziqish alohida innovatsion xizmatlar, nashrlar, jumallar, axborot nashrlarining yaratilishida o‘z aksini topmoqda. Jumladan, YuNESKO qoshida Osiyo ta‘limni rivojlantirish uchun pedagogik innovatsiyalar markazi mavjud bo‘lib, u dunyo mamlakatlarining pedagogikaga oid yangiliklarini umumlashtiradi va ta‘lim masalalari bo‘yicha Xalqaro byuro bilan hamkorlikda maxsus nashr sahifalari orqali pedagogik jamoatchilikni xabardor etadi.

Adabiyotlarning nazariy-ilmiy tahlili innovatsion jarayonni intensivlashtirishga (jadallashtirishga) ko‘maklashuvchi quyidagi omillarni ajratish imkonini beradi: a) ta‘lim muassasalari rahbarlarining innovatsion imkoniyatlari; b) ishlab chiqilgan kompleks loyihalar; v) loyihalar doirasida va jarayonning o‘zida maslahat berish; g) ijtimoiy-iqtisodiy muhit; d) innovatsion jarayon



ishtirokchilarining ulushli vaziyatlari. Bundan innovatsion jarayon doimo ma'lum yo'nalishga egaligi kelib chiqadi. Ulardan biri - bu pedagogik faoliyatga yo'nalganlik. Ta'lim - jamiyatning tarkibiy qismi, o'qituvchilar uning tarkibiy tizimi a'zolari; ular faoliyatining tabiati bevosita yangiliklar bilan bog'langan. Shu tariqa ta'lim tizimida yangiliklarning quyidagi turlarini ajratish mumkin: mazmunida; o'quv-tarbiya jarayonining metodikasida, texnologiyasida, tashkiliy shakllarida, metodlarida, vositalarida; ta'lim muassasasini boshqarishda; miqyosi bo'yicha: davlat, hududiy; milliy-hududiy; yangi turdagi ta'lim muassasalari; pedagogik ahamiyatligi bo'yicha: mustaqil (xususiy, lokal, yakka va h.k.); o'zaro bog'liq bo'lmagan; modulli (xususiy, o'zaro bog'liq innovatsiyalar kompleksi); tizimli; kelib chiqishi bo'yicha: modifikatsion, ya'ni takomillashgan; aralash (avval ma'lum bo'lganiga yangi komponentni birlashtiradi); tubdan yangi turlari mavjud.

Tabiatshunoslik o'qitish metodikasida innovatsion faoliyatni shaxsiy toifa, yaratuvchilik jarayoni va natijasi sifatida talqin qilish mumkin. Tizimli-yo'naltirilgan tadqiqot ishlarida innovatsion faoliyat kreativ paradigmaning shaxsiy, boshqaruvchi-kommunikativ va natijali tizim tahlilida ochib beriladi.

Tabiatshunoslik o'qitish metodikasida shaxsning innovatsion imkoniyatini quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bilan bog'laydilar: tabiatshunoslikka oid yangi tasavvurlar va g'oyalarni ishlab chiqish, asosiysi, ularni amaliy shakllarda loyihalash, modellashtirish ijodiy qobiliyati; shaxsning yangiga, o'zidan farqliga ochiqligi, bu shaxsning bag'rikengligi, tafakkurining moslashuvchanligiga asoslanadi; madaniy-estetik rivojlanganlik va ma'lumotlilik; o'z faoliyatini takomillashtirishga tayyorlik, ichki, mazkur tayyorlikni ta'minlovchi vosita va metodlar; rivojlangan innovatsion ong (innovatsion faoliyatning an'anaviyga ko'ra qimmatligi, innovatsion ehtiyojlar, innovatsion xulq motivatsiyasi) innovatsion imkoniyatlar asosi sanaladi.

Tabiatshunoslik o'qitish metodikasida o'qituvchi innovatsion imkoniyatining rivojlanish prinsiplari quyidagilar hisoblanadi: pedagog o'z shaxsining qadriligini tan olishi, "o'zligini" innovatsion tushunish, kompensatsiya; individuallashtirish; ziddiyatlilik, axloqiy bog'liqlik, kreativ ilhomlanish, refleksiya prinsiplaridir.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun ular o'qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishini yaxshi anglashi zarur. Ma'lumki, innovatsion faoliyat ma'lum doiradagi vazifalarni yechishni bilish bilangina emas, balki tashqi vazifalarni izlash va hal etishga motivatsion tayyorlikning mavjudligi bilan ham bog'liq. Motivatsion tayyorlik, pedagogik innovatsiyalarga sezgirlik muammosi o'qituvchini tayyorlashda asosiy o'rin egallaydi, chunki faqatgina innovatsion faoliyat maqsadlariga to'g'ri keladigan motivatsiya, mazkur faoliyatni uyg'un amalga oshirish pedagog shaxsining o'z-o'zini namoyon etishini ta'minlaydi.



O'qituvchining innovatsion faoliyati sanab o'tilgan motivlardan birining yaqqol ustunligida izchil ravishda quyidagicha quriladi: innovatsiyalarni joriy etishning muayyan elementlari uchun moddiy mukofotlash bilan bog'liq tashqi rag'batlar; o'qituvchining o'z-o'zini mustahkamlash motivlari (atrofdagilarning tashqi ijobiy baholashlari orqali o'z-o'zini mustahkamlash); kasbiy motiv; shaxsiy o'z-o'zini amalga oshirish motivlari.

O'qituvchining innovatsion faoliyatida kreativlik muhim tavsif hisoblanadi. Pedagog maqsadga yo'naltirilgan yangi axborotlarni qidiradi, mualliflik maktabini yaratadi, pedagog tajribasini bajonidil boshqalar bilan baham ko'radi. Bunday pedagoglar faoliyatida muhim rolni sezgi, innovatsion tasavvur, improvizatsiya egallaydi. O'zgarishlarga sezgirlik dinamikasi tabiatshunoslik darslarida talaba yangiliklarni idrok etishining o'ziga xosligini ham belgilaydi. Barcha pedagoglar ham yangiliklarga bir xilda munosabatda bo'lmasligi va bir vaqtda qabul qilmasligi hammaga ayon.

Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi bo'yicha talabalarda innovatsion faoliyat shakllanganligini to'rt daraja bo'yicha baholash mumkin (1-rasm).

Bo'lajak o'qituvchilarni tabiatshunoslik fanidan innovatsion kasbiy faoliyatga mustaqil, ijodiy, amaliy tayyorlash muammosi har doim psixologiya va pedagogika sohasi tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lgan. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning o'zlashtirgan kompetensiyalarini kelgusi mehnat faoliyatida amaliyotga tatbiq qilish darajasi bilan bog'liq.

Tabiatshunoslik darslarida boshlang'ich sinf o'qituvchisi innovatsion faoliyatining asosiy xususiyati boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsini shakllantirishning boshlang'ich davrda amalga oshirilishi, atrof-olamni ilmiy bilishning dastlabki ko'nikma va malakalarini shakllantirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli ijtimoiy munosabatlarga kirishlari bilan bog'liqligi hisoblanadi. Mazkur yaxlit jarayonni tabiatshunoslik darslarida tizimli tashkil etishda markaziy o'rinni boshlang'ich sinf o'qituvchisi - ta'lim va tarbiya mazmuni tashuvchisi, o'quvchi bilish faoliyati, shaxsining har tomonlama shakllanishi va rivojlanishi tashkilotchisi egallaydi.

Tabiatshunoslik darslaridagi innovatsion faoliyat jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchisining yosh va individual xususiyatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishiga to'g'ri keladi. Bu tabiatshunoslik darslarida qo'llaniladigan innovatsiyalar xususiyati va mazmunida ifodalanadi. Ular mazmuni va ifoda shakli bo'yicha ko'p qirrali bo'lib, quyidagi belgilari asosida tasniflash qabul qilingan: faoliyat turlari bo'yicha: pedagogik, boshqaruv; kiritiladigan o'zgarishlar xususiyatiga ko'ra, radikal, aralash, modifikatsion; kiritiladigan



o'zgarishlar miqyosi bo'yicha: lokal, modulli, tizimli; foydalanish miqyosi bo'yicha: bir martalik, tarqalgan; manbasi bo'yicha: tashqi, ichki.

Innovatsion, muammoli pedagogik vaziyatlarni qismlarga ajratish va tasniflash, innovatsion axborotni faol izlash, yangilik bilan tanishtirish; yangilikni yaratish, faoliyat operatsion komponentining asosiy tashkil etuvchilari, mavjud ta'limiy loyihalarni shaxsiy-motivli qayta ishlash, ularni mustaqil interpretatsiyalash yoki o'zlashtirish bo'yicha shaxsiy imkoniyatlarini kasbiy-motivli tahlil qilish, yangini qo'llash bo'yicha qaror qabul qilish; yangilikni qo'llash maqsadlari va umumiy konseptual yondashuvlarni shakllantirish; innovatsion faoliyat maqsadlariga erishish, o'zgarishlar, qiyinchiliklar, vositalarini bashoratlash; yangilikni joriy etish yo'llarini hamkasblar, ma'muriyat, maslahatchilar bilan muhokama qilish; g'oyalarni yaratish, tajriba-sinovning konseptual asosini va bosqichlarini ishlab chiqish; innovatsion xatti-harakatlarni amalga oshirish: pedagogik jarayonga yangilikni kiritish va uning rivojlanishi hamda joriy etishning borishini kuzatish; yangilikni kiritish va butun innovatsion faoliyatning nazorati va korreksiyasini amalga oshirish; joriy etish natijalarini baholash, pedagogning o'z-o'zini amalga oshirish refleksiya.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, tabiatshunoslik o'qitish metodikasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi innovatsion faoliyatining xususiyatlarini quyidagicha tasniflash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi bo'yicha o'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlari tasnifi

T/r	O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlari tasnifi
1.	O'quvchi shaxsini shakllantirish
2.	O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish
3.	O'quvchilar o'quv (bilish) faoliyatini tashkil etish
4.	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv
5.	Integrativ yondashuv
6.	Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish
7.	Til va nutqni rivojlantirish
8.	Hissiy rag'batlantirish
9.	Atrof-muhitga hissiy-qadriyatlilik, bag'rikenglik munosabatini shakllantirish
10.	Mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish

Tashqi muhitning tezkor o'zgarishlari sharoitida ta'lim olmaydigan tashkilotlar o'z rivojlanishini sifatli va ishonchli boshqarishga qodir bo'lmaydi.

Innovatsion faoliyat jarayonida o'qitish tizimini qurish (vazifalarni bajarish jarayonida o'qitish) tashkiliy o'qitish nomini olgan.



O'qituvchi izlanuvchan, andozalar bilan qoniqmaydigan shaxs sifatida tavsiflanadi. Barcha holatlar uchun majburiy bo'lgan ta'lim va tarbiyaning yagona metodikasi mavjud emas: har bir o'qituvchi novator bo'lishi, uning shaxsiy sifatlariga javob beradigan o'z yondashuvlarini topishi mumkin.

Kasbiy innovatsion mahoratni egallash faqatgina inson, bola to'g'risidagi bilimlar boyligini (psixologiya, pedagogika, falsafa, sotsiologiya, turli o'quv fanlarini o'qitish metodikasi) chuqur, har tomonlama egallash asosida hosil bo'lishi mumkin. Yuqori pedagogik madaniyat o'qituvchiga ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari, metodlari, vositalarini kompetentli tanlash imkonini beradi va bu o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish asosida yoritadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbi uchun mumkin bo'lmagan quyidagi shaxsiy sifatlarini yengadi: apatiya, bolalarni o'qitish va tarbiyalashdagi rasmiyatchilik, ularga va ularning taqdirlariga befarqlik, jizzakilik, yengiltaklik, qarorlarni qabul qilishda, xulq-atvordagi shoshqaloqlik va o'ylamaganlik.

Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni amaliy ishda inobatga olish bir tomondan, majburiy hisoblanadi; ikkinchi tomondan, ularni bilish o'qituvchiga innovatsion yo'nalishlar va texnologiyalar ko'rinishlarini tushunish; o'zi uchun shaxsiy individual ish metodini izlash uchun va aniq innovatsion pedagogik faoliyat maydonini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тычинский А. В. Управление инновационной деятельностью компаний: современные подходы, алгоритмы, опыт. ? Таганрог: ТРТУ, 2006.
2. Управление инновационными процессами: учебное пособие / В.В.Жариков, И.А.Жариков, В.Г.Однолько, А.И.Евсейчев. ? Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. унта, 2009. - 180 с.
3. Успанов К.С. Теория и практика формирования профессионально значимых качеств у будущих учителей: автореф. ... док. пед. наук. - Алматы, 1999. - 43 с.
4. Норбўтаев Х.Б. Бошлан'ич синф табиатшунослик дарсларида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш методикаси // Заонавий таълими. - Тошкент, 2016. ? № 6. ? С. 34-39.



BO'LAJAK PEDAGOGLARNI O'QUVCHILARDA BILIM KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH DOLZARBLIGINING AHAMIYATI

I.I. TUYCHIEVA,

*FarDU «Pedagogika» kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Ushbu maqolada bugungi kunda o'quvchilarida bilim ko'nikmalarni rivojlantirish va dolzarbligining ahamiyati asosiy yo'nalishlaridan biri bu bo'lajak pedagoglarni o'quvchilarda bilim ko'nikmalarni va malakalarini shakllantirish, bu pedagoglarni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Ta'lim sifatini va samaradorligini takomillashtirish, ularning fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ko'plab dasturlar ustuvor vazifalar to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'z: *bo'lajak pedagoglar, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik.*

В данной статье одной из основных задач будущих педагогов в современном обществе сегодня является высокая профессиональная компетентность и интеллектуальный потенциал, лояльность, идейная убежденность и любовь к своей профессии. Это отличает педагогов от других профессий. Было высказано множество программ по повышению качества и эффективности образования, формированию практических навыков по предметам, мнения по приоритетным задачам.

Ключевые слова: *будущие педагоги, новые разработки, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, непрерывное образование, индивидуальные качества, всесторонне развитая личность, образовательные стандарты, гражданское общество, научно-методология.*

In this article, one of the main tasks of future pedagogues in modern society today is high professional competence and intellectual potential, loyalty, ideological conviction, and love for their profession. This distinguishes educators from other professions. Many programs on improving the quality and efficiency of education, forming their practical skills in subjects, and opinions on the priority tasks were expressed.

Key words: *future pedagogues, new development, modern outlook, scientific-theoretical views, continuous education, individual qualities, well-rounded person, educational standards, civil society, scientific-methodology.*

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida sifatli ta'limga erishishning eng muhim vazifalari belgilanib, amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan bu jarayonda



o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish dolzarb bo'lib turibdi.

Ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay xilma-xil ko'nikma va malakalarni hosil qiladilar. Ko'nikma - mashq qilish natijasida yuzaga kelgan hatti-xarakterlarning avtomatlashgan usuli. Fiziologik jihatdan ko'nikma bosh miyaning katta yarim sharlari po'stlog'ida hosil bo'lib, vaqtinchalik nerv bog'lanishlarining barqaror tizimining funksiyasini ta'minlaydi.

Dinamik-stereotiplarni yaratish sharoitlari bir vaqtning o'zida avtomatlashgan akt bilan murakkab analitik-sintetik faoliyatni yuzaga keltiradi. Buning natijasida nafaqat ko'nikmalar, balki malakalar ham yuzaga keladi.

Malaka – oldinga qo'yilgan maqsad va hatti-harakat sharoitidan kelib chiqadigan muvaffaqiyatli harakatlar usulidir. Malakalar hatti-harakatning maqsad va konkret shart-sharoitlariga tegishli bo'lgan holda doimo suyanadi. Odam ishni qanchalik yaxshi bilsa, uni shunchalik malakali amalga oshiradi va undan foydalanadi.

Ko'nikma va malakalar hatti-harakat uslubi bo'la turib, ma'lum faoliyat turiga qarab ishlab chiqarish, o'quv, ijtimoiy, sport, tashkiliy, texnik faoliyat, ilmiy faoliyat, san'at sohasidagi ko'nikmalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Lekin, barcha faoliyat turlarida qo'llaniladigan ko'nikma va malakalar mavjud: bular – harakat, sensor, aqliy ko'nikma va malakalardir.

Harakat ko'nikmalariga jismoniy mehnat, sport va o'quv ko'nikmalari (xat yozish, tez o'qish va xokazo) kiradi. Sensor ko'nikma va malakalarga o'lchov, yorug'lik, ovoz va simvolik ma'lumotlarni tez va to'g'ri qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan va boshqarish markazlarida takrorlab borishlar kiradi.

Aqliy ko'nikma va malakalarga-kuzatish usullari, malakalarni rivojlantirish, og'zaki va yozma hisob-kitobni ishlab chiqish, harakatlarga yo'naltirish, kitob bilan ishlash, arxiv materiallarini yig'ish, ilmiy tajriba o'tkazish va xokazo.

Ko'nikmalar mashq qilish natijasida yuzaga keladi, ya'ni bunda maqsad sari yo'naltirilgan (doimiy) qaytarish mustahkamlashga olib keladi va samarali usullar asosida qayta-qayta qaytarilishi amalga oshiriladi. Inson tomonidan egallangan ko'nikma va malakalar yangi ko'nikmalarni shakllantirishiga ta'sir ko'rsatadi.

Qonuniyatlar:

1. Ko'nikma hosil bo'lishining notekis jarayoni. Bu mashqlarning egri grafigida namoyonbo'ladi.

2. Ko'nikmalarning ko'chishi. Ijobiy ko'nikmalarning yangilarinishakllanishiga ta'siri ko'chish deyiladi. Ko'nikmalardagi salbiy ta'sir esa interferensiya



deb ataladi, bunda eski ko'nikmayangisining shakllanishiga xalaq beradi.

3. Ko'nikmani progressiv va regressiv – ko'nikma uzoq vaqt miqdorida xizmat qilishi uchun undan foydalanish lozim. Aks holda deavtomatlashtirish yuzaga kelib, zarur harakatlar o'z tezligi, yangiligi, aniqligi va avtomatlashtirilgan harakatlarni ta'minlovchi xususiyatlarini yo'qotadi.

Odatlar bu shunday hatti-harakatlarki, ular o'z-o'zidan, avtomatik tarzda yuz beradi. Odatlarni insonning madaniy va aloqiy xulqida ahamiyati katta.

Ta'lim boshqariladigan jarayoni bo'lib, bunda har bir bolaning harakati qadamba-qadam nazorat qilinadi, o'qituvchi har bir bosqichda o'quvchining bilimlarini malakalarini o'zlashtirish haqida axborot olib turadi, yangi material avvalgi materialni o'zlashtirishga qarab taqdim etiladi.

Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hamda ularni rivojlantirib borish uchun asos hisoblanadi. Shu jihatdan bu jarayonda tashxis etish omilidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta'lim mazmunida modernizatsiya ishlari, ya'ni DTS da, o'quv rejasida va fan dasturlarida ham islohatlar olib borilmoqda. Bugungi zamon o'qituvchisi yuqoridagi islohatlarni ham hisobga olishi zarur. Pedagogning kreativligi haqida fikr yuritganda biz standart va nostandart ta'lim shaklida ham fikr yuritmoqdamiz. Standart – bu ta'lim mazmuniga mos shakldir, bunda o'qituvchi subyekt, o'quvchi, tinglovchi obyekt sifatida faoliyat olib boradi. Nostandart ta'lim shaklida o'qituvchi ham o'quvchi, tinglovchi ham subyekt sifatida faoliyat olib boradi, o'qituvchi ta'lim jarayonida mustaqil qarorlar chiqarishi mumkin bo'ladi. O'qituvchining kompetentligida kasbiy bilim va madaniyat tushunchalarini to'g'ri tahlil qilishi lozim. Kasbiy bilim – bu o'qituvchining o'z sohasini mukammal bilishi bo'lsa, madaniyat tushunchasida uning nutq madaniyati, estetik va boshqa tomonlari namoyon bo'ladi. Kreativlik qobiliyatiga ega mutaxassis o'z bilimini izchil boyitib borishi, yangilikka intiluvchan mahorat egasi bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi kompetentligini ta'minlaydi. Ta'lim tizimini boshqarish orqali har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishish maqsadida yangi o'quv dasturlari, darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, zamonaviy axborot vositalari yordamida video darsliklar, multimedialar ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi vaqtga kelib dunyo aholisining soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tug'ilgan bolalarning aksariyatida esa turli xil nuqsonlar kuzatilmoqda. Ushbu holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan bir qancha omillar mavjud. Jumladan, ekologik holatning yomonlashuvi, turmush qurishda yo'l qo'yilgan xatolar va



sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelmoqda. Lekin hozirgi vaqtga kelib davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar ushbu turdagi shaxslarga ham keng yo'l ochdi. Maxsus maktablar hamda inklyuziv ta'limning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayoni davlat standartlariga javob bera oladigan darajada shakllanib bormoqda Ta'lim jarayonida o'quvchilarni hayotga tarbiyalash bugunning kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun, albatta, har bir pedagog o'quv jarayonini amaliy hayot bilan bog'lagan holda to'g'ri tashkil etishi zarur. Ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'lash prinsipi bu jarayoni yanada osonlashtiradi. O'quvchilarda onglik va faollikni yuzaga keltirish, ularni o'z-o'zini baholashiga imkon yaratish hamda badiiy adabiyot na'munalarining asl mohiyatini o'quvchiga yetkazib berish ta'lim oluvchida hayot haqidagi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilarni tashvishga solayotgan muammolardan biri – o'quvchida qanday qilib bilim olishga bo'lgan doimiy qiziqishni rivojlantirish va ularning mustaqil izlanishiga bo'lgan ehtiyoj, boshqacha qilib aytganda, o'quv jarayonida bilish faoliyatini qanday faollashtirish kerakligi. Maktab ta'limining davlat, jamiyat va oila oldiga qo'ygan maqsadlari, ma'lum bir bilim va ko'nikmalarni to'plashdan tashqari, o'quvchining salohiyatini ochib berish va rivojlantirish, uni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. O'quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etish orqali o'quvchilarni hayotga tayyorlashga katta e'tibor qaratmoq lozim.

Yaxshi natijalar ko'rsatish uchun hech bo'lmaganda o'qituvchi ikki maqsadga ega bo'lish kerak: Birinchisi, o'qituvchilar va ular ishlaydigan va foydalanadigan materiallarni tayyorlashdir.

1. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.
2. Ta'lim va tarbiya jarayonining mohiyati.
3. Ta'lim va tarbiyaning asosiy funktsiyasi.
4. Didaktika va tarbiya jarayonining asosiy kategoriyalari.
5. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va talabaning hamkorligi.

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, pedagogik mahorat haqida umumiy ma'lumot, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallab olishga imkon yaratib beradi.

Pedagogik mahorat fanining maqsadi bo'lajak o'qituvchiga hozirgi zamon pedagogika sohasidagi dolzarb muammolarni, o'qituvchi shaxsi va kasbi haqidagi



bilim va malakalarni hamda har bir tarixiy bosqichda ta'lim - tarbiya tizimi, ijtimoiy-pedagogik fikrlar, ta'lim-tarbiya mazmuniga ijodiy munosabatda bo'lishini o'rgatadi. Pedagogik mahorat fanining predmeti – «ta'lim to'g'risida» gi qonun va «kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqib, o'z sohasini mukammal egallagan, bilimdon, axloqan pok, ma'nan etuk, jismonan sog'lom bo'lgan pedagoqlarni tarbiyalashdir.

Xulosa qilib aytganda maktab o'quvchilarida bilim ko'nikmalarni rivojlantirish va hayotiy maqsadlarni belgilashning asosiy yo'nalishlaridan biri bu bo'lajak pedagoqlarni o'quvchilarda bilim ko'nikmalarni shakllantirishdir. Demak, bo'lajak pedagoqlarni o'quvchilarda avvalo o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishi, o'z-o'zini boshqara olishi ham juda muhim sanaladi. Ularda bilim ko'nikmalarni shakllantirish uchun kasb hunarga o'rgatish, mehnatkash, sabr toqatli, qat'iyatli va tirishqoq qilib tarbiyalash o'quvchilarda hayotiy maqsadlarini belgilashda ancha qo'l keladi. Shu bilan bir qatorda mustaqil shug'ullanishlari uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati ham rivojlangan bo'lishi kerak. Ko'proq badiiy adabiyotlar mutolaa qilishi asosiy mezonlardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik -T.: SANO-STANDART, 2017.
2. Umrnliy pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurrnonova [va boshq.]. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 376 b.
3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. -T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
4. «O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
7. Axrarova Z., Sadikova Sh., Sodikov U., Allayarova S., Shodmonov Sh. Umumiy pedagogika. Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent: «MUMTOZ SO'Z». 2020 y.- 331 b.



«KUNGABOQAR O‘SIMLIGINING TUZILISHI» MAVZUSINI O‘RGANISHDA AMALIY MASHG‘ULOT TASHKIL ETISH METODIKASI

T. NORBOBOYEVA,

TVCHDPU dotsenti, b.f.n

SH. T. YAKUBJONOVA,

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, g.f.f.d

G. U. SUYUNOVA,

TVCHDPU o‘qituvchisi

Maqolada oliy o‘quv yurtlarini 2 kurs biologiya yo‘nalishi bo‘yicha «Yuksak o‘simliklar sistematikasi» kursidan «Kungaboqar o‘simligining tuzilishi» mavzusida o‘tiladigan amaliy mashg‘ulotning dars ishlanmasi berilgan.

Kalit so‘zlar: *Kungaboqar, savatcha, to‘pgul, naysimon, soxta tilsimon gul, pista meva.*

In the article, the lesson development of the practical training on the topic «Structure of the sunflower plant» from the «Systematics of higher plants» course of the 2nd year of higher educational institutions in the field of biology is given.

Key words: *Sunflower; basket, flower, fluted, false tongue flower; pistachio fruit.*

Uzluksiz ta‘lim – o‘zaro mantiqiy izchillik asosida bog‘langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta‘lim tizimi [5]. Ta‘limda biologiya fanini o‘qitishning uzviylik va uzluksizligini ta‘minlash ko‘p jihatdan bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning kasbiy tayyorganligiga bog‘liq. Oliy ta‘lim muassasalarida biologiya fanlarini o‘qitishda ilg‘or innovatsiyalarni qo‘llash bugungi kunning dolzarb talablaridan hisoblanadi. Jumladan «Yuksak o‘simliklar sistematikasi» fanidan talabalarni zamon talabi darajasida o‘qitish maktablarda o‘quvchilarni samarali ta‘limi uchun muhim omildir.

Bu borada olib borilayotgan metodik izlanishlarimiz natijasi o‘laroq, biologik fanlar o‘quv dasturida belgilangan amaliy mashg‘ulotlarning bir qator mavzular ilg‘or usullar orqali ishlab chiqildi. Quyida olingan natijalardan ayrim namunalar keltiramiz.

«Yuksak o‘simliklar sistematikasi» kursidan «Kungaboqar o‘simligining tuzilishi» mavzusi dars ishlanmasi.

MAVZU: KUNGABOQAR O‘SIMLIGINING TUZILISHI

Bo‘lim: Magnoliya toifalar-Magnoliyaliophyta Angyospermaye



Ajdod (sinf): Magnoliyasimonlar - Magnoliopsida

Kichik ajdod : Qoqio‘tdoshlar - Asteridae

Tartib (kabila): Qoqio‘tnamolar (Astragullilar) Asteralis

Oila: Qoqio‘tdoshlar (Murakkab guldoshlar) Asteraceae (Compositay)

Kichik oila: Naychaguldoshlar - Asteroideae

Turkum: Kungaboqar

Tur: Oddiy kungaboqar - Helianthus annuus

Darsning ta’limiy maqsadi: Talabalarga naychaguldoshlar kichik oilasiga xos xususiyatlarni kungaboqar o‘simligi misolida tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Kungaboqar o‘simligining inson hayotidagi ahamyatini ochib berish orqali talabalarga iqtisodiy tarbiya berish, o‘simliklarni muhofaza qilishga o‘rgatish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O‘simliklarni tanib olish, sistemikasini aniqlash, tushunchalardan, doskadan, o‘quv adabiyotlardan, undagi rasm va sxemalardan, jihozlardan foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Kungaboqar yosh o‘simligining gerbariyi, ochilgan savatcha to‘pguli, meva, urug‘lar, naysimon, soxta tilsimon gullarining modeli, laboratoriya jihozlari, lupa, kungaboqar o‘simligini ahamiyatini aks ettiruvchi rasmlar.

Nazariy tushuncha: Oddiy kungaboqar bir yillik o‘t o‘simlik, poyasi 3-4 m gacha tik o‘sadi. Pastki qismi yog‘ochlangan, ichi parenxima to‘qima bilan to‘lgan. Bargi oddiy, bandli, shakli yuraksimon, pastki qismidagi barglari poyada qarama-qarshi, yuqoridagilari ketma-ket joylashgan. O‘rta qismidagi barglari yirik. Poya va barglari bezli, qattik tuklar bilan qoplangan: Savatchalarida ikki xil gullari bor. Savatchaning o‘rtasida naysimon, chetlarida soxta tilsimon gullar joylashgan. Savatchalari ikki qavat o‘rama barglarga ega. Mevalari-pistachalari to‘pgulning o‘rtasida o‘tmashgan naysimon gullardan hosil bo‘ladi. Savat chetidagi tilsimon gullar hasharotlarni o‘ziga jalb etadigan «viveska»dir. Bu o‘simlikning savatchasi kunbo‘yi quyoshga qarab burilib turadi. Shuning uchun bu o‘simlik kungaboqar deyiladi.

Ishning borishi:

Amaliy mashg‘ulotni boshlashdan avval talabalar bilan mavzu yuzasidan suhbat o‘tkaziladi. Talabalarga beriladigan taxminiy savollar:

1. Kungaboqar o‘simligining ildiz, poya, barg tuzilishi qanday?
2. Bargi qanday qismlardan iborat va poyaga qanday joylashgan?
3. Poyaning qaysi qismdagi barglari yirikroq. Kungaboqarning savatcha to‘pgulida qanday gullar bor?



4. O'simlikni mevalari savatchaning qaysi gulidan hosil bo'ladi?
5. Savatchaning chetidagi soxta tilsimon gullar qanday vazifani bajaradi?
6. Savatcha chetidagi soxta tilsimon va savatcha o'rtasidagi naysimon gullar qanday qismlardan tuzilgan?

7. Kungaboqar mevasi qandan meva xiliga mansub?
8. Bu o'simlikning mevasi va urug'i qanday qismlardan iborat?
9. Urug'ning qaysi qismida zahira modda to'planadi?

Quyidagi ko'rsatmalardan foydalanib, amaliy mashg'ulotni bajaring:

1. Prezentatsiya yoki videofilmdan foydalanib, kungaboqar ekilgan dala, ya'ni kungaboqarzorni kuzating. Yer ustki organlarini qarab chiqing? O'simlikning bo'yiga, ochilib turgan savatcha to'pguliga, barglariga, yo'g'on va baquvvat poyasiga e'tibor bering (rasmga qarang). Rasmda berilgan o'simlik organlari nomini mos raqamlarga qo'yib chiqing.

2. Gerbariydan foydalanib yosh kungaboqar poyasini, unda joylashgan barglarini kuzating. Barglarni poyada qanday tartibda joylashganini, shaklini, qanday barg xiliga mansubligini aniqlang. Lupa yordamida o'simlikni barg va poyalarini kuzating, ulardagi dag'al tuklarni toping. Poyasini sindirib ko'ring, ichi nima bilan to'lganini aniqlang.

3. To'la ochilgan savatcha to'pgulini diqqat bilan ko'zdan kechiring. Savatcha chetidagi zich joylashgan yashil o'rama barglarni toping. Uning shakliga, tuklari mavjud yoki mavjud emasligiga e'tibor bering. Yashil o'rama barglardan keyin savatcha cheti bo'ylab bir yoki bir necha qator bo'lib joylashgan sariq rangli soxta tilsimon gullarni toping. Ulardan bittasini olib diqqat bilan qarab chiqing. Gulni qanday qismlardan tashkil topganligini aniqlang. Gulning formulasini yozing.

4. Savatcha to'pgulning o'rtasida joylashgan naysimon gullardan bir nechtasini ajratib oling, ulardan har qaysisining o'rni xonachadan iboratligiga e'tibor bering. Bu xonachalar gulning qaysi qismidan tashkil topganligini aniqlang.

5. Naysimon gulni lupa yordamida qarab chiqing, preparaval nina bilan qismlarga bo'lib, oq qog'oz ustiga terib chiqing. Gul qismlarini soniga, o'zaro qo'shilgan yoki qo'shilmaganiga, shakliga, jinsiga, rangiga e'tibor bering. Changchini qaysi qismi qo'shilgan yoki qo'shilmaganini, gulning qaysi qismidan nay hosil bo'lganini aniqlang. Naysimon gulning gul formulasini yozing. Naysimon va soxta tilsimon gullarning o'simlik uchun ahamiyatini, yani vazifasini ko'rsating. Kungaboqar savatcha to'pgulini diametrlari o'lchab ko'ring, nechta naysimon va soxta tilsimon gullar borligini aniqlang. Buning uchun savatchani



to'rt qismga bo'lib, to'rt talaba birgalikda sanang, umumlashtirib yozib qo'ying.

6. Kungaboqar o'simligining pista mevasini diqqat bilan ko'zdan kechiring. Mevasini cho'zinchoq shakliga, rangiga, uchi o'tkirlashganiga, katta-kichikligiga, ko'p qirraliligiga e'tibor bering. Mevasini ochib ko'ring (po'chog'ini olib tashlang). Yupqa urug' po'sti bilan qoplangan mag'izini shakli, rangiga, uni po'choqqa yopishmay turishiga e'tibor bering. Urug'ini qanday qismlardan tashkil topganligini aniqlang.

7. Kungaboqar mag'izini oq qog'oz ustida ezib ko'ring. Qog'ozda qanday belgi qolganini kuzating. Kungaboqar urug'idan olingan yog'ini ko'zdan kechiring, uning rangiga e'tibor bering va qaysi sohalarida ishlatilishini tushuntiring.

8. Kungaboqar o'simligini umumiy ko'rinishini, savatcha to'pgulini, undagi naysimon va soxta tilsimon gullarini, meva, urug'ini tuzilishini chizib qismlarini raqamlab, nomlarini yozib qo'ying.

9. Amaliy mashg'ulot yakunida hisobot tayyorlang.

Xulosa qilib aytganda, amaliy mashg'ulotlarda mahalliy materiallardan, respublika hududida ekiladigan madaniy o'simliklardan foydalanish, talabalarni nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llashda, ta'lim va tarbiya birligini amalga oshirishda, o'simliklarni tanib olish, aniqlash ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'. Pratorov va boshqalar. Botanika. - T: «Ta'lim nashriyoti», 2010.
2. П. Рейвн и др. «Современная ботаника» том 1, 2 Москва. «Мир», 1990.
3. R.I. Tashmuxeimedov «O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar». Toshkent «O'zbekistan» 2006.
4. S.M. Xudoyqulov, L.I. Nazarenko «O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar» Toshkent «O'qituvchi» 1984.



O'QUVCHILARIDA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK VA AMALIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA TABIIY FANNING O'RNI

Z. B. SANGIROVA,

*Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi Pedagogik mahoratni rivojlantirish bo'limi
bosh mutaxassisi, (PhD)*

Maqolada o'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida multimediali dasturiy vositalardan foydalanish orqali tabiiy ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish metodik yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *tabiiy ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalar, multimediali dasturiy vositalar*

В статье рассматриваются методические пути формирования естественнонаучной грамотности и практических компетенций посредством использования мультимедийных программных средств в процессе обучения студентов естественным наукам.

Ключевые слова: *естественнонаучная грамотность и практические компетенции, мультимедийные программные средства.*

The article discusses the methodical ways of forming natural scientific literacy and practical competences through the use of multimedia software tools in the process of teaching natural sciences to students.

Key words: *natural scientific literacy and practical competencies, multimedia software tools*

Tabiiy fanlarni o'qitishda mulohaza yuritishni talab etadigan muammoli savollar hamda kichik tadqiqotlar, tajribalar o'tkazish, loyiha ishlarini bajarish orqali o'quvchida izlanuvchanlik xususiyatlarini rivojlantirishda «Kichik tajriba», «Kuzatish», «Muammoga yechim topish», «Loyiha ishlarini amalga oshirish» kabi metodikalar qo'llaniladi. Bu metodikalar o'quvchilarni o'quv-bilish faoliyatiga undash bilan birgalikda ijodkorlik, ko'zlangan maqsadga erishish hamda ularda ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalar shakllantirishda ahamiyatli hisoblanadi.

Kompetensiya tushunchasi bugungi kunda o'qitish tizimida juda keng qo'llanilmoqda. Kompetensiya lotincha so'z «competentia» – «huquq bo'yicha mansublik» ma'nosida inson puxta biladigan, yaxshi bilimga va tajribaga ega masalalar sohasini anglatadi. Bugun kompetensiya kategoriyasi ta'lim jarayonida turli ko'rinishlari qo'llanilmoqda. Bular: tayanch, fanga oid va kasbiy kabi kompetensiyalar. Tayanch kompetensiyalarni rus olimi I.A.Zimnyaya shaxsning



ichki imkoniyatlari va uning psixologik holat (tasavvur, harakat dasturi, qadriyat va munosabat)lar tizimi sifatida qaragan [1].

Rossiyalik olim A.V.Xutorskiyning tadqiqot ishlarida [2] «kompetensiya» kategoriyasi ta'limda umumdidaktik, umumpedagogik va metodologik darajada tahlil qilgan, mamlakatimiz pedagog olimlari bilim oluvchilarda amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlik didaktik birliklar sifatida qarab ta'limning an'anaviy uch elementi- «bilim - ko'nikma - malaka» endilikda oltita birlik - «bilim - ko'nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya - kompetentlik» tarzda tahlil qilishgan [3].

Kompetensiyalarning turi va soni ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqib belgilanadi. Masalan Buyuk Britaniyada tayanch kompetensiyalar 12 ta, Rossiya davlatida 10 ta, Estoniyada 9 ta va hokazo. Bugungi kunda bizning umumiy o'rta ta'limda tayanch kompetensiyalari soni 4 ta, fanga oid kompetensiyalar esa 2 ta qilib belgilangan. Yangi umumiy o'rta ta'lim Milliy dasturida barcha tabiiy fanlar (tabiiy fanlar, kimyo, biologiya, geografiya) uchun fanga oid ikkita kompetensiyalar keltirilgan: ilmiy savodxonlik va amaliy.

Finlyandiyaning ta'limida asosiy maqsad qilib o'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish belgilangan. O'quv maqsadlaridan kelib chiqib o'qitishda maqsadli kompetensiya tuzilmasi ishlab chiqilgan. Bular: o'quvchini masalan, tabiiy fanlarni o'rganishga undash, ilhomlashtirish; o'quvchini tabiiy fanlar fanidan o'z malakasiga erishishga undash; o'quvchini uning kundalik hayoti, atrof-muhit va jamiyatda tabiiy fanlar bo'yicha kompetensiyalarning ahamiyatini tushunish; o'quvchi tabiiy fanlardan erishgan bilimi va malakasidan foydalangan holda barqaror kelajakni qurishda energiya va tabiiy resurslardan foydalanish kabilar [4].

Rossiyalik olim I.G. Kroxina ilmiy tadqiqot ishida kichik yoshdagi o'quvchilarda tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik texnologiyalari o'rganilgan. Jadvalda tadqiqotchi tomonidan tavsiya qilingan ilmiy bilish metodlari orqali kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish qonuniyati keltirilgan [5]. Tadqiqotchi tomonidan kichik yoshdagi o'quvchilarda tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishning mezonlari (motivatsion, kognitiv, tez yo'nalish olish) ishlab chiqilgan hamda boshlang'ich sinfda tabiatshunoslik fanini o'qitishda o'quvchilarda tajriba-sinov davomida tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllanganlik (past, o'rta-past, o'rta, o'rta-yuqori, yuqori) darajalar bilan o'rganilgan.



I. G. Kroxinaning kichik yoshdagi o'quvchilarda tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish qonuniyati bo'yicha tavsiyalaridan tabiiy fanlar kontekstida «Men izlanuvchiman», «Men tadqiqotchiman» mavzularida, amaliy ish va loyiha ishlarini bo'yicha dars ishlanmalarini yaratishda metodologik asos sifatida olingan. Mazkur mavzularda o'quvchining tadqiqot vazifasi va uning bosqichlari (muammoning qo'yilishi, kuzatish, faraz, tajriba, tahlil va xulosa qilishni) bilishi o'quvchi erishishi lozim bo'lgan yakuniy natijalar sifatida qaralgan.

O'quvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish qonuniyati

Ilmiy bilish metodining bosqichlari	Shakllanadigan tabiiy-ilmiy kompetensiyalar
Maqsadni qo'yish	Kuzatuvchanlik (atrofdagi olamga turli usullarni qo'llab)
Gipoteza(g'oya)ni ilgari surish	Kuzatish o'bektidan muhim tomonlarini ajrata olish
Gipotezani tekshirishning usullarini aniqlash	Sezgi organlari orqali kuzatish, o'lchash, tajribalarni bajarish
Gipotezani tekshirish	Atrofdagi olamni bilishning asosiy usullarini egallash
Olingan natijani baholash	Kuzatilgan ob'ektning modelini yaratish

Ilmiy tadqiqot ishlari va o'quv adabiyotlar tahliliga ko'ra, o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omillarga alohida e'tibor qaratish lozimligi aniqlanildi. Bular: o'quv materiali va tashkiliy pedagogik ta'sir. O'quv materiali o'qitishning didaktik tamoyillari(ilmiylik, tizimlilik, izchillik, tushunarlilik va berilayotgan bilimlarning kundalik hayotga bog'liqligi)ga tayanilishini nazarga olinsa, tashkiliy pedagogik ta'sir o'qitish (munozara, suhbat, o'yin, multimediali dasturiy mahsulotlar kabi) uslublariga, o'quv muassasasining moddiy texnik va metodik ta'minotga hamda o'qituvchining pedagogik qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

«Tabiiy fanlar» - yosh o'quvchi vizual tasavvur qilish va fikrlashi uchun tushunarli fandir. Ta'limning boshlang'ich bosqichida «Tabiiy fanlar» ning mazmun sohasi atrof – olam to'g'risidagi ko'nikma va bilimlarni shakllantirish kerak. O'quvchida boshlang'ich sinflarda o'qish davridanoq ularda tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish, kelgusida o'qitishning o'rta va yuqori bosqichlarining turli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha uning ta'lim muvaffaqiyatli o'zlashtirishini ta'minlaydi.

XXI asrda insoniyat oldida turgan muammolar ilmiy tafakkur va ilmiy kashfiyotlarga asoslangan innovatsion yechimlarni talab etishi shubhasiz. Jamiyatga



ijtimoiy va iqtisodiy ekologik muammolarni hal qilishda zarur bo‘ladigan innovatsiyalarni rivojlantiradigan va ilmiy tadqiqotlar olib boradigan ilm egalari, olimlar kerak. Aytish joizki, tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik muhim va dolzarb kompetensiya sanalib, tabiiy fanlarni o‘qitishning asosiy maqsadidir. Tabiiy fanlarga asoslangan bilim hamda ko‘nikmalar har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm-fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa «yoshlarni hayotga tayyorlash»da markaziy o‘rinni egallaydi.

Tabiiy fanlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarda kontekstlari, ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarni, bilimlar va munosabatlar shakllantirish masalalarining qo‘yilishi o‘quvchilarni halqaro baholash dasturlarga tayyorlashda muhim hisoblanadi. O‘quvchilar topshiriq kontekstida ifodalangan muammoli vaziyatni hal etishda tabiiy fanlar bo‘yicha ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarini namoyish etishlari talab etiladi. O‘quvchilarning munosabati (tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishi, tadqiq etilayotgan masalaga ilmiy yondashishi, atrof-muhit bilan bog‘liq masalalardan xabardorligi) va bilimlari (fanning mazmuniga oid, nazariy, empirik bilimlar) ularning natijalari (tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik)ni belgilaydi.

Tabiiy fanlar kontekstlaridagi mavzuga oid tushunchalarni o‘rganishda mulohaza yuritish talab qilinadigan savollardan iborat og‘zaki, yozma va amaliy topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsga tayyor bilimlar to‘plami sifatida emas, balki insonning o‘ziga xos intellektual faoliyati sifatida qarash kerak. O‘rganish bilim miqdorini oddiy uzatish emas, balki qayta kashf etish shaklida tavsiya etiladi.

Tabiiy fanlarni kontekstiga ko‘ra, masalan, o‘quvchi fanga oid tushuncha va bilimlar asosida tevarak atrofimizda sodir bo‘layotgan turli ekologik, iqtisodiy, tibbiy sohalardagi o‘zgarishlarga o‘z munosabatini hamda o‘quvchi tomonidan erishilgan intellektual bilim va ko‘nikmalar esa ularda ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalari shakllantirish masalalarining qo‘yilishi o‘quvchilarni kelgusida xalqaro baholash dasturlarga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarni kichik yoshidan tabiiy fanlarni o‘qishga rag‘batlantirish, ularda olam haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam beradi. Buning bilan yosh o‘quvchi tabiiy fanlar-kimyó qiyin emas, qiziq fan ekanini angalaydi va uni o‘rganishga o‘zida rag‘bat sezadi. «Tabiiy fanlar» fani qaysidir fandan voz kechish yoki qaysidir fanning o‘rniga joriy etilgani yo‘q, aksincha, ta‘lim sifatini oshirish uchun mavjud fanlarning integratsion tarzda o‘qitilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yomg‘ir haqida o‘rganish jarayonida bola uning tarkibi, fizik



xususiyatlari, qaysi faslda va qaerda yog‘ishi, yomg‘ir ta’sirida Yerda qanday o‘zgarishlarning bo‘lishi, o‘simliklar uchun foydasi haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi.

Bunda o‘quvchi bir necha fanlarning hamkorlikda o‘rganayotganini anglay boradi. Olib borilayotgan tadqiqot davomida mazkur «Tabiiy fanlar» o‘quv predmetining multimediali dasturiy mahsulotlardan foydalanish jarayonida o‘quvchilar tayanch va fanga oid kompetensiyalarga ega buladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимняя. И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования// Эксперимент и инновации в школе, 2009. №2.
2. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования / А. В. Хуторской // Народное образование. - 2003. - № 2.
3. Иноятов У., Ходжаев Б. Умумтаълимий компетенцияларни лойиҳалаштиришнинг концептуал асослари// - Т.: 2016. Халқ таълими, 2 - сон.
4. Финляндия таълим сиёсатининг муҳим тамойили ёхуд Фин мактабларининг муваффақияти нимада? <https://uza.uz/posts/187090>
5. Крохина И.Г. Педагогическая технология формирования естественнонаучных компетенций младших школьников. Автореф. дис. канд. пед. наук. Ижевск, 2006. - 20 с.



МЕТОДОЛОГИЯ НЕПРЕРЫВНОГО ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНТНОСТИ БАКАЛАВРОВ И МАГИСТРОВ

А. МАХМУДОВ,

д.п.н., профессор, заведующий
отделом УзНИИПН

В статье раскрываются методологические аспекты непрерывного формирования компетенций бакалавров и магистров технических специальностей. Рассмотрены особенности компетентностного подхода и предложены методологические решения перевода учебного процесса со «знаниевой» парадигмы на компетентностную.

Ключевые слова: *Методология, парадигма, компетенция, бакалавр, магистр, компетентностный подход.*

Мақолада техник мутахассисликлар бакалаврлари ва магистрларининг компетенцияларини узлуксиз шакллантиришнинг методологик жиҳатлари очиб берилган. Мақолада компетенцияга асосланган ёндашувнинг хусусиятлари кўриб чиқиладди ва ўқув жараёнини «билим»ли парадагмадан компетенциявий парадамага ўтиши жиҳатлари келтирилган.

Калит сўзлар. Методология, парадигма, компетенция, бакалавр, магистр, компетенцияга асосланган ёндашув.

The article reveals the methodological aspects of the continuous formation of competencies of bachelors and masters of technical specialties. The features of the competence-based approach are considered and methodological solutions for the transfer of the educational process from the «knowledge» system to the competence-based one are proposed.

Key words. *Methodology, paradigm, competence, bachelor's degree, Master's degree, competence approach.*

Стремительные изменения в современном мире, предъявляет возросшие требования к уровню подготовки бакалавров и магистров технических специальностей, профессиональная деятельность которых в большей степени связана с необходимостью решения многих сложных, нестандартных и многокритериальных проблем. В этих условиях, наряду с фундаментальными профессиональными знаниями, умениями и навыками, от выпускников высшего образовательного учреждения (ВОУ) требуются такие профессионально-значимые качества личности, как оперативность, готовность, способность находить оптимальные решения и нести за них ответственность [1].



Подобные интегративные качества в научно-педагогической литературе принято называть компетенциями. Следовательно, подготовка компетентных специалистов, способных за короткое время адаптироваться в профессиональной деятельности и быть готовыми к решению сложных, нестандартных задач, является актуальной научно-педагогической проблемой.

Анализ подготовки специалистов технических специальностей в системе высшего образования Республики Узбекистан (бакалавр-магистратура) позволяет сделать вывод о том, что учебный процесс в ВОУ страны во многом основывается на традиционной «знаниевой» парадигме. Вместе с тем, следует отметить, что «знаниевая» система подготовки не ориентирована на формирование и развитие компетенций у обучающихся в силу следующих её основных положений [2]:

- использование дисциплинарной (предметно-содержательной) модели обучения, когда содержание подготовки выстраивается из большого набора отдельных дисциплин;
- использование пассивной модели, когда предметы преподаются, а в конце обучения устанавливается уровень приобретенных знаний, умений и навыков (ЗУН);
- использование в основном технологий передачи знаний, имеющих академический характер;
- овладение профессией осуществляется как процесс накопления совокупности предметных ЗУНов;
- качество подготовки выпускника представляется как нечто производное от числа прослушанных предметов;
- процесс обучения жестко привязан к объекту профессиональной деятельности, то есть, ориентирован на получение квалификации и др.

В отличие от «знаниевого», «компетентностный» подход ориентирован на формирование личности специалиста, характеризующейся единством его теоретических знаний, практической подготовленности, способности и высокой мотивации осуществлять все виды профессиональной и социальной деятельности. Этот подход базируется на междисциплинарной, интегративной модели обучения. Качество подготовки выпускника определяется степенью приобщения специалиста к целостной сфере будущей профессиональной деятельности.

Следовательно, существенным отличием компетентностного подхода от «знаниевого» является изменение целей и технологий образовательного



процесса, а конечный результат обучения должен быть определен фиксированным набором компетенций, по наличию или отсутствию которых надлежит оценивать эффективность обучения [3].

На наш взгляд переориентация «знаниевой» подготовки на компетентностную должна включать решение следующих методологических, методических, дидактических и организационно-технологических проблем [4]:

1. Разработка компетентностной модели личности выпускника (по аналогии со «знаниевой») – это квалификационная характеристика выпускника ВОО), которая является конечной целью образовательного процесса, готовой «продукцией» образовательного воспроизводства. Ядром компетентностной модели личности выпускника являются группы компетенций, которые необходимо формировать в процессе обучения. Применительно к системе подготовки бакалавров и магистров разнообразие компетенций можно структурировать по следующим четырем группам:

- научно-профессиональные компетенции;
- научно-исследовательские компетенции;
- социально-экономические компетенции;
- духовно-мировоззренческие компетенции.

Группы компетенций, которые должны быть сформированы у выпускников технических специальностей, отражают компетентностный характер данной модели и имеют инвариантную направленность. Это отражается в том, что для различных видов технических специальностей формирование компонентов в группах компетенций должно отражать специфику сегодняшнего и завтрашнего дня для данной специальности.

2. Формирование компетентностного учебного плана подготовки специалистов, в который включаются учебные дисциплины, способствующие формированию соответствующих групп компетенций[5].

К учебному плану предъявляются такие требования, совокупность которых, реализованная в учебном процессе, должна способствовать высокому научно-профессиональному, социально-экономическому и духовно-мировоззренческому содержанию процесса обучения магистров. К этим требованиям относятся: непрерывность фундаментальной подготовки, системность содержания учебного плана, преемственность с учебным планом бакалавриата, оптимальность структуры и содержания, эффективное использование временных ресурсов, обеспечение условий для формирова-



ния самостоятельной и творческой личности магистра, обеспечение условий для развития духовно-мировоззренческой культуры магистра.

3. Разработка по всем учебным дисциплинам учебно-методических комплексов (УМК), которые должны включать следующие компоненты:

– программную часть, методическую часть, дидактическую часть, информационную часть.

Качество учебно-методических комплексов предопределяется соблюдением при их разработке следующих требований: индивидуализация обучения, диагностичность обучения, креативность обучения, самостоятельность обучения, современность содержания дисциплины, методическое обеспечение процесса обучения, структурная полнота компонентов УМК, педагогическая инновационность и профессионально-практическая направленность.

4. Разработка индивидуальных аналитических и творческих заданий для эффективной реализации самостоятельной работы магистранта. Постоянная аналитическая и творческая деятельность магистрантов в процессе обучения позволяет им приобрести опыт решения актуальных профессиональных задач и осознания ответственности за принимаемые решения.

5. Внедрение в учебный процесс активных методов (интерактивные, эвристические, поисковые, исследовательские методы и др.) и способов обучения по различным учебным дисциплинам с учетом их педагогических, психологических и дидактических особенностей.

6. Разработка и внедрение в учебный процесс диагностических процедур оценки сформированности компетенций специалистов на всех уровнях и этапах обучения (семестровые и аттестационные диагностики) и др.

Отметим, что компетентностная модель личности выпускника технических специальностей («ядро» компетентностной парадигмы образования) обладает достаточной динамичностью и гибкостью, позволяющими своевременно учитывать возникающие запросы общества и научно-технического прогресса в повышении качества подготовки магистров. Это становится возможным благодаря периодическим пересмотрам содержания компетенций без изменения структуры компетентностной модели личности выпускника. Динамический характер изменений в содержании компетенций нацеливает на создание гибкой технологико-педагогической инфраструктуры, реализация которой будет способствовать повышению качества подготовки специалистов в технических вузах.



Таким образом, переориентация «знаниевой» системы подготовки на компетентностную потребует от образовательных учреждений не только изменения целей и технологий образовательного процесса, но и разработки новых дидактических и методических компонентов учебного процесса.

Литература:

1. Сальников Н. Реформирование высшей школы: концепция новой образовательной модели. Высшее образование в России. - 2008. - №2.
2. Махмудов А. Х. Совершенствование дидактического обеспечения компетентностной подготовки будущих магистров, дисс:... д-ра. пед. наук // Дисс. д-ра. пед. наук. - 2017. - С. 226.
3. Alikovich Eshbayev O., Xamidovich Maxmudov A., Urokovich Rozikov R. An overview of a state of the art on developing soft computing-based language education and research systems: a survey of engineering English students in Uzbekistan //The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. - 2021. - С. 447-452.
4. Махмудов А. Х., Абелкосимова М. Х. К вопросу формирования готовности магистрантов к научно-исследовательской деятельности //Современное образование (Узбекистан). - 2020. - №. 1 (86). - С. 17-22.
5. Джураев Р. Х., Махмудов А. Х., Фефелов В. С. Методология формирования учебно-творческого плана для компетентностной подготовки магистров //Педагогические науки. - 2012. - №. 1. - С. 84-90



CHET TIL TA'LIMIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA YO'NALTIRISH

SH.A. ATADJANOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU., p.f.d.

Ushbu maqola chet til ta'limida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga yo'naltirish masalalarini yoritishga bag'ishlangan. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet til oqitishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: Ta'lim tizimi, chet til, mexanizm, o'rgatish, kasbiy, kasbga yo'naltirish, o'rganish, nutq faoliyati, ta'lim muassasasi.

Данная статья посвящена освещению вопросов профессиональной ориентации будущих специалистов в области иностранного языкового образования. А также речь идет об особенностях преподавания иностранного языка в нефилологических высших учебных заведениях.

Ключевые слова: система образование, иностранный язык, обучение, профессия, профориентация, речевая деятельность, образовательное учреждение.

This article is devoted to highlighting the issues of professional orientation of future specialists in the field of foreign language education. And we are also talking about the peculiarities of teaching a foreign language in neophilological higher educational institutions.

Key words: the education system, foreign language, education, profession, career guidance, training, speech activity, educational institution.

XXI asr nafaqat O'zbekiston uchun balki, dunyo miqyosida fan va texnika taraqqiyoti asri bo'lib kirib keldi. Shunga ko'ra, jahonda har sohada modernizatsiyalash jarayoni kechmoqda. Ta'limda yangi zamonaviy talablarning yo'lga qo'yilishi xususan axborot va pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi aynan yangilanayotgan O'zbekistonning III-Renessans davriga to'g'ri kelmoqda.

Har bir davr o'zining chet til ta'limi maqsadiga ham ega bo'lgan. Maqsadga ko'ra til ta'limida mazmun belgilanar ekan, davrga ko'ra uni o'rgatish hamda o'rganish maqsadi va mazmuni ham o'zgarib boraveradi. Til bugungi kunda yangi va foydali kasbiy bilimlarni egallash vositasi bo'lib hizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, talabalar kasbiy malakalarini rivojlantirishning mohiyati shaxsning kasbiy xislatlarini tarkib toptirishdan iborat.

Shaxs tafakkuri shakllanishida hal qiluvchi vazifani bajaruvchi ona tili boshqa tillarni o'rganishda asos vazifasini o'taydi. Ikkinchi va chet til o'qitishda ona tilini, qolaversa, umuman til tajribasini hisobga olishdek metodik tamoyildan foydalaniladi.

Nofilologik OTMda ta'lim oluvchi talabalar birorta chet tilni amaliy egallash orqali nafaqat tili o'rganilayotgan mamlakatning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, iqtisodini, san'ati kabilar haqida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lib borishlari, balki,



ularning dunyoqvrashini rivojlanishi va bilish faolligi oshishini ham ta'lim jarayonida inobatga olish lozim bo'ladi..

Yangilanayotgan O'zbekiston ta'lim tizimida chet tillarni egallash Evropa darajalar tizimiga asoslanib, tuzilganligini e'tiborga olsak, ya'ni, «Chet tilni egallash» umumevropa kompetensiyasi: o'rganish, o'rgatish, baholash «Strasburg-CEFR» sistemasi asosida tuzilganligi kasbga yo'naltirilganlik masalalarini ham qamrab olishi shart.

Yangi DTSda darajalar bo'yicha chet til o'qitish maqsad va vazifalari, mazmuni belgilab berilgan. Shuningdek Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lmagan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilari chet tili bo'yicha V2 daraja uchun 4ta nutq faoliyati (tinglab tushunish, gapirish, o'qish,yozish) bo'yicha leksik va grammatik kompetensiyalarga ega bo'lishi ta'lim mazmunida batafsil yoritib berilgan. Shuningdek talabalarning tayyorgarligi darajasiga ko'ra bilishi va bajara olishiga qo'yiladigan talablar ham ishlab chiqilgan. Mazkur OTMlarning chet til ta'limi mazmunida talaba internet va axborot texnologiyalarga oid , ijtimoiy-madaniy, mutaxassislikka oid hamda ijtimoiy mavzularda egallashi lozim bo'lgan til kompetensiyalari va mavzulari aniq ko'rsatib o'tilgan. Shunday qilib, nofilologik oliy ta'lim muassasa talabalari 4ta nutq faoliyati yordamida o'zlari tanlagan sohalari bo'yicha muloqot qila olishi, sohasiga oid bo'lgan rasmiy va norasmiy muhokamalarda qatnashish, taqdimot qilish. xabar, xatlar va elektron xatlar, esse (bayon va insholar), yoza bilishi kabilar talab etiladi. Demak, fransuz tili o'quv kursini o'rganish shu til yordamida foydali axborotni olish va boshqalarga etkazish ma'nosini bildiradi. O'zlashtirilgan axborot talabalarning bilim saviyasini oshirish bilan birga ularning kasbiy malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda chet til ta'limi ham kredit-modul tizimida tashkil etilgan. Dars soatlari ham ma'lum darajada qisqartirilgan. Mustaqil ta'limga ma'lum darajada soat ajratilgan. Biroq bu holat nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalariga yetarli deb bo'lmaydi. Chunki mazkur oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar o'zlarining bo'lajak kasblari haqida nafaqat ma'lumotga ega bpo'lishlari balki o'zlarining bo'lajak kasblari bo'yicha axborot ola bilshlari hamda organayotgan tilda ogzaki muloqotga kira bilishlari talab etiladi. Vaholanki, chet tilni mustahkam egallash, avvalom bor, ta'limning tashkil etilishiga, ta'limning turli metod va usullaridan foydalanishga, shuningdek, o'rgatish uchun ajratilgan vaqtga bog'liq deb hisoblaymiz. Ma'lumki, chet til amaliy, ta'limiy-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarda o'rgatilib kelinadi. Biroq bugungi kunda, ya'ni, mazkur ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyatga yo'naltirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada T.Q.Sattorov chet til predmetini quyidagi pedagogik-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tasniflaydi:

1. Ona tili va ingliz tilida muloqot uchun nutqiy muhit keskin farq qiladi. Darsdan tashqari paytlarda talabada chet tilida muloqot qilish uchun muhit mavjud emas. Ona tili uchun doimo tabiiy muhit mavjuddir.



2. Ona tili insonning kundalik faoliyatiga singib ketadi.

3. Inson bolasi tevarak-atrofni ona tili yordamida idrok etib tushunadi va kishilar bilan muloqotga kiradi. Chet tilni o'rgatishda ahvol o'zgacha. Tilning talaffuz, grammatik va leksik tomonlari o'rganiladi, chet tilda fikr bayon etish va idrok etib tushunish amaliy maqsad maqomini oladi (1). Shuningdek, fransuz tili darsliklari talabalarida muloqotni o'rgatish sun'iy nutqiy vaziyatlarni vujudga keltirish bilan ifodalangan. Til o'qitish muammolari barcha olimu fozillar diqqat markazid bo'lmoqda va turli ilmiy nazariy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinib kelinmoqda.

Bizning fikrimizcha, nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi talabalarga chet til ta'limi soatlari ko'paytirilsa hamda ulardan oqilona foydalanilsa, natijada ularda kasbiy malakalarni rivojlantirishiga, ta'lim samaradorligiga erishilishiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, shiddat bilan rivojlanib va yangilanib borayotgan bugungi O'zbekistonda uchun etuk malakali mutaxassislar etkazib berishda bunday omillar muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Bu borada chet til ta'limida o'quv materiallarni tanlashda qator muammolar mavjud. Har bir bosqichda ma'lum maqsadlarga erishish optimal metodlarni tanlash, o'qitishni samarali tashkil etish, mustaqil ishni tashkil etish, qayta ishlanmalarni yaratish va fakultativ, yoki, elektiv o'qitish kurlari mashg'ulotlarini tashkillashtirish zarurdir.

Chet til o'qitish o'ziga xos xususiyatga ega. Chet til asosan tilning leksik, grammatik, talaffuz tomonlarini his etish orqali o'rganiladi hamda til o'rganish ko'p hollarda sun'iy muhitda o'tadi. Chet til o'rgatishda amaliy maqsad yuzasidan mavjud talqinlarda pedagog va metodist olimlarning fikri bir xil emas. «Amaliy maqsad» atamasini ixtisos talabi yoki qiziqishiga qarab, keyinchalik, mukammalroq o'rganib olishga imkon beruvchi tilni kasbiy darajaga etarli bo'lmagan holatda egallash ma'nosida qabul qilishgan. Ayni chog'da, chet tilni nokasbiy darajada bilish, barcha nutq faoliyati turlarini o'rganish yana boshqa bir nuqtai nazarga ko'ra, nutq faoliyatining barcha turlarini bilish yoki chet tilda og'zaki va yozma muloqot yuritish kabilar «amaliy maqsad» doirasida muhokama qilib kelinadi.

«Til – fikrni ifodalash vositasidir. Fikr, inson tushunchalaridan bo'lib, ona tili vositasida shakllanadi (4). Til obyektiv borliqda fikrning ifodalanishi va mavjudligini belgilaydi. V. Gumboldtning aytishicha, til inson uchun vosita ekanligini his qiladi, dunyoni inson faqatgina til yordamida o'zlashtirishga harakat qiladi (5).

Olimning fikriga qo'shilgan holda, chet tillarni o'rganish hayotiy ehtiyojga aylanan ekan, fikrimizcha, OTM talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish muhim ekanligini inobatga olib, chet til ta'limida ularning kasbiy faoliyatga yo'naltirish mexanizmlarini ishlab chiqish o'zimgini e'tirof etish joiz:

– nolisoniy OTMda chet tilni o'quv kursi sifatida o'rgatish maqsadlari va vazifalarini aniq belgilash;

– chet til o'quv predmetining ta'limiy mazmunini qayta ko'rib chiqish;



- talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari nisbatini aniqlash;
- kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini ishlab chiqish;
- fanlararo aloqa o‘rnatish;
- kasbiy malakalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini yaratish;
- ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (dual ta’lim, masofaviy, vebinar, elektiv kurslardan) keng foydalanish;
- kasbiy malakalarni rivojlantirish darajasini nazorat qilish texnologiyasini ishlab chiqish;
- kasbiy malakalarni rivojlantirish taalluqli ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish;
- bo‘lajak mutaxassisning chet til fanidan mustaqil ta’lim olishi va o‘z-o‘zini tarbiyalashi masalalarini hal etish;
- chet til o‘qitish jarayonida talabalarning motivasion jihatini, kasbiy malakaning rivojlantirilganlik dinamikasini o‘rganish;
- chet til o‘rgatish natijasida talabalar kasbiy malakalarni rivojlantirishga erishish va h.k.z.

Chet til ta’limi jarayonida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirishda izchillik, tizimlilik kabilarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi taraqqiyot jarayonida texnologiyalarning rivojlanishi bilimlarni o‘zlashtirishni tezlashtirmoqda hamda zamonaviy mutaxassisni doimiy ravishda o‘z ustida ishlashga jalb etadi. Bu esa «butun hayotga ta’lim» konsepsiyasidan «butun hayot davomida ta’lim»ga o‘tishni bildiradi. Har qanday mutaxassis kasbiy faoliyatda o‘z sohasi bo‘yicha yangi ma’lumotlar olish zaruriyatini his qiladi. Ma’lumotlarning katta qismi chet tilda berilgan. Har qanday sohada ma’lumotlar bazasidan foydalanish, shuningdek, axborot qidirish, turli hujjatlarni rasmiylash-tirish, matnlarni o‘l o‘ bilishni davr talab etmoqda. Inson o‘zga muxitdagi zaruriy informasion texnologiyalarni o‘zlashtirayotib, nafaqat yangi faoliyat usulini egallaydi, eng muhimi, dunyoga boshqacha ko‘z bilan qarashga o‘rganadi (6). Shuni alohida ta’kidlash joizki, chet til ta’limida o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyani dars jarayoniga olib kirar ekan, uning didaktik prinsiplari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Prinsip tushunchasi barcha fanlarda uchraydi. Shu jumladan, chet til o‘qitish metodikasida ham bu tushunchaga ko‘plab olimlar murojaat etadilar. Passov E.I. «Prinsip – o‘qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir» desa yoki N.I.Gez «Metodikada prinsip atamasi ostida o‘sib kelayotgan avlodning ta’lim hamda tarbiyasini amalga oshirishda asos vazifasini o‘taydigan tushuncha deb qaraladi» degan fikrni ilgari suradi. «Prinsip» va «metod» tushunchalarining bir biridan farqlanishi haqida prof. J.J.Jalolov fikr bildirib: «prinsip» tushunchasi bevosita o‘quv jarayonini aks ettiradigan metodik hodisani ifodalaydi, metod esa prinsiplar yig‘indisining mavhumlashtirilgan umumlashmasidir. Masalan, og‘zaki nutqning ilgarilashi prinsipi, til tajribasini hisobga olish prinsipi kabilar (7) Demak, chet til



o'qitish metodikasida prinsip ta'lim berish jarayonining tayanch ustunidir. O'quv predmetining maqsad va mazmuniga ko'ra o'qituvchi va talabani funktsiyalari o'zgarib bormoqda. O'quv predmetini o'qitishni shunday tashkillashtirish kerakki, talaba ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylansin. Aynan «faol o'qitish» talabalarda ongli motivatsiyani shakllantiradi. Ongli faoliyatda didaktik va psixologik sharoitni yaratish zarur (8). Talaba mustaqil referat yoki ilmiy konferensiyalarga ma'ruzalar uchun materiallar yig'ishi, konspekt tuzishi mumkin. Ularni tayyorlash o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi. Mustaqil ishlarda beriladigan topshiriqlarda muloqot vositasi bo'lishi nutq ko'nikmasi va malakalarini egallash vazifasi asosiy o'rinni egallaydi. Har qanday ko'nikma amaliyot natijasida malakaga aylanadi. Nutq malakalari esa aniq kommunikativ topshiriqlarni bajarish orqali shakllanadi. Modomiki nofilologik OO'Yuda chet til o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish va bo'lajak kasbi doirasidagi matnlarni o'qib axborot olib bilishni o'rgatishdan iborat ekan, darsda yoki darsdan tashqari bajaradigan mashqlar mustaqil fikrlashga chorlaydigan bo'lishi kerak. Ma'lumki, ta'lim va tarbiyada shaxs hissiyoti alohida ahamiyatga ega. Shunga ko'ra chet tilda talabani kasbiy malakasini shakllantirish ham hissiyot bilan bog'liq psixologik hodisadir. O'qituvchi talabani yoshi, individual va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur bo'ladi. Chet til o'qitishda talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirish o'qituvchidan yuksak kasbiy kompetensiyani talab etadi. Chet til o'qituvchisi talabaga o'zga xalq tilini o'rgatar ekan, til orqali talabani bo'lajak kasbiga o'z ta'sirini o'tkaza olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sattarov T.K. Mutaxassislik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak chet til muallimining kasbiy uslubi malakalarini shakllantirish (ingliz tili materialida) Ped.fan dokt...dis.-T.: O'zDJTU,2000-421 b.
2. Atadjanova Sh.A. Chet til ta'dimida talabalar kasbiy malakasini shakllantirish metodikasi. -Monografiya. T: Fan,2016.--152
3. Sherba L.V. O vzaimootnosheniyax rodnogo i inostrannogo yazikov// Yazikovaya sistema i rechevaya deyatelnost.-L.1974.-246.
4. Zimnyaya I.A. Psixologiya obucheniya inostrannim yazikam v shkole: -M.: Prosveshenie, 1991. - 222 s.
5. Gumboldt V. Yazik i filosofiya kulturi. -M: Progress,1985.-378 s.
6. Leontev A.A. Emosionalno - volevie prosessi v ovladenii inostrannim yazikom// Inostrannie yaziki v shkole. -1975.- №6. - S. 96-99.
7. Kuzovlev V.P. Professionalnaya podgotovka v pedagogicheskom vuze. Monografiya. - M., 1999. - 131 s.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta‘lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.02.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**